

MELIKOV OTABEK MAXMADAMINOVICH

TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT-SSUDA  
OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH:  
NAZARIYA VA AMALIYOT

MONOGRAFIYA



DENOV – 2026

**Kitob quyidagi ko'rsatilgan  
muddatda topshirilishi shart**

**Oldingi foydalanishlar  
miqdori**

10  
11  
12  
13  
14  
15  
16  
17  
18  
19  
20  
21  
22  
23  
24  
25  
26  
27  
28  
29  
30  
31  
32  
33  
34  
35  
36  
37  
38  
39  
40  
41  
42  
43  
44  
45  
46  
47  
48  
49  
50  
51  
52  
53  
54  
55  
56  
57  
58  
59  
60  
61  
62  
63  
64  
65  
66  
67  
68  
69  
70  
71  
72  
73  
74  
75  
76  
77  
78  
79  
80  
81  
82  
83  
84  
85  
86  
87  
88  
89  
90  
91  
92  
93  
94  
95  
96  
97  
98  
99  
100  
101  
102  
103  
104  
105  
106  
107  
108  
109  
110  
111  
112  
113  
114  
115  
116  
117  
118  
119  
120  
121  
122  
123  
124  
125  
126  
127  
128  
129  
130  
131  
132  
133  
134  
135  
136  
137  
138  
139  
140  
141  
142  
143  
144  
145  
146  
147  
148  
149  
150  
151  
152  
153  
154  
155  
156  
157  
158  
159  
160  
161  
162  
163  
164  
165  
166  
167  
168  
169  
170  
171  
172  
173  
174  
175  
176  
177  
178  
179  
180  
181  
182  
183  
184  
185  
186  
187  
188  
189  
190  
191  
192  
193  
194  
195  
196  
197  
198  
199  
200  
201  
202  
203  
204  
205  
206  
207  
208  
209  
210  
211  
212  
213  
214  
215  
216  
217  
218  
219  
220  
221  
222  
223  
224  
225  
226  
227  
228  
229  
230  
231  
232  
233  
234  
235  
236  
237  
238  
239  
240  
241  
242  
243  
244  
245  
246  
247  
248  
249  
250  
251  
252  
253  
254  
255  
256  
257  
258  
259  
260  
261  
262  
263  
264  
265  
266  
267  
268  
269  
270  
271  
272  
273  
274  
275  
276  
277  
278  
279  
280  
281  
282  
283  
284  
285  
286  
287  
288  
289  
290  
291  
292  
293  
294  
295  
296  
297  
298  
299  
300  
301  
302  
303  
304  
305  
306  
307  
308  
309  
310  
311  
312  
313  
314  
315  
316  
317  
318  
319  
320  
321  
322  
323  
324  
325  
326  
327  
328  
329  
330  
331  
332  
333  
334  
335  
336  
337  
338  
339  
340  
341  
342  
343  
344  
345  
346  
347  
348  
349  
350  
351  
352  
353  
354  
355  
356  
357  
358  
359  
360  
361  
362  
363  
364  
365  
366  
367  
368  
369  
370  
371  
372  
373  
374  
375  
376  
377  
378  
379  
380  
381  
382  
383  
384  
385  
386  
387  
388  
389  
390  
391  
392  
393  
394  
395  
396  
397  
398  
399  
400  
401  
402  
403  
404  
405  
406  
407  
408  
409  
410  
411  
412  
413  
414  
415  
416  
417  
418  
419  
420  
421  
422  
423  
424  
425  
426  
427  
428  
429  
430  
431  
432  
433  
434  
435  
436  
437  
438  
439  
440  
441  
442  
443  
444  
445  
446  
447  
448  
449  
450  
451  
452  
453  
454  
455  
456  
457  
458  
459  
460  
461  
462  
463  
464  
465  
466  
467  
468  
469  
470  
471  
472  
473  
474  
475  
476  
477  
478  
479  
480  
481  
482  
483  
484  
485  
486  
487  
488  
489  
490  
491  
492  
493  
494  
495  
496  
497  
498  
499  
500  
501  
502  
503  
504  
505  
506  
507  
508  
509  
510  
511  
512  
513  
514  
515  
516  
517  
518  
519  
520  
521  
522  
523  
524  
525  
526  
527  
528  
529  
530  
531  
532  
533  
534  
535  
536  
537  
538  
539  
540  
541  
542  
543  
544  
545  
546  
547  
548  
549  
550  
551  
552  
553  
554  
555  
556  
557  
558  
559  
560  
561  
562  
563  
564  
565  
566  
567  
568  
569  
570  
571  
572  
573  
574  
575  
576  
577  
578  
579  
580  
581  
582  
583  
584  
585  
586  
587  
588  
589  
590  
591  
592  
593  
594  
595  
596  
597  
598  
599  
600  
601  
602  
603  
604  
605  
606  
607  
608  
609  
610  
611  
612  
613  
614  
615  
616  
617  
618  
619  
620  
621  
622  
623  
624  
625  
626  
627  
628  
629  
630  
631  
632  
633  
634  
635  
636  
637  
638  
639  
640  
641  
642  
643  
644  
645  
646  
647  
648  
649  
650  
651  
652  
653  
654  
655  
656  
657  
658  
659  
660  
661  
662  
663  
664  
665  
666  
667  
668  
669  
670  
671  
672  
673  
674  
675  
676  
677  
678  
679  
680  
681  
682  
683  
684  
685  
686  
687  
688  
689  
690  
691  
692  
693  
694  
695  
696  
697  
698  
699  
700  
701  
702  
703  
704  
705  
706  
707  
708  
709  
710  
711  
712  
713  
714  
715  
716  
717  
718  
719  
720  
721  
722  
723  
724  
725  
726  
727  
728  
729  
730  
731  
732  
733  
734  
735  
736  
737  
738  
739  
740  
741  
742  
743  
744  
745  
746  
747  
748  
749  
750  
751  
752  
753  
754  
755  
756  
757  
758  
759  
760  
761  
762  
763  
764  
765  
766  
767  
768  
769  
770  
771  
772  
773  
774  
775  
776  
777  
778  
779  
780  
781  
782  
783  
784  
785  
786  
787  
788  
789  
790  
791  
792  
793  
794  
795  
796  
797  
798  
799  
800  
801  
802  
803  
804  
805  
806  
807  
808  
809  
810  
811  
812  
813  
814  
815  
816  
817  
818  
819  
820  
821  
822  
823  
824  
825  
826  
827  
828  
829  
830  
831  
832  
833  
834  
835  
836  
837  
838  
839  
840  
841  
842  
843  
844  
845  
846  
847  
848  
849  
850  
851  
852  
853  
854  
855  
856  
857  
858  
859  
860  
861  
862  
863  
864  
865  
866  
867  
868  
869  
870  
871  
872  
873  
874  
875  
876  
877  
878  
879  
880  
881  
882  
883  
884  
885  
886  
887  
888  
889  
890  
891  
892  
893  
894  
895  
896  
897  
898  
899  
900  
901  
902  
903  
904  
905  
906  
907  
908  
909  
910  
911  
912  
913  
914  
915  
916  
917  
918  
919  
920  
921  
922  
923  
924  
925  
926  
927  
928  
929  
930  
931  
932  
933  
934  
935  
936  
937  
938  
939  
940  
941  
942  
943  
944  
945  
946  
947  
948  
949  
950  
951  
952  
953  
954  
955  
956  
957  
958  
959  
960  
961  
962  
963  
964  
965  
966  
967  
968  
969  
970  
971  
972  
973  
974  
975  
976  
977  
978  
979  
980  
981  
982  
983  
984  
985  
986  
987  
988  
989  
990  
991  
992  
993  
994  
995  
996  
997  
998  
999  
1000

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

MELIKOV OTABEK MAXMADAMINOVICH

**TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT-  
SSUDA OPERATSIYALARINI  
RIVOJLANTIRISH: NAZARIYA VA  
AMALIYOT**

**MONOGRAFIYA**

Denov – 2025

**Melikov.O.M. Tijorat banklarining depozit-ssuda operatsiyalarini rivojlantirish: nazariya va amaliyot**

Bugun respublika iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda banklar faoliyatini *yarada takomillashtirish*, tijorat banklari depozit bazasining barqarorligini ta'minlash, kreditlash hajmlari o'sishining mo'tadil darajasiga amal qilish, kreditlarning daromadligi va riskiligi o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash, banklarning depozit-kredit xizmatlarini innovatsiyalar asosida takomillashtirish hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Ta'kidlash joizki, tijorat banklarining depozit va ssuda operatsiyalarining metodologiyasi va amaliyotini takomillashtirish va bu orqali banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning asosiy omillaridan biridir. Bu esa mazkur tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Dunyo miqyosida tijorat banklari depozit operatsiyalarini innovatsion instrumentlar asosida rivojlantirish, banklarning depozit bazasining yetariligidini ta'minlash, depozitlarning kreditli transformatsiyasini takomillashtirish, tijorat banklari ssuda operatsiyalarining daromadligi va riskiligi o'rtasidagi mutanosiblikka erishish, kredit riskiga bevosita ta'sir etuvchi foiz riski va valyuta riskining ta'sir darajasini baholash aniqliligini oshirish, banklarning depozit va ssuda operatsiyalarini tartibga solish tizimini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini yuqori va barqaror sur'atlarda o'sishini va raqobatbardoshligini ta'minlash mamlakat bank tizimining va uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan tijorat banklari faoliyatining barqarorligini ta'minlash zaruriyatini yuzaga keltiradi. Zero banklarning asosiy xizmat turlari hisoblangan depozit va kredit xizmatlarini o'rganish, tadqiq etish va takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Taqrizchilar:

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Moliya va bank ishi" kafedrasida professori i.f.d. R.Bozorov;

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti "Moliya va turizm" kafedrasida dotsenti, i.f.d. B.Rahmatullayev

*Ushbu monografiya Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Kengashining 2025 yil "24" dekabrda 4-sonli qaroriga asosan nashr etildi.*

UO'K 336.713(575.1)

KBK 65.262.1(50')

Melikov, O.M. Tijorat banklarining depozit-ssuda operatsiyalarini rivojlantirish: nazariya va amaliyot [Matn] / O.M. Melikov ; muharrir J. Karimov. - Andijon: Innovative publication, 2026. - 112 b

ISBN 978-9910-09-653-2

"Innovative Publication" nashriyoti, 2026

## KIRISH

Tijorat banklarining depozit va kredit xizmatlarini rivojlantirish mamlakat bank tizimini isloh qilish va rivojlantirishning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Xususan, 2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida banklarning davlat resurslariga qaramligini pasaytirish, kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo'tadil o'sishiga amal qilish, kreditlashni faqat bozor shartlarida amalga oshirish mamlakat bank tizimining ustuvor yo'nalishlari sifatida e'tirof etilgan<sup>1</sup>.

Shuningdek, "O'zbekiston - 2030" strategiyasida mamlakat bank tizimini rivojlantirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar belgilangan. Chunonchi, Strategiyaga muvofiq, bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish maqsadida 2030 yilga qadar bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini 40 milliard dollarga yetkazish, bank omonatlari hajmini 4 barobarga oshirish, banklarni xususiyashtirish va davlat ixtiyorida 3-4 ta bankni saqlab qolish, bank bozoriga kamida 4 ta yirik nufuzli chet el banklarini jalb qilish, banklarga xalqaro tan olingan minimal standart va talablarni joriy qilish orqali me'yorlar va nazorat bazalarini takomillashtirish, kamida 3 ta tijorat banklarida islom moliyasi mezon va tartiblarini joriy etish, islom moliyasining qonuniy asoslarini shakllantirish ko'zda tutilgan<sup>2</sup>.

Yuqorida qayd etilgan holatlar O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining depozit va kredit xizmatlarini rivojlantirish masalasini ilmiy asosda tadqiq qilish zaruriyatini yuzaga keltiradi.


Ushbu monografik tadqiqot mamlakat tijorat banklarining depozit va kredit xizmatlarini rivojlantirish masalasini ilmiy asosda tadqiq qilishga bag'ishlangan bo'lib, uning asosiy mazmuni uch bobda o'z ifodasini topgan.

Monografiyaning "Tijorat banklarining depozit va kredit xizmatlari ko'rsatish amaliyotining nazariy asoslari va xorij tajribasi" deb nomlangan birinchi bobida taniqli iqtisodchi olimlarning tijorat banklarining depozit va kredit xizmatlari amaliyotini takomillashtirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlari tadqiq qilingan, raqamli bank texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan hamda banklarning depozit va kredit xizmatlari amaliyotini takomillashtirish borasidagi ilg'or xorij tajribasi o'rganilgan va umumlashtirilgan.

Monografiyaning "O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining bank xizmatlari, kredit va depozit xizmatlarining zamonaviy holati" deb nomlangan

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-sonli "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni //QHMMB.06/205992/0581-son. 13.05.2020 y.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrda PF-158-sonli Farmoni. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida/Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son, 29.12.2023 y., 06/23/214/0984-son.



ikkinchi bobida innovatsion bank xizmatlari tadqiq qilingan, tijorat banklarining depozit va kredit xizmatlarining amaldagi holatiga baho berilgan.

Monografiyaning "O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kredit va depozit xizmatlari ko'rsatish amaliyotini takomillashtirish" deb nomlangan uchinchi bobida tijorat banklarining kredit va depozit xizmatlarini ko'rsatish amaliyotini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolar aniqlangan hamda ularni hal qilishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Monografik tadqiqotni amalga oshirishda Jahon banki ekspertlarining empirik tadqiqotlari natijalaridan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlaridan hamda xorij va mamlakat tijorat banklarining yillik hisobotlari ma'lumotlaridan foydalanilgan.

## 1-BOB. TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT VA SSUDA OPERATSIYALARINING NAZARIY, HUQUQIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

### 1.1-§. Banklarning depozit operatsiyalari xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar

Tijorat banklarining depozit operatsiyalari xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy asosda tadqiq qilingan va ushbu tadqiqotlarning natijalari bo'yicha ilmiy xulosalar, amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

V.Usoskinning xulosasiga ko'ra, «ko'pchilik mamlakatlarda tijorat banklarining depozitlari muddatiga ko'ra ikkiga bo'linadi: talab qilib olinadigan depozitlar va muddatli depozitlar. Biroq, so'nggi o'n yillikda depozitlarning ushbu ikki turi o'rtasidagi farqning chegarasi yo'qolib bormoqda, ya'ni o'zida ham talab qilib olinadigan depozitlarning xususiyatini, ham muddatli depozitlarning xususiyatini aks ettiradigan gibrid depozitlar paydo bo'ldi. Masalan, AQShning bank statistikasida transaksion hisobraqamlar (transaction accounts) va chekli hisobraqamlar (checkable accounts) toifalari paydo bo'ldi. Ushbu depozit turlariga cheklar va boshqa hisob-kitob instrumentlarini yozish mumkin»<sup>3</sup>.

Haqiqatdan ham, an'anaviy depozit turlaridan (talab qilib olinadigan depozitlar, muddatli depozitlar, jamg'arma depozitlar) faqat talab qilib olinadigan depozitlarga hisob-kitob hujjatlarini yozish mumkin, muddatli va jamg'arma depozitlarga hisob-kitob hujjatlarini yozish qonuniy asosda ta'qiqlangan. Yuqorida qayd etilgan gibrid depozit hisobraqamlarining paydo bo'lishi, V.Usoskin, haqli ravishda e'tirof etganidek, depozitlarning turlari o'rtasidagi farqning chegarasi yo'qolib borayotganligidan dalolat beradi. Bu esa, fikrimizcha, ssuda kapitallari bozorida banklararo raqobatning kuchayib borayotganligi bilan izohlanadi. Aynan, banklararo raqobatning kuchayib borayotganligi tijorat banklarini yangi, innovatsion depozit xizmatlaridan foydalanishga majbur qilmoqda.

I.Yudina Braziliya misolida tijorat banklarining depozit operatsiyalarini rivojlantirish bevosita milliy valyutaning nominal almashuv kursining barqarorligiga bog'liq ekanligini asoslab bergan. U yozadi: «1998 yilning 17 avgustidan keyin Braziliya iqtisodiyoti va moliyalarining zaif ekanligi fond indekslarining keskin tushib ketishiga va milliy valyuta – realning kursini pasayib ketishiga olib kelishi obligatsiyalar, depozitlar va xorijiy banklarning kreditlari ko'rinishidagi xorijiy kapitalni Braziliyadan ommaviy qochib chiqib ketishiga olib keldi. Ulardan keyin, odatda, milliy kapital ham xorijga qochib ketishga tushdi.

<sup>3</sup> Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: управление и операции. – М.: Ленанд, 2019. – С.104.

Markaziy bank, bozorning barcha ishtirokchilari qutulishni hohlagan realning kursini saqlab turish uchun, uch oy ichida o'zining valyuta zaxiralarning qariyb yarmini valyuta bozoriga olib chiqib sotishga majbur bo'ldi<sup>4</sup>.

I.Yudinaning mazkur xulosasidagi ikki muhim jihatga e'tibor qaratish lozim: birinchidan, fond indekslarining pasayib ketishi qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning real qiymatini pasayishiga olib keladi, bu esa, investorlarni yirik miqdorda zarar ko'rishiga sabab bo'ladi; ikkinchidan, milliy valyutani keskin qadrsizlanishi milliy valyutadagi depozitlar va ulardan olingan foizli daromadlarning real qiymatini pasayishiga olib keladi.

J.Sinki tijorat banklari depozitlarini sug'urta qilish tizimini tadqiq qilar ekan, depozitlarni sug'urta qilishning passiv modeliga e'tibor qaratadi. Uning fikriga ko'ra, depozitlarni sug'urtalashning passiv modeli, birinchidan mijozlarga nisbatan tashqi omillarga asoslangan andarrayting talablarini hisobga oladi. Ikkinchidan, katta sonlar qonuni bazasida aktuar tahlilni amalga oshirishning imkonini beradi. Uchinchidan, mijozlarning kutilayotgan zararlarini qoplash imkonini beradigan mukofot summasini shakllantirish imkonini beradi. To'rtinchidan, kutilayotgan zararlarini qoplash uchun yetarli bo'lgan zaxiralarni shakllantirish imkonini yaratadi<sup>5</sup>.

Haqiqatdan ham, xalqaro bank amaliyotida depozitlarni sug'urta qilishning passiv modeli keng ko'llaniladi. Lekin, depozitlarni sug'urtalashning "uch tomonlama kafolat" modeli ham dunyo mamlakatlari amaliyotida ancha keng qo'llaniladi. Ushbu modelning muhim afzalligi shundaki, agar tijorat bankining bankrotligi tufayli depozitlarni qoplash uchun shakllantirilgan zaxiralarni miqdori yetmasa, u holda, uchinchi tomon sifatida hukumat zararni qoplab beradi.

S.Ilina yozadi: raqobat kurashi sharoitida tijorat banklari jozibador kredit tashkiloti bo'lishi uchun tegishli operatsiyalarni (jadallashtirilgan pul o'tkazmasi, kartalarni emissiya qilish va boshq.) amalga oshiradi. Shuningdek, zamonaviy sharoitda tijorat banklari tomonidan biznesni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ko'plab qarorlar taklif qilinmoqda: kreditlar berishdan tortib, bank kafolatlari taqdim etishgacha, hisob-kitob-kassa xizmati ko'rsatish va hisob raqamlarni yuritish, ish haqi loyixalarni, faktoring, ekvayring va boshqa ko'plab xizmatlarni ko'rsatish<sup>6</sup>.

S.Ilinaning ushbu xulosasi tijorat banklarining depozit operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai nazaridan amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki,

<sup>4</sup> Юдина И.В. Банковская система в развивающихся экономиках: опыт становления, развития и кризисов. Монография. – М.: ИНФРА-М, 2013. – С. 122.

<sup>5</sup> Спикки. Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишер, 2017г. – С.880-881.

<sup>6</sup> Ильина С.И. Оптимизация и управление бизнес-процессами, влияющими на повышение эффективности деятельности коммерческого банка//Материалы докладов в сборнике научных трудов по материалам конференции (форума) с международным участием International Conference on research Trends in Social Sciences, Education, Humanities, Business and Management Studies - San Francisco, USA - 30.03.2020. - pp.72-75.

tijorat banklarining kreditlari jismoniy va yuridik shaxslar uchun muhim moliyalashtirish manbai hisoblanadi. O'z navbatida, jismoniy va yuridik shaxslarning kreditlarga bo'lgan talabini to'liq qondirish uchun tijorat banki yetarli darajada depozitlarga va depozitsiz resurs manbalariga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, faktoring, ekvayring xizmatlarini ko'rsatish uchun bank yetarli darajada resurs bazasiga va likvidlilikka ega bo'lishi kerak.

N.Kojelning fikricha, depozit operatsiyalari – bu fuqarolarning jamg'armalarini va yuridik shaxslarning bo'sh resurslarini jalb qilish, shu jumladan ayrim banklar tomonidan vaqtinchalik bo'sh resurslarni boshqa banklarga va markaziy bankka joylashtirish bo'yicha faoliyatdir<sup>7</sup>.

N.Kojel ushbu ta'rifda depozitlarni jismoniy va yuridik shaxslarning vaqtinchalik bo'sh turgan resurslarini jalb qilish bo'yicha faoliyat sifatida talqin qilmoqda. Lekin tijorat bankining o'zini vaqtincha bo'sh turgan resurslarini boshqa bankka va markaziy bankka joylashni ham depozit operatsiyalari sifatida talqin qilmoqda. Bu esa, aniqlik kiritilishi lozim bo'lgan talqin hisoblanadi. Chunki, tijorat bankining ixtiyoridagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'i boshqa banklarga REPO sharti bo'yicha joylashtirilishi ham mumkin. Bu esa, depozit operatsiyasi hisoblanmaydi.

O.Gorbunova va O.Kravchenkoning xulosasiga ko'ra, bankdan ipoteka krediti olishda ko'pchilik hollarda kredit oluvchidan ma'lum miqdordagi moliyaviy jamg'armaga ega bo'lishi talab etiladi. Ushbu jamg'arma ipoteka krediti uchun boshlang'ich badalni to'lash uchun zarur bo'ladi. Xususan, ko'pchilik ipoteka dasturlarida sotib olinadigan ko'chmas mul bozor qiymatining 10 foizigacha bo'lgan miqdorda dastlabki badal talab qilinadi<sup>8</sup>.

Ushbu xulosa tijorat banklarining depozit operatsiyalarini rivojlantirish va ipoteka kreditlari riskini kamaytirish nuqtai nazaridan amaliy ahamiyat kasb etadi. Ipoteka krediti oluvchilarning dastlabki badallari tijorat bankining muddatli depozitlari miqdorini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, dastlabki badallar ipoteka krediti bo'yicha kredit riski darajasini pasaytirishga xizmat qiladi.

A.Ab'edkov va O.Kravchenkoning xulosasiga ko'ra, jismoniy shaxslarning tijorat bankini resurslar jalb qilishdagi rolini oshib borayotganligi sababli, mijozlarning ushbu toifasiga bo'lgan e'tiborni oshirish zarurdir. Shuning uchun ham

<sup>7</sup> Кожель Н. О. Оценка факторов влияния на процесс формирования и реализации депозитной политики банка//Проблемы и перспективы развития банковской системы Украины. Сборник научных трудов, 2015. - № 12. - С. 233-234.

<sup>8</sup> Горбунова О. А., Кравченко О. В. Обзор стратегии развития рынка ипотечного кредитования с целью увеличения финансовых ресурсов коммерческих банков//Современная парадигма и механизмы экономического роста российской экономики и ее регионов: сборник материалов Всероссийской научно-практической конференции. - Самара, 2019. - С. 71-79.

Sberbank jismoniy shaxslar uchun depozitli omonatlarning jozibadorligini oshirishga harakat qilmoqda<sup>9</sup>.

A.Ob'edkov va O.Kravchenkoning ushbu xulosasi tijorat banklarining depozit bazasini diversifikatsiya qilish nuqtai nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, jismoniy shaxslarning omonatlari ko'p sonli bo'lganligi sababli, ularning jami depozitlardagi ulushining oshishi tijorat bankining depozit bazasini diversifikatsiya darajasini oshirishga xizmat qiladi.

N. Tkachning xulosasiga ko'ra, talab qilib olinadigan depozitlar barqaror bo'lmaganligi sababi tijorat banklarini ulardan foydalanish sohasi cheklangan, shu sababli, banklar tomonidan talab qilib olinadigan depozitlarga past stavkada foiz to'lanadi. Biroq, talab qilib olinadigan depozitlar arzon resurs bo'lganligi sababli ular yordamida banklar oladigan foydani ko'paytirish imkoniyati yuzaga keladi<sup>10</sup>.

N.Tkachning ushbu xulosasi O'zbekiston banklarining depozit xizmatlari ko'rsatish amaliyoti uchun amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki, Fuqarolik kodeksi respublika tijorat banklariga mijozlarning talab qilib olinadigan depozitlaridan resurs sifatida foydalanishga ruxsat etadi.

N. Zinovevaning fikriga ko'ra, jamg'arma omonatlari uzoq muddatli mazmunga ega bo'lib, uzoq muddatli aktivlarning manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin. Biroq, ular quyidagi kamchiliklarga ega:

– ushbu omonatlar turli omillarning (siyosiy, iqtisodiy, psixologik) ta'sirlariga beriluvchandir;

– mazkur omonatlar bo'yicha foiz to'lovlarini oshirib borish zaruriyatining mavjudligi;

– bankning ushbu resurslarni doimiy asosda qayta tiklash imkoniyatining mavjud emasligi<sup>11</sup>.

Haqiqatdan ham, muddatli omonatlar jismoniy shaxslarning muddatli depozitlariga nisbatan bankda uzoqroq muddat saqlanadi. Lekin, muddatli omonatlar uzoq muddatli resurs bo'lganligi sababli, ularga to'lanadigan foizlarning stavkalarini oshish ehtimoli doimo yuqori bo'ladi.

A.Tashkinovanning xulosasiga ko'ra, tijorat banklari ko'p turdagi depozit mahsulotlarini muomalaga chiqarishlari mumkin va mazkur mahsulotlar turli muddatlarga, turli maqsadlarga va turli foiz stavkalariga ega ekanligi bilan tavsiflanadi. Shu sababli, har bir mijoz o'zi uchun pul mablag'larini foiz asosida

joylashtirishning maqbul variantini topishi mumkin. Agar bank bankrot bo'lsa, Markaziy bank omonatni to'liq yoki ma'lum qismini qaytarilishiga kafolat berishi mumkin<sup>12</sup>.

A.Tashkinovanning ushbu xulosa O'zbekiston banklari va ularning mijozlari uchun amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki, O'zbekiston Respublikasining 2025 yil 18 fevraldagi O'RQ № 1031-sonli "Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, Omonatchi bitta bankda bir nechta kafolatlash ob'ektlariga ega bo'lgan taqdirda, mazkur kafolatlash ob'ektlari bo'yicha to'lanadigan kompensatsiyaning umumiy miqdori kafolatlash ob'ektlarining miqdori va valyutasidan qat'i nazar, 200 million so'mdan oshmasligi kerak<sup>13</sup>.

I.Larionova yozadi: «tijorat banklari depozit bazasining yetarililigini baholashda "NOW" schotdagi pul mablag'larini hisobga olish lozim, chunki bu pul mablag'lari o'zida joriy depozitlarning barqaror qoldig'ini namoyon etadi»<sup>14</sup>.

Haqiqatdan ham, "NOW" schotdagi pul mablag'larga to'lov topshiriqnomasi yozilmaydi, shu sababli, uni barqaror depozit, deb hisoblash mumkin.

Sh.Ruzmetov tadqiqoti natijalariga asoslangan holda xulosa qiladi: «respublikamiz tijorat banklariga transaksion depozit hisobraqamidagi mablag'lardan ularni muddatli depozit schotiga o'tkazmasdan resurs sifatida foydalanish amaliyotining mavjudligi tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlashga bo'lgan rag'batga putur etkazadi, banklarning likvidililigiga nisbatan jiddiy salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi»<sup>15</sup>.

O'zbekistonlik bir guruh iqtisodchi olimlarning fikriga ko'ra, depozitlar – xo'jalik subektlari va xususiy shaxslarning pul mablag'lari yoki qimmatli qog'ozlarini talab qilinishi bilanoq shartnoma asosida kelishilgan muddatda foizlar yoki ustama haq to'langan yohud bunday to'lovlarsiz hammasini qaytarib berish sharti bilan saqlash uchun bankka qo'yiladigan omonatlardir. Depozitlar banklarning kredit berish, faktoring operatsiyalari o'tkazish, investitsiyalarni amalga oshirishda foydalaniladigan ssuda fondini tashkil qilish manbayi hisoblanadi<sup>16</sup>.

<sup>9</sup> Об'едков А. С., Кравченко О. В. Сберегательная активность населения в современных условиях и ее роль в формировании ресурсной базы коммерческого банка (на примере деятельности ПАО Сбербанк) // Актуальные научные исследования в современном мире. – Москва, 2020. – № 6-3 (62). – С. 217-224.

<sup>10</sup> Tkach N.D. Депозитные операции коммерческого банка // Вестник Национального института бизнеса. – Москва, 2016. – №4. – С. 180-189.

<sup>11</sup> Зиньцова Н. М. Виды банковских депозитов и их особенности // Территория науки. – Ярославль, 2016 – №5. – С. 133-137.

<sup>12</sup> Ташкинова А.П. Методы расчета стоимости кредитно-депозитных услуг банка/Экономика и управление в современных условиях: материалы международной научно-практической конференции. Материалы Международной научно-практической конференции Сибирского института бизнеса, управления и психологии. – Красноярск, 2010. – С. 191-195.

<sup>13</sup> O'zbekiston Respublikasining 2025 yil 18 fevraldagi O'RQ № 1031-sonli Qonuni. Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi qonuni//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.02.2025 y., 03/25/1031/0160-son.

<sup>14</sup> Ларнионова И.В. О приведении банковского регулирования в соответствие со стандартами базельского комитета по банковскому надзору (Базел - III) в условиях нестабильной экономической ситуации. Монография. – М.: КИОРУС, 2018. – 190 с

<sup>15</sup> Ruzmetov Sh.B. O'zbekiston tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlash yo'llari. 1.f.n. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2009. – 18 b.

<sup>16</sup> Abdullaev Yo., Qoraliev T., Toshmurodov Sh., Abdullaeva S. Bank ishi. O'quv qo'llanma –T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2010-yil, -208 bet

A. Absalomov va M. Majidovlarning ta'rificha, muddatli depozitlar - bu banklar tomonidan ma'lum muddatga jalb qilinadigan depozitlardir. Bu turdagi depozitlar qo'yilgan muddatda o'zgarmas bo'lishi va ular joriy to'lovlar uchun ishlatilmaydi. Muddatli depozitlarga qo'yiladigan mablag'larni qaytarib olish oldindan kelishiladi. Ushbu depozit turining nomidan ham ma'lumki, depozit mablag'lar aniq muddatga qo'yishi lozim. O'z navbatida banklar, ushbu depozit turi bo'yicha nisbatan yuqori foiz stavkada to'lovlarni to'laydi. Bank mazkur depozitga muddati tugaguncha saqlash uchun va oldindan ogohlantirish yo'li bilan muddati tugamasdan qaytarib berish haqida omonatchi bilan depozit shartnomasini tuzishi mumkin. Birinchi holatdagi depozit turida, bank kelishilgan muddat tugaguncha omonatchining mablag'idan erkin foydalanish huquqiga ega bo'ladi. Muddati tugagandan keyin omonatchi tomonidan ushbu mablag' talab qilinmasa, kelgusida ushbu hisobvaraqa talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqa tarzida ishlaydi.<sup>17</sup>

B. Shermuxammedovning fikriga ko'ra, depozit faoliyati - bu barcha depozit operatsiyalari asos va poydevor bo'lib, uni "banklarning yuridik va jismoniy shaxslardan mablag'larini ma'lum muddat yoki talab bo'yicha depozitlarga jalb qilish bo'yicha operatsiyalari" deb tushunish kerak. Jismoniy shaxslardan jalb etilayotgan xorijiy valyutadagi omonatlar bo'yicha foiz stavkalarining pasayib borishi ma'lum jihatdan aholi ixtiyoridagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larni iqtisodiyotning real sektoridan "yashirin iqtisodiyot" ga oqib o'tishiga sababchi bo'ladi. Yuqorida qayd etilganidek, mijozlarning bank sektoriga bo'lgan ishonchi birinchi navbatda uzoq muddatli davrda xizmatlarning narxining saqlanib qolishi bilan belgilanadi. Demak, foiz stavkalarining tezkor yoki fundamental omillar ta'sirisiz o'zgartirilishiga depozit siyosatining samaradorligini pasaytiruvchi omil sifatida baholanishi zarur. Bundan tashqari, bunday holat koronavirus pandemiyasiga qarshi karantin choralari davom ettirilishi paytida aholining vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini bank depozitlariga jalb etishga salbiy ta'sir o'tkazadi<sup>18</sup>.

Bir guruh O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar depozitlarga xos bo'lgan quyidagi shartlarni ajratib ko'rsatishadi:

- mijozning talabiga binoan yoki muddat o'tganidan keyin foizlar yoxud boshqa daromadlar bilan yoki ularsiz yoxud omonatchi yoki uning vakolatli vakili va pul mablag'larini qabul qiluvchi bank o'rtasida, kelishilgan shartlar asosida qaytarilishi lozim bo'lgan pul mablag'larini;

- subordinar qarzga, egalik qilish huquqlariga yoki xizmatlariga, shu jumladan sug'urta xizmatlariga taalluqli bo'lmagan pul mablag'larini;

- pul mablag'larini qabul qiluvchi bankning tegishli hujjati bilan yozma shaklda tasdiqlangan pul mablag'larini. Depozit operatsiyalarini tijorat banklari o'zlarining depozit siyosatlariga asosida olib boradilar<sup>19</sup>.

N. Shamsiev bergan ta'rifga ko'ra, tijorat banklari depozit siyosati - bank tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning bo'sh pul mablag'larini jalb qilish hamda keyinchalik mazkur mablag'larni o'zaro manfaatli asosda joylashtirishga qaratilgan chora tadbirlarni o'zida mujassam etgan bank siyosatidir. Tijorat banklari tomonidan puxta ishlangan depozit siyosati orqali barqaror pul mablag'larini jalb qilish banklar resurs bazasini oshishiga, bu esa o'z navbatida, banklarning kredit berish amaliyotida resurs yetishmasligi muammosining oldini olishga xizmat qiladi<sup>20</sup>.

N. Shamsiev bergan ta'rifda depozit siyosati bo'sh pul mablag'larini jalb qilish va joylashtirish sifatida tadqiq qilingan. Biroq, depozitlarni joylashtirish depozit siyosatining doirasidan tashqariga chiqadi.

I. Toymuxammedovning fikriga ko'ra, bank resurslarini shakllantirish jarayoni bu faqatgina yangi mijozlarni bankka jalb qilishning o'zi emas, balki bank mablag'larini tuzilishining doimiy ravishda o'zgarib turishi va tarkibidagi passivlarning holatiga qarab o'z aktivlarini boshqarish ham tushuniladi. Buning uchun esa, samarali passivlarni boshqarish tizimi yoki samarali depozit siyosatini yuritilishini talab etadi. Mijozlar oldidagi talabni doimiy qondirish hamda barqaror holatni saqlab qolish uchun banklar kerakli darajada likvidlik talablarini bajrish kerak. Likvidlik normasini ko'rsak, bugungi kunda u barcha talab qilib olinguncha depozitlarga nisbatan 30% dan kam bo'lmagan miqdorda mablag'larni likvid holda ushlab turishi shart<sup>21</sup>.

I. Toymuxammedov yuqoridagi ta'rifda depozitlarni samarali joylashtirishni bankning likvidligini ta'minlashning zaruriy sharti sifatida e'tirof etgan. Biroq, muallif banklarning likvidligi bo'yicha faqat bitta makroprudensial me'yorni (joriy likvidlik koeffitsienti) ko'rsatgan. Holbuki, tijorat banklarining likvidligiga nisbatan belgilangan boshqa makroprudensial me'yorlar (likvidlikni qoplash me'yori, sof barqaror moliyalashtirish me'yori) ham mavjud.

A. Omonovning taklifiga ko'ra, «tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash masalasini ilmiy asosda tadqiq qilgan. Uning xulosasiga ko'ra,

<sup>19</sup> Bektemirov A., Malikova D.M., Bo'taev J. E. Tijorat banklarining depozit bazasini mustahkamlash yo'llari // JMBM. - Toshkent, 2023. - №2.

<sup>20</sup> Shamsiev N.M. Respublikamizda tijorat banklarini depozit operatsiyalarining samaradorligini oshirish masalalari // Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: nazariya va amaliyot. Masofaviy, onlayn konferensiya. - B. 151.

<sup>21</sup> Toymuxammedov I.R. Bank ishi. O'quv qo'llanma. - Toshkent: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. - 144 b.

<sup>17</sup> Absalomov Akram Tollibovich, Majidov Mirzohid Amriddinovich. Uzbekiston banklarida aktiv-passivlarini boshqarish holati. Moliya va Bank ishi Jurnal 1 (2022), 123-132

<sup>18</sup> Shermuxammedov B.U. Tijorat banklarining depozit siyosati va uni iqtisodiy ahamiyatini yanada oshirish yo'llari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. Toshkent, 2021. - №2.

tijorat banklari resurslari tarkibida muddatli depozit mablag'lari salmog'ini oshirish va bankdan tashqari aylanmalarni zarur darajada kamaytirish maqsadida muddatli va jamg'arma depozitlarga nisbatan Markaziy bankning majburiy zaxira talabini 0 foiz mikdorida joriy etish lozim»<sup>22</sup>.

I. Alimardonov va X. Bekchanovning xulosasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari mijozlarning joriy hisobraqamidagi pul mablag'laridan to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni ushbu mablag'larni muddatli va jamg'arma depozit hisobraqamlariga olmasdan turib, resurs sifatida foydalanish huquqiga ega. Ammo, bu yerda bank va mijoz o'rtasida ekvivalent bo'lmagan almashuv yuzaga keladi. Ya'ni, tijorat banki mijozning joriy hisobraqamidagi pul mablag'lariga 0,5 foizdan 1,0 foizgacha stavkada foiz to'laydi. Ammo, ushbu mablag'larni kredit sifatida joylashtirib 28-30% darajasida daromad oladi. Bu yerda mijozning moliyaviy manfaatiga putur yetmoqda.<sup>23</sup>

Haqiqatdan ham, respublikamizning tijorat banklari mijozlarning talab qilib olinguncha depozit hisobraqamlaridagi pul mablag'laridan to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni ularni muddatli depozit hisobraqamlariga o'tkazmasdan turib, resurs sifatida foydalanishadi.

### 1.2-§. Tijorat banklarining ssuda operatsiyalari xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar

I. Yudina tijorat banklari kreditlarining foiz stavkasini Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasiga bevosita bog'liq ekanligini Braziliya tajribasi misolida asoslab bergan: «Braziliya Markaziy banki tomonidan qayta moliyalash stavkasini 2017 yilning avgust oyida 30 foizdan yuqori qilib belgilanishi natijasida tijorat banklarining kreditlarini foiz stavkasi 50 foizgacha ko'tarildi. Buning natijasida ko'plab korxonalar tijorat banklarining kreditlaridan foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'lishdi»<sup>24</sup>.

J. Sinkining fikricha, banklarning asosiy faoliyati kreditlarni depozitlar orqali moliyalashtirishdan iborat. Biroq, agar ilgari banklar faqat moliyaviy resurslarni taqsimlash jarayonida vositachilar sifatida qaralgan bo'lsa, iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida ularni axborot ishlab chiqarish va operatsiyalarni ta'minlash bilan shug'ullanadigan korxonalar, deb hisoblash mumkin.<sup>25</sup>

<sup>22</sup> Omonov A. A. Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari. I f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtor. ref. – Toshkent, 2008. – 35 b.

<sup>23</sup> Alimardonov I. M., Bekchanov X. B. Tijorat banklarining tarifi siyosatini takomillashtirish yo'llari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. – Toshkent, 2019 y. – № 6, noyabr-dekabr.

<sup>24</sup> Юдина И. В. Банковская система в развивающихся экономиках: опыт становления, развития и кризисов. Монография. – М.: ИНФРА-М, 2013. – С. 122.

<sup>25</sup> Д. Синки. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Алпина Бизнес Букс, 2007. – 1018 с.

Bu yerda J. Sinki tijorat banklarini moliyaviy vositachi sifatidagi rolini e'tirof etgan va moliyaviy operatsiyalar jarayonini axborotlar bilan ta'minlashda asosiy rolni o'ynaydigan sub'ekt sifatida talqin qilgan.

F. Mishkinning fikricha, aynan banklar va boshqa moliya institutlarining faoliyati moliya bozorlarining ishlashini ta'minlaydi, ularsiz mablag'larni bo'sh resurslardan samarali foydalana oladiganlarga o'tkaza olmaydi. Binobarin, moliya institutlari butun iqtisodiyotning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.<sup>26</sup>

F. Mishkin ushbu xulosasida tijorat banklarini moliya bozorlarining asosiy ishtirokchisi ekanligini e'tirof etgan va asosiy e'tiborini moliyaviy resurslarni banklar orqali qayta taqsimlanishiga qaratgan.

Ye. Grishinaning fikriga ko'ra, kreditning chegaralarini belgilovchi asosiy omillar bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

– tovar aylanmasining o'sish sur'ati bilan kreditlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi muvofiqlik;

– kreditlash turlarining rivojlanganlik darajasi;

– mablag'larni qaytarish qonunining talablariga rioya qilinishi<sup>27</sup>.

Ye. Grishinaning mazkur xulosasi mamlakat banklarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish nuqtai-nazaridan amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki, birinchidan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni tijorat banklarining kreditlaridan foydalanish darajasi past. Bu esa, kreditlarning foiz stavkasini yuqori ekanligi va yuqori likvidli garov ob'ektlarining yetishmasligi bilan izohlanadi. Ikkinchidan, kreditlash turlarini rivojlantirishda muammolar bor. Ya'ni, hozirga qadar respublikamiz tijorat banklarida kreditlashning kontokorrent va forfeyting shakllari mavjud emas.

K. Tagirbekovanning xulosasiga ko'ra, tijorat banki faoliyatining moliyaviy natijasi foiz marjasining miqdori bilan belgilanadi. Foiz marjasining miqdori esa, bankning kredit-depozit operatsiyalarining natijasida shakllanadi.<sup>28</sup>

K. Tagirbekovanning ushbu xulosasi respublikamiz banklarining moliyaviy natijalarini shakllantirish nuqtai-nazaridan amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlarining hajmida kreditlar eng yuqori salmoqni egallaydi va respublika banklarining majburiyatlari hajmida depozitlar juda yuqori salmoqni egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2025 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, tijorat banklari aktivlarining hajmida

<sup>26</sup> Мишкин, Ф. С. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых рынков, 7-е издание: Пер. с англ. – М.: ООО "И.Д. Вильямс", 2006. – С. 42

<sup>27</sup> Гришина Е. А. Тенденции развития кредитных услуг, предоставляемых коммерческими банками // Финансы и кредит. – Москва, 2016. – № 28. – С. 18-27.

<sup>28</sup> Тагирбекова К. Р. Организация деятельности коммерческого банка. – Москва: Вест Мир, 2004. – 848 с.

kreditlarning ulushi 66,9 foizni, depozitlarning majburiyatlar hajmidagi salmog'i 47,2 foizni tashkil etdi<sup>29</sup>.

G.Panova depozitlarni tijorat banklari uchun muhim resurs manbai ekanligini e'tirof etgani holda, depozitlarning kreditli transformatsiyasini takomillashtirish maqsadida tijorat banklari tomonidan jalb qilinadigan depozitlarning yetarililigini ta'minlash va ularning risk darajasi yuqori bo'lgan kredit operatsiyalariga yo'naltiriladigan qismiga nisbatan limitlar belgilashni taklif qiladi<sup>30</sup>.

G.Panovaning ushbu xulosasi depozitlarning kreditli transformatsiyasini takomillashtirish nuqtai-nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. chunki, jalb qilingan depozitlarni to'liq kreditlar va korporativ qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar kabi yuqori riskli aktivlarga joylashtirish depozitlarni egalariga qaytarib berishda jiddiy muammolarni yuzaga keltirishi mumkin.

A.Mian va A.Safi uy xo'jaliklarining kredit to'loviga layoqatlilikini baholash bo'yicha o'tkazgan tadqiqoti natijasiga asoslanib shunday xulosaga kelgan: «uy xo'jaliklarining o'z risklarini nazorat qilish imkoniyatlari kompaniyalarnikiga qaraganda sezilarli darajada cheklangan. Bu esa, o'z navbatida, uy xo'jaliklariga berilgan kreditlarni o'z vaqtida qaytmaslik ehtimolini oshiradi»<sup>31</sup>.

Olingan kreditlar bo'yicha defolt bo'lish ehtimolini baholashga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar ko'rsatdiki:

\*kompaniyalarning defolt bo'lish ehtimolini baholashda Bazel qo'mitasi tavsiya qilgan muammoli kreditlar bo'yicha prudensial me'yorlarga mos keluvchi 90 kunni asos sifatida tan olish va bunda bankrotlikni defolting 3-5 yilga kechikkan indikator sifatida inobatga olish maqsadga muvofiqdir<sup>32</sup>.

\* reytinglar o'rtasidagi migratsiya matritsalarini o'tish matritsalarini va ular asosida ekstrapolyatsiyalarni baholash past defolti kredit portfelli uchun defolt maqomiga o'tishni yuqori aniqlikda baholash imkonini beradi<sup>33</sup>;

\* ssudalar bo'yicha defolt sharoitida yo'qotishlar ulushini aniqlash uchun chegaraviy taqsimotni tuzish shartdir<sup>34</sup>;

<sup>29</sup> Tijorat banklari jamlanma balansii/www.cbu.uz

<sup>30</sup> Панова Г.С. Кредитная политика коммерческого банка. – М.: ИКЦ «ДИС», 1997. – С. 194.

<sup>31</sup> Mian A., Rao K., Sufi A. Household Balance Sheets, Consumption, and the Economic Slump//Quarterly Journal of Economics. – 2013. – 128(4). – pp. 1687 - 1726.

<sup>32</sup> Бурова А., Пенникс Г., Попова С. Применение модели вероятности дефолта для оценки прогнозируемого кредитного риска//Денги и кредит. – Москва, 2021. – № 3. – С. 49-72.

<sup>33</sup> Lando D., Skodeberg T. Analyzing Rating Transitions and Rating Drift with Continuous Observations // Journal of Banking and Finance. – 2002. – Vol. 26 (2-3). – pp. 423-444.

<sup>34</sup> Wei L., Yuan Z. The Loss Given Default of a Low-Default Portfolio with Weak Contagion//Insurance: Mathematics and Economics. – 2016. – Vol. 66. – pp. 113-123.

\* agar aktivlarning kichik korrelyatsiyasi sharoitida defolt ehtimolini baholash uchun ishonchli intervalning yuqori chegaralarini tanlashning standart metodidan foydalanish optimal korrektilovkaning ahamiyatlilik darajasiga mos keladi<sup>35</sup>.

Rossiyalik iqtisodchi olim M.Matovnikov tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlarini iqtisodiyotning real sektori korxonalarini rivojlantirishning muhim moliyaviy omili deb hisoblaydi va tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlash amaliyotini takomillashtirishga to'sqinlik qilayotgan asosiy omil sifatida banklarda uzoq muddatli resurslarning yetishmasligini ko'rsatadi<sup>36</sup>.

Haqiqatdan ham, rivojlanayotgan mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida uzoq muddatli moliyaviy resurslarning yetishmasligi tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Fikrimizcha, mazkur mamlakatlarda inflyatsiya darajasini va milliy valyutaning qadrsizlanish sur'atini nisbatan yuqori ekanligi tijorat banklarining uzoq muddatli resurs bazasini shakllantirish jarayoniga to'sqinlik qilmoqda.

N.Jumaevning izohiga ko'ra, «xalqaro kreditlar bo'yicha qarzdorlik muammosining chuqurlashishi xalqaro investitsion kreditlardan foydalanish samaradorligining past ekanligi bilan belgilanadi»<sup>37</sup>.

N.Jumaevning ushbu fikrini asosli ekanligi M. Bauetdinovning ilmiy tadqiqoti natijalari yaqqol isbotlaydi: «tijorat banklarining kreditlari hisobidan moliyalashtirilgan qator investitsiya loyihalarining samaradorlik darajasi juda past. Masalan, xorijiy kredit liniyalari hisobidan kredit olgan «O'zsmatana santexnika» (16 mln. AQSh dollari), «Xobas Tapo» (51868 ming AQSh dollari), «Kaolin» (27401 ming AQSh dollari), «O'zeksayd» (53627 ming AQSh dollari), «Yantak Brit» (2090 ming AQSh dollari), qo'shma korxonalar «Bolalar taomlari» Xolding kompaniyasi (58898 ming AQSh dollari), «Asnam tekstil» ko'shma korxonasi Vazirlar Mahkamasining qarori va Texnik iqtisodiy asoslarda ko'rsatilgan muddatlarda ishga tushirilmaganligi, ishlab chiqarilgan mahsulotlarini eksport qilinishi belgilangan korxonalar («Ohangaronstroyplast», Yengil sanoat uyushmasi tizimidagi qo'shma korxonalar «Kaolin» qo'shma korxonasi) o'z mahsulotlarini eksport qila olmaganligi natijasida xorijiy kreditorlarga bank o'z mablag'lari hisobidan kredit va uning foizlarini to'lab bergan; investitsion loyihalarning o'zini

<sup>35</sup> Tasche D. Bayesian Estimation of Probabilities of Default for Low Default Portfolios//Journal of Risk Management in Financial Institutions. – 2013. – Vol. 6(3). – pp. 302-326.

<sup>36</sup> Matovnikov M.Yu. Bankovskaya sistema Rossii i dolgosrochnnye resursy//Dengi i kredit. – Moskva, 2013. – №5. – S. 19.

<sup>37</sup> Jumaev N.X. O'zbekistonda valyuta munosabatlarini tartibga solish metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. ilmiy dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – B. 26.

oqlamasligi banklarning uzoq muddatli kreditlarini o'z vaqtida qaytmasligining asosiy sabablaridan biridir»<sup>38</sup>.

F.Xolmamatovning xulosasiga ko'ra, bank tizimi va tijorat banklarining moliyaviy jihatdan barqarorligi, moliyaviy resurslarning samarali ishlatilishi, yo'qotishlarni oldini olish maqsadida tashkil etiladigan turli xil zaxiralar, xususan, muammoli kreditlarni qoplash uchun tashkil etiladigan maxsus zaxiralar, ularning normalarda tashkil etilishi barqaror bank faoliyatining garovidir. Ayniqsa, kreditlarni tasniflash va ularga zaxira tashkil etish banklar uchun muhim hisoblanadi. To'g'ri zaxira tashkil etish va uni oqilona boshqarish tijorat banklarida moliyaviy resurslarning yetishmasligini oldini oladi, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish esa bevosita bankning daromad keltiradigan operatsiyalariga yo'naltirilsa, bank uchun qo'shimcha daromad manbai bo'lishi mumkin<sup>39</sup>.

H.Xo'jayorovning fikricha, «banklar faoliyatida kredit operatsiyalari asosiy o'rinni egallagani uchun ularning kredit portfelini to'g'ri tashkil qilish banklarning samarali va barqaror faoliyat ko'rsatishi uchun imkoniyat yaratib beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Kredit operatsiyalarini olib borishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar banklar daromadining kamayishiga, ba'zi hollarda ularning sinishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, banklarning kredit portfeli va uning sifatini nazorat qilib borish tijorat banklari samarali faoliyatining garovidir»<sup>40</sup>.

H.Xo'jayorov kredit portfelini boshqarish sifatini tijorat banklari faoliyatining barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyatini to'g'ri e'tirof etgan va kredit portfelining sifatini nazorat ob'ekti sifatida ko'rgan.

L.Muradova o'zining dissertatsion tadqiqoti natijalariga asoslangan holda xulosa qiladi: «tijorat banklari kredit portfelining 25 foizini tashkil etadigan muayyan tarmoq korxonalarini kreditlashda cheklovlarni ko'zda tutuvchi kreditlashning tarmoq limitlarini belgilash orqali tijorat banklari kredit portfelini diversifikatsiya qilish darajasini oshirish zarur»<sup>41</sup>.

Fikrimizcha, L.Muradovaning ushbu xulosasi respublikamiz tijorat banklarining hozirgi kreditlash amaliyotini takomillashtirish nuqtai-nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki, mamlakatning yirik tijorat banklarida kredit portfelining diversifikatsiyasi bo'yicha 25 foizli mezon talabi bajarilmagan.

Sh.Abdullaeva yozadi: «kredit portfelini resurslarning manbalari bo'yicha deversifikatsiyalash natijalariga ko'ra, ba'zi tijorat banklarining kredit portfelida

<sup>38</sup> Bauetdinov M.J. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning investitsion xarajatlarini moliylashtirish amaliyotini takomillashtirish. I.f.b.f.d. diss. – Toshkent, 2019. – 114 b.

<sup>39</sup> Xolmamatov F. K. Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda bank zaxiralardan kompleks foydalanish zarurati va amaliyoti // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – Toshkent, 2023-yil, avgust. № 8-son.

<sup>40</sup> H.Xo'jayorov. Tijorat banklarida kreditlash xizmatlari samaradorligini oshirishning mohiyati va iqtisodiy ahamiyati // Ekonomika i finansy (Uzbekistan). 2022. №5 (153).

<sup>41</sup> Muradova L.F. O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklari aktivlari daromadligini oshirish yo'llari. I.f.b.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – B. 22.

markazlashgan kreditlar salmog'ining yuqoriligini hisobga olish lozim va shu kreditlar bo'yicha banklarga yengilliklar berish, ba'zi hollarda ulardan olingan daromadni soliقدan ozod qilish kabi choralarni ko'rish maqsadga muvofiq bo'lar edi»<sup>42</sup>.

Haqiqatdan ham, O'zbekiston Respublikasi davlat banklarining kredit portfelida markazlashgan resurslar hisobidan berilgan kreditlar nisbatan yuqori salmoqni egallaydi: 2024 yilda respublikamiz tijorat banklari tomonidan berilgan imtiyozli kreditlarning qoldig'i 142 trln. so'mni tashkil qilib, jami kredit qo'yilmalaridagi ulushi 27 foizga teng bo'ldi<sup>43</sup>.

### 1.3-§. Banklarning depozit va ssuda operatsiyalarining metodologik asoslari

Tijorat banklari depozit operatsiyalarining muhim metodologik masalalaridan biri – bu depozitlarning yetariligi masalasidir.

Xalqaro bank amaliyotida, tijorat banklari depozitlarining yetariligi baholashda ikki metodikadan keng foydalaniladi. Birinchi metodika Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu metodikada tijorat banklari depozitlarining yetariligi quyidagicha aniqlanadi:

$$DE = (TD : JD) \times 100\% \quad (1.1)$$

Bu yerda:

DE - depozitlarning yetariligi.

TD – transaksion depozitlar.

JD – jami depozitlar.

Ushbu ko'rsatkichning tavsiya etilgan yuqori me'yoriy darajasi: 30,0 %.

Tijorat banklari depozitlarining yetariligi baholash bo'yicha ikkinchi metodika AQSh banknazorati organlari tomonidan ishlab chiqilgan CAMELS reyting tizimida o'z aksini topgan. Ushbu metodikaga ko'ra, tijorat banklari depozitlarining yetariligi quyidagicha aniqlanadi:

$$DE = (DBQ : JD) \times 100\% \quad (1.1)$$

Bu yerda:

DBQ - depozitlarning yetariligi.

Ushbu ko'rsatkichning tavsiya etilgan minimal me'yoriy darajasi: 75,0%.

JD – jami depozitlar.

Depozitlarning barqaror qoldig'i o'z ichiga quyidagilarni oladi:


\*transaksion depozitlarning barqaror qoldig'i;

\*muddatli depozitlar;

<sup>42</sup> Abdullaeva Sh.Z. Bank risklari sharoitida tijorat banklarning kredit portfelini diversifikatsiyalash. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2000.

<sup>43</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024 yildagi faoliyati bo'yicha hisobot (B.54)/www.cbu.uz

<sup>44</sup> Supervision and Regulation. CAMELS rating system. <https://www.federalreserve.gov>.



\*jamg'ar depozitlar.

Tijorat banklari depozit operatsiyalarining muhim metodologik masalalaridan yana biri bo'lib, depozit bazani diversifikatsiya qilish hisoblanadi.

Tijorat banklarining depozit bazasini diversifikatsiya qilishda jismoniy shaxslardan jalb qilingan muddatli depozitlar muhim o'rin tutadi.

Depozitlarning kreditli transformatsiyasini ta'minlash tijorat banklarining depozit operatsiyalarining muhim metodologik masalalaridan biri hisoblanadi.

G.S.Panovanning fikriga ko'ra, banklarning kreditlar berish imkoniyatini oshirish uchun, birinchi navbatda, ularning depozit bazasini yetarililigini ta'minlash lozim. Bunda tijorat banklari depozit bazasining yetarililigini ta'minlash uchun transaksion depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'ining 30 foizdan oshishiga yo'l qo'ymaslik, depozitlarning kredit operatsiyalariga yo'naltirilgan qismiga nisbatan, Germaniya bank amaliyoti tajribalariga tayangan holda, limitlar joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Germaniyada muddatli depozitlarning 60 foizi, transaksion depozitlarning 10 foizi kredit operatsiyalariga yo'naltiriladi<sup>45</sup>.

Kredit riskini baholash va boshqarish masalasi tijorat banklarining kredit operatsiyalarining muhim metodologik masalalaridan biri hisoblanadi.

#### 1.1-jadval

**Bazel-II standartiga tavsiya etilgan kredit riskini baholash bo'yicha standartlashgan yondashuvda kredit riskini baholash tartibi<sup>46</sup>**

Reyting	Riskka tortish koeffitsientlari (%)			
	Davlat va Markaziy banklar	Kredit tashkilotlari (1-variant)	Kredit tashkilot (1-variant) (qisqa muddatli talablar)	Yuridik shaxs
AAA dan A gacha	0	20	20 (20)	20
A+ dan A – gacha	20	50	50 (20)	50
VVV + dan VVV – gacha	50	100	50 (20)	100
VV + dan VV – gacha	100	100	100 (50)	100
V + dan V – gacha	100	100	100 (50)	150
V – past	150	150	150 (150)	150
Reytingsiz	100	100	50 (20)	100

<sup>45</sup> Панова Г.С. Кредитная политика коммерческого банка. – М.: ИКЦ «ДИС», 1997. – С. 194.


<sup>46</sup> Basel Committee on banking supervision. International convergence of capital measurement and capital standards. Basel-II, 2006. <http://www.bis.org/publications>.

2004 yilda Bazel qo'mitasi tomonidan (Bazel-II) kredit riskini baholashning yangi uslubiyoti taklif etildi va u "standartlashgan yondashuv" deb nomlanadi.

1.1-jadvaldan aniq ko'rinadiki, Bazel-II standartida kredit riskini baholash uchun taklif etilgan standartlashgan yondashuvda kredit riskining darajasi kredit oluvchining suveren kredit reytingiga bog'liq ravishda o'rnatiladi. Mijozning suveren kredit reytingi qanchalik yuqori bo'lsa, unga berilgan kreditning risk darajasi shunchalik past bo'ladi. Masalan, suveren kredit reytingi AAA dan AA gacha bo'lgan davlatlarning hukumatlariga va Markaziy banklariga berilgan kredit risk darajasi nolga teng, mazkur davlatlardagi kredit tashkilotlariga berilgan kreditlarning risk darajasi 20 foizga, yuridik shaxslarga berilgan kreditlarning risk darajasi 20 foizga teng.

Suveren kredit reytingi V – dan past bo'lgan davlatlarning Hukumatlariga, Markaziy banklariga, kredit tashkilotlariga va yuridik shaxslariga berilgan kreditlarning risk darajasi 150 foizga teng.

Kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan xazira ajratmalarini tashkil qilish tijorat banklari kredit operatsiyalarining muhim metodologik masalalaridan biri hisoblanadi.



**1.1-rasm. Bazel qo'mitasining kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan xazira ajratmalarini tashkil qilish bo'yicha talablari<sup>47</sup>**

<sup>47</sup> Basel Committee on banking supervision. International convergence of capital measurement and capital standards <http://www.bis.org/publications>.

1.1-rasmda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, Bazel qo'mitasi tomonidan kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarini shakllantirish bo'yicha aniq talablar qo'yilgan.


Bazel qo'mitasining talabi bo'yicha tasniflangan kreditlarning faqat 3 toifasi bo'yicha zaxira tashkil qilinadi:

\*substandart kreditlar;

\*shubhali kreditlar;

\*umidsiz kreditlar.

kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari summasi to'liq tijorat bankining xarajatiga olib boriladi va bankning soliqqa tortish bazasi zaxira summasiga kamayadi.



1.2-rasm. Tijorat banklarining ssudalari b'yncha dinamik ёки statistik zaxiralarning muhim jihatlari<sup>48</sup>

1.2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tijorat banklarining ssudalari bo'yicha dinamik yoki statistik zaxiralarning 6 ta muhim jihati mavjud bo'lib, jumladan,

<sup>48</sup> Симановский А.Ю. Резервы на возможные потери по ссудам: международный опыт и некоторые вопросы методологии//Денги и кредит. – Москва, 2003. – С. 16-25.

yo'qotishlar ehtimoli statistik kutiladigan bo'lganligi uchun statistik zaxira ssuda berilayotgan paytda shakllantiriladi.

Kreditlarning foiz stavkalarini shakllantirish va ularning barqarorligini ta'minlash masalasining markaziy masalalaridan biri bo'lib, muvozanatlashgan foiz stavkasini shakllantirish hisoblanadi.

Muvozanatlashgan foiz stavkasi konsepsiyasini amalda qo'llashning birinchi fundamental muammosi shundaki, bu ob'ekt amalda kuzatilmaydigan ob'ekt hisoblanadi. Istalgan davrda haqiqatda kuzatiladigan foiz stavkasi (nominal yoki real) muvozanatlashgan stavka hisoblanadi, chunki, iqtisodiyot har bir davrda ma'lum muvozanat holatida bo'ladi. Biroq, muvozanatlashgan foiz stavkasi deganda maxsus sharoitlarda shakllanadigan ba'zi foiz stavkalari tushuniladi. Ammo, real hayotda bunday foiz stavkalarini shakllanishiga qat'iy ishonish qiyin.

Neytral muvozanatlashgan foiz stavkasini aniqlashning standart yondashuvda muvozanatlashgan stavka mahsulotlar ishlab chiqarish va inflyatsiya muvozanat holatida bo'lganda shakllanadi. Nomi qayd etilgan olimlarning fikricha, muvozanatlashgan stavka, moliyaviy siklning moliyaviy barqarorlikka ta'siri oqibatlarini hisobga olgan holda, faqat ishbilarmonlik sikli hisobga olingan modellarga qaraganda, yuqori bo'lishi kerak<sup>49</sup>.

Ikkinchi murakkablik shundaki, hatto bitta konsepsiya doirasida ham ((masalan, neokeynscha) muvozanatlashgan stavka qaysi model (ochiq yoki yopiq iqtisodiyot; moliyaviy taranglikka (siqiv))ega iqtisodiyot yoki tarangliksiz iqtisodiyot)) ko'rib chiqilayotganiga qarab turli darajaga ega bo'lishi mumkin<sup>50</sup>.

Ushbu konsepsiyani amaliy qo'llashning ikkinchi muammosi bo'lib, neytral stavkani baholashning qiyinligi hisoblanadi. Dallas Federal zaxira banking boshlig'i R.Kaplan ta'kidlaganidek, pul-kredit sharoitlarining neytralligiga mos keluvchi foiz stavkasini baholash turli omillarning keng jihatlarini har tomonlama tahlil qilishni talab qiladigan fandan ko'ra, ko'proq san'atdir<sup>51</sup>.

<sup>49</sup> Barsky R., Justiniano A. and Melosi, L. The Natural Rate of Interest and Its Usefulness for Monetary Policy. *American Economic Review*, 2014. – 104(5), – P. 37–43.; Juselius M., Borio C., Disyatat P. and Drehmann M. Monetary Policy, the Financial Cycle, and Ultra-Low Interest Rates. *International Journal of Central Banking*, 2017. – 13(3). – P. 55–89.

<sup>50</sup> Wynne M. A. and Zhang R. Estimating the Natural Rate of Interest in an Open Economy. *Empirical Economics*, 2018. – 55(3). – P. 1291–1318.; Eggertsson, G. B. and Krugman P. Debt, Deleveraging, and the Liquidity Trap: A Fisher-Minsky-Koo Approach. *Quarterly Journal of Economics*, 2012. – 127(3). – P. 1469–1513.; Caballero R. J. and Krishnamurthy A. A Dual Liquidity Model for Emerging Markets. *American Economic Review*, 2002. – 92(2). – P. 33–37.

<sup>51</sup> Kaplan R.S. The Neutral Rate of Interest. An Essay, 2018. Available at: <https://www.dallasfed.org/media/Documents/news/speeches/kaplan/2018/rsk181024.pdf> [accessed on 2 September 2019].

H.Reyning xulosasiga ko'ra, muvozanatlashgan stavkani baholashning pritsipial imkoniyati o'ziga xos shartni bajarilish imkoniyatiga, ya'ni, pul siyosatining trilemmasi emas, balki dilemmasining harakati bilan bog'liq<sup>52</sup>.

Xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarning natijalari ko'rsatdiki, qisqa muddatda foiz stavkasini baholash uchun RBS modellardagi umumiy muvozanatda barcha uch shart bir vaqtning o'zida ko'rib chiqiladi<sup>53</sup>.

Shuning uchun qisqa muddatda muvozanat tezligini baholash uchun biz narx qat'iyligisiz (moslashuvchan narxlarda) yoki RBC modelini umumiy muvozanat modeli quriladi. Ushbu modelda iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi. Masalan, iqtisodiyotning ochiqligi yoki kichikligi yoki xom ashyo eksportining yuqori ekanligi. Maqsadlar uchun iqtisodiyotning uch tarmoqli tuzilmasini umumiy muvozanatda (energiya ishlab chiqaruvchi sektor uchun, mamlakatda mahsulot ishlab chiqaradigan sektor va chet elda mahsulot ishlab chiqaradigan sektor uchun) ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu modelda biz nafaqat qisqa muddatli muvozanatdagi foiz stavkasi darajasini tiklashdan, balki foiz stavkasining bir uzoq muddatli muvozanatdan ikkinchisiga o'tish dinamikasini ham o'rganishimiz zarur. Bunda, biz foiz stavkasini baholash uchun keng qo'llaniladigan filtrlardan birini - Laubach va Uilyamsni qo'llaymiz. Ushbu hisob-kitoblarda qisqa muddatli muvozanatli foiz stavkasini baholashni aks ettiradi<sup>54</sup>.

Beyer va Uiland turli usullar bilan olingan muvozanat foiz stavkalari hisob-kitoblari juda yuqori noaniqlik bilan tavsiflanadi, bu esa ushbu hisob-kitoblarning pul-kredit siyosati maqsadlariga muvofiqligini baholash uchun muhim ahamiyatga ega<sup>55</sup>.

### Birinchi bob bo'yicha xulosa

Tijorat banklarining depozit operatsiyalari xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarni qiyosiy va tanqidiy tadqiq qilish ko'rsatdiki:

\* ko'pchilik mamlakatlarda tijorat banklarining depozitlari muddatiga ko'ra ikkiga bo'linadi: talab qilib olinadigan depozitlar va muddatli depozitlarga

<sup>52</sup> Rey H. Dilemma not Trilemma: The Global Financial Cycle and Monetary Policy Independence. NBER Working Paper, 2018. – N 21162. – P. 1–42.

<sup>53</sup> Mendoza E. Real Business Cycles in a Small Open Economy. *American Economic Review*, 1991. – 81(4). – P. 797–818.; Guo, J.-T. and Janko, Z. (2009). Reexamination of Real Business Cycles in a Small Open Economy. *Southern Economic Journal*, 2009. – 76(1). – P. 165–182.

<sup>54</sup> Laubach T. and Williams J. (2003) Measuring the Natural Rate of Interest. *Review of Economics and Statistics*, 2003. – 85(4). – P. 1063–1070.

<sup>55</sup> Beyer R. C. M. and Wieland V. (2019). Instability, Imprecision and Inconsistent Use of Equilibrium Real Interest Rate Estimates. *Journal of International Money and Finance*, 2019. – 94. – P. 1–14.

bo'lingani holda, so'nggi yillarda depozitlarning ushbu ikki turi o'rtasidagi farqning chegarasi yo'qolib bormoqda, ya'ni o'zida ham talab qilib olinadigan depozitlarning xususiyatini, ham muddatli depozitlarning xususiyatini aks ettiradigan gibridd depozitlar paydo bo'ldi;

\* tijorat banklarining depozit operatsiyalarini rivojlantirish bevosita fond indekslarining holatiga va milliy valyutaning nominal almashuv kursining barqarorligiga bog'liq bo'lib, fond indekslarining keskin tushib ketishiga va milliy valyuta kursini pasayib ketishiga olib kelishi obligatsiyalar, depozitlar va xorijiy banklarning kreditlari ko'rinishidagi xorijiy kapitalni mamlakatdan ommaviy qochib chiqib ketishiga olib keladi;

\*tijorat banklari depozitlarini sug'urta qilishning passiv modeli mijozlarga nisbatan tashqi omillarga asoslangan anderryting talablarini hisobga olgan holda, katta sonlar qonuni bazasida aktur tahlilni amalga oshirishning imkonini beradi va mijozlarning kutilayotgan zararlarini qoplash imkonini beradigan mukofot summasini shakllantirish imkonini beradi;

\*depozit operatsiyalari – bu fuqarolarning jamg'armalarini va yuridik shaxslarning bo'sh resurslarini jalb qilish, shu jumladan ayrim banklar tomonidan vaqtinchalik bo'sh resurslarni boshqa banklarga va markaziy bankka joylashtirish bo'yicha faoliyatidir;

\*jismoniy shaxslarning tijorat bankini resurslar jalb qilishdagi rolini oshib borayotganligi sababli, mijozlarning ushbu toifasiga bo'lgan e'tiborni oshirish zarur;

\*talab qilib olinadigan depozitlar barqaror bo'lmaganligi sababi tijorat banklarini ulardan foydalanish sohasi cheklangan, shu sababli, banklar tomonidan talab qilib olinadigan depozitlarga past stavkada foiz to'lanadi. Biroq, talab qilib olinadigan depozitlar arzon resurs bo'lganligi sababli ular yordamida banklar oladigan foydani ko'paytirish imkoniyati yuzaga keladi.

Tijorat banklarining ssuda operatsiyalari xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarni tadqiq qilish ko'rsatdiki:

\*tijorat banklarining asosiy faoliyati kreditlarni depozitlar orqali moliyalashtirishdan iborat bo'lgani holda, ilgari banklar faqat moliyaviy resurslarni taqsimlash jarayonida vositachilar sifatida qaralgan bo'lsa, iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida ularni axborot ishlab chiqarish va operatsiyalarni ta'minlash bilan shug'ullanadigan korxonalar, deb hisoblash mumkin;

\*kreditning chegaralarini belgilovchi asosiy omillar bo'lib, quyidagilar hisoblanadi: tovar aylanmasining o'sish sur'ati bilan kreditlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi muvofiqlik; kreditlash turlarining rivojlanganlik darajasi; mablag'larni qaytarish qonunining talablariga rioya qilinishi;

\*tijorat banki faoliyatining moliyaviy natijasi foiz marjasining miqdori bilan belgilangani holda, foiz marjasining miqdori bankning kredit-depozit operatsiyalarining natijasida shakllanadi;

\*depozitlar tijorat banklari uchun muhim resurs manbai bo'lgani holda, depozitlarning kreditli transformatsiyasini takomillashtirishda tijorat banklari tomonidan jalb qilinadigan depozitlarning yetarililigi ta'minlash va ularning risk darajasi yuqori bo'lgan kredit operatsiyalariga yo'naltiriladigan qismiga nisbatan limitlar belgilash muhim;

\*uy xo'jaliklarining o'z risklarini nazorat qilish imkoniyatlari kompaniyalarnikiga qaraganda sezilarli darajada cheklanganligi bois, uy xo'jaliklariga berilgan kreditlarni o'z vaqtida qaytmaslik ehtimoli yuqoridir;

\*xalqaro kreditlar bo'yicha qarzdorlik muammosining chuqurlashishi xalqaro investitsion kreditlardan foydalanish samaradorligining past ekanligi bilan belgilanadi. Haqiqatdan ham, tijorat banklarining kreditlari hisobidan moliyalashtirilgan qator investitsiya loyihalarining samaradorlik darajasi juda past.

\*xalqaro bank amaliyotida, tijorat banklari depozitlarining yetarililigi baholashda ikki metodikadan keng foydalaniladi. Birinchi metodika Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra, tijorat bankining depozit bazasi yetarli bo'lishi uchun transaksion depozitlarning brutto depozitlardagi ulushi 30 foizdan oshmasligi kerak. Tijorat banklari depozitlarining yetarililigi baholash bo'yicha ikkinchi metodika AQSh banknazorati organlari tomonidan ishlab chiqilgan CAMELS reyting tizimida o'z aksini topgan bo'lib, unga ko'ra, tijorat bankining depozit bazasi yetarli bo'lishi uchun depozitlarning barqaror qoldig'i jami depozitlarning 75 foizidan kam bo'lmashligi kerak;

Bazel-II standartida tavsiya qilingan kredit riskini baholash bo'yicha standartlashgan yondashuvga ko'ra, kredit riskining darajasi kredit oluvchining suveren kredit reytingiga bog'liq ravishda o'tatiladi. Mijozning suveren kredit reytingi qanchalik yuqori bo'lsa, unga berilgan kreditning risk darajasi shunchalik past bo'ladi;

\*Bazel qo'mitasi tomonidan kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan xaxira ajratmalarini shakllantirish bo'yicha to'rtta aniq talablar qo'yilgan bo'lib, kreditlar bo'yicha xaxira summasi to'liq tijorat bankining xarajatiga olib boriladi;

\*tijorat banklarining ssudalari bo'yicha dinamik yoki statistik xaxiralarning 6 ta muhim jihati mavjud bo'lib, jumladan, yo'qotishlar ehtimoli statistik kutiladigan bo'lganligi uchun statistik xaxira ssuda berilayotgan paytda shakllantiriladi.

**2-BOB. TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT VA SSUDA  
OPERATSIYALARINING METODOLOGIK VA AMALIY ASOSLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI VA UNING  
AMALIY AHAMIYATI**

**2.1-§. Tijorat banklarining depozit operatsiyalarini rivojlantirish bo'yicha  
xorij tajribasi**

Taraqqiy etgan mamlakatlarning bank amaliyotida, shu jumladan, transmilliy banklarda depozit operatsiyalarining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajribani o'rganish va uning amaliy ahamiyatiga baho berish O'zbekiston bank amaliyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

**2.1-jadval**

**BNP Paribas banki depozitlarining miqdori va tarkibi<sup>56</sup>**

Ko'rsatkichlar	Yillar						
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Jami depozitlar miqdori (mlrd. yevroda)	796,5	919,2	1088,6	1083,7	1132,8	1123,4	1101,7
Talab qilib olinguncha depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'i, %	59,5	61,9	65,2	66,3	58,8	54,8	54,4
Muddatli depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'i, %	40,5	38,1	34,8	33,7	41,2	45,2	45,6

2.1-jadval ma'lumotlaridan aniq ko'rinadiki, BNP Paribas banki depozitlarining miqdori 2018-2020 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, bank depozitlarining miqdori 2024 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada ko'paygan. Ushbu holatlar BNP Paribas bankining depozit operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

2.1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan yaqqol ko'rinadiki, BNP Paribas banki depozitlarining hajmida talab qilib olinguncha depozitlarning salmog'i 2019-2021 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Lekin depozitlarning hajmida talab qilib olinguncha depozitlarning salmog'i 2021-2024 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, BNP Paribas bankining depozit operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

<sup>56</sup> Jadval muallif tomonidan BNP Paribas bankning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2.1-jadval ma'lumotlaridan aniq ko'rinadiki, BNP Paribas banki depozitlarining hajmida muddatli depozitlarning salmog'i 2018-2021 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Biroq, depozitlarning umumiy hajmida muddatli depozitlarning salmog'i 2021-2024 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda BNP Paribas banki depozitlarining hajmida talab qilib olinguncha depozitlarning salmog'ini pasayish tendensiyasiga ega bo'lganligi bilan izohlanadi.

**2.2-jadval**

**Deutsche Bank depozitlarining miqdori va tarkibi<sup>57</sup>**

Ko'rsatkichlar	Yillar						
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Jami depozitlar miqdori (mlrd. yevroda)	564,41	572,21	568,03	603,75	621,46	622,04	666,26
Talab qilib olinguncha depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'i, %	61,7	63,6	66,1	65,2	60,9	55,6	56,1
Muddatli depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'i, %	38,3	36,4	33,9	34,8	39,1	44,4	43,9

2.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Deutsche Bank depozitlarining miqdori 2020-2024 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, bank depozitlarining miqdori 2024 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada ko'paygan. Ushbu holatlar Deutsche Bank bankining depozit operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

2.2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan yaqqol ko'rinadiki, Deutsche Bank depozitlarining hajmida talab qilib olinguncha depozitlarning salmog'i 2019-2021 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Lekin depozitlarning hajmida talab qilib olinguncha depozitlarning salmog'i 2020-2024 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, Deutsche Bankning depozit operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

2.2-jadval ma'lumotlaridan aniq ko'rinadiki, Deutsche Bank depozitlarining hajmida muddatli depozitlarning salmog'i 2020-2024 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda Deutsche Bank depozitlarining hajmida talab

<sup>57</sup> Jadval muallif tomonidan Deutsche Bankning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

qilib olinguncha depozitlarning salmog'ini pasayish tendensiyasiga ega bo'lganligi bilan izohlanadi.

2.3-jadval

**BNP Paribas banki depozitlarining majburiyatlarga nisbatan darajasi<sup>58</sup>**

Ko'rsatkichlar	Yillar						
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Depozitlar miqdori (mlrd yevro)	796,5	919,2	1088,6	1083,7	1132,8	1123,4	1101,7
Depozitlarning majburiyatlarga nisbatan darajasi, %	41,2	44,8	45,9	43,1	44,6	45,6	42,9

2.3-jadval ma'lumotlari aniq ko'rsatadiki, BNP Paribas banki depozitlarining miqdori 2018-2020 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, depozitlarning miqdori 2024 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada ko'paygan. Bu esa, BNP Paribas bankining depozit operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

2.3-jadval ma'lumotlari aniq ko'rsatadiki, BNP Paribas banki majburiyatlarining umumiy hajmida depozitlarning salmog'i 2018-2020 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, mazkur ko'rsatkichning darajasi 2024 yilda 2018 yilga nisbatan yuqori sur'atda oshgan. Bu esa, BNP Paribas bankining depozit operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

2.4-jadval

**Deutsche Bank depozitlarining majburiyatlarga nisbatan darajasi<sup>59</sup>**

Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Jami depozitlar miqdori (mlrd yevro)	564,41	572,21	568,03	603,75	621,46	622,04	666,26
Depozitlarning majburiyatlarga nisbatan darajasi, %	44,1	46,3	45,0	48,1	49,1	50,3	50,9

<sup>58</sup> Jadval muallif tomonidan BNP Paribas bankning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan

<sup>59</sup> Jadval muallif tomonidan Deutsche Bankning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan

2.4-jadval ma'lumotlari ko'rsatdiki, Deutsche Bank depozitlarining miqdori 2020-2024 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, Deutsche Bankning depozit operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

2.4-jadval ma'lumotlari ko'rsatdiki, Deutsche Bank majburiyatlarining umumiy hajmida depozitlarning salmog'i 2021-2024 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, ushbu ko'rsatkichning darajasi 2024 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Bu esa, Deutsche Bankning depozit operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.


Germaniya va Fransiya bank amaliyotida tijorat banklariga mijozlarning joriy hisob raqamlaridagi pul mablag'laridan to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni ushbu mablag'larni muddatli depozit hisob raqamlariga olmasdan turib, resurs sifatida foydalanishga ruxsat etilmaydi. Bunda faqatgina joriy hisob raqamlarning barqaror qoldig'idan, ya'ni kamaymaydigan qoldig'idan resurs sifatida foydalanishga ruxsat etiladi. Bu esa, o'z navbatida, joriy hisob raqamlaridagi pul mablag'laridan foydalanishning tijorat banklarining joriy likvidligiga nisbatan salbiy ta'sirini yuzaga kelishiga imkon bermaydi.

Shunisi ahamiyatliki, Yevropa markaziy bankining majburiy zaxira siyosati Germaniya va Fransiya tijorat banklarining depozit bazasi barqarorligiga nisbatan salbiy ta'sirini yuzaga keltirmaydi. Buning sababi shundaki, birinchidan, majburiy zaxira stavkasining darajasi past. Xozirgi davrda Yevropa markaziy bankining majburiy zaxira stavkasi 2 foizni tashkil qiladi. Ikkinchidan, Yevropa markaziy banki majburiy zaxira ajratmalari summasini Germaniya va Fransiya tijorat banklarining yevrodagi "Nostro" vakillik hisob raqamidan olib qo'ymaydi. Bu esa, majburiy zaxira siyosatining tijorat banklarining likvidligiga nisbatan salbiy ta'sirining yuzaga kelishining oldini oladi.

Yevropa markaziy banki tomonidan majburiy zaxira stavkasini past qilib belgilanganligi bu instrumentdan pul-kredit siyosatini amalga oshirishda faol tarzda foydalanilmayotganligini ko'rsatadi. Bu esa, pul-kredit siyosatining boshqa instrumentlaridan, hususan, qayta moliyalash siyosati va ochiq bozor siyosatidan foydalanish amaliyotining takomillashganligi bilan izohlanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchilligida, shu jumladan O'zbekiston Respublikasida Markaziy bankning majburiy zaxira stavkalari nisbatan yuqori bo'lib, ushbu holat majburiy zaxira siyosatidan pul kredit siyosatining asosiy instrumenti sifati foydalanilayotganligini ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, pul-kredit siyosatining boshqa instrumentlaridan foydalanish amaliyotini takomillashmaganligi bilan izohlanadi. Masalan, ushbu mamlakatlarda inflyatsiya darajasining yuqori ekanligi Markaziy-banklarga qayta moliyalash stavkasining darajasini pasaytirish imkonini bermaydi. Bundan tashqari, milliy fond bozorining

rivojlanmaganligi Markaziy bankning ochiq bozor operatsiyalari hajmini oshirish imkoniyatini cheklab qo'yadi.



### 2.1-rasm. Deutsche Bank, BNP Paribas bank da muddatli depozitlarga to'langan foizlarning jami foizli xarajatlardagi salmog'i, % larda<sup>60</sup>

2.1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki Deutsche Bankda muddatli depozitlarga to'langan foizlarning jami foizli xarajatlardagi salmog'i 2018-2020 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda muddatli depozitlarga to'langan foizlar summasining o'sish sur'atini foizli xarajatlarning o'sish sur'atidan yuqori bo'lganligi bilan izohlanadi.

2.1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki Deutsche Bankda muddatli depozitlarga to'langan foizlarning jami foizli harajatlardagi salmog'i 2021-2024 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, bankning depozit operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Buning sababi shundaki, muddatli va jamg'arma depozitlar tijorat banklari resurslarining asosiy manbai bo'lganligi sababli, ularga to'langan foizlar foizli xarajatlarning asosiy qismini tashkil qilishi kerak. Jaxon banki ekspertlari tavsiya qiladiki, foizsiz harajatlar tijorat banki jami xarajatlarining 45 foizidan oshmasligi kerak.

2.1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki BNP Paribas bank ida muddatli depozitlarga to'langan foizlarning jami foizli xarajatlardagi salmog'i 2020-2024 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda muddatli depozitlarga to'langan foizlar summasining o'sish sur'atini foizli xarajatlarning o'sish sur'atidan yuqori bo'lganligi bilan izohlanadi.

Germaniya va Fransiya banklarida depozit bazaning yetariligidini ta'minlash depozit operatsiyalarini rivojlantirishning asosiy masalalaridan biri sifatida qaraladi.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarining depozit bazasining yetariligidini ta'minlashda Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki va AQSh bank nazorati organlari tomonidan ishlab chiqilgan metodikalardan asos sifatida foydalaniladi.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki metodikasiga ko'ra, tijorat bankining depozit bazasi yetarli bo'lishi uchun talab qilib olinadigan depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'i 30 foizdan oshmasligi kerak.

AQSh bank nazorati organlarining metodikasiga ko'ra, tijorat bankining depozit bazasi yetarli bo'lishi uchun barqaror depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'i 75 foizdan kam bo'lmasligi kerak. Bunda barqaror depozitlar tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

- transaksion depozitlarning barqaror qoldig'i;
- muddatli depozitlar;
- jamg'arma depozitlar.

Germaniya va Fransiya tijorat banklarida jismoniy shaxslarning muddatli omonatlarini jalb qilish ko'lamini kengaytirishga depozit operatsiyalarini rivojlantirishning ustivor yo'nalishi sifatida qaraladi. Buning sababi shundaki, birinchidan, jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari yuridik shaxslarning muddatlari depozitlariga nisbatan arzon resurs hisoblanadi; ikkinchidan, jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari yuridik shaxslarning muddatlari depozitlariga nisbatan tijorat bankida uzoq vaqt saqlanadi; uchinchidan, jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari tijorat bankining resurs bazasini diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

Shunisi ahamiyatliki, yevrohududda inflatsiya va devolvatsiya ta'sirida tijorat banklariga jalb qilingan depozitlar va ularga hisoblangan foizlarning real qiymatini pasayish havfi mavjud emas. Buning ustiga, Aholining real daromadlari darajasining yuqori ekanligi banklardagi muddatli omonatlar miqdorini ko'paytirish imkonini beradi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda inflyatsiya darajasini va devalvatsiya sur'atini nisbatan yuqori ekanligi tijorat banklarining depozit operatsiyalarini rivojlantirish jarayonlariga nisbatan salbiy ta'sirini yuzaga keltiradi. Buning sababi shundaki, birinchidan, inflyatsiya va devolvatsiya ta'sirida tijorat banklariga jalb qilingan depozitlarning va ularga hisoblangan foizlarning real qiymati pasayadi; ikkinchidan, inflyatsiya va devolvatsiya ta'sirida jismoniy shaxslarning real daromadlari kamayadi. Bu esa, aholining muddatli omonatlarini tijorat banklariga jalb qilish ko'lamini kengaytirishga to'sqinlik qiladi.

Shunisi ahamiyatliki, Germaniya va Fransiya depozitlarni so'g'urtalash tizimi to'liq shakllantirilgan. Bu esa, jismoniy va yuridik shaxslarning tijorat banklariga bo'lgan ishonchini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa, depozitlarning sug'urtalash tizimi to'liq

<sup>60</sup> Rasm muallif tomonidan Deutsche Bank va BNP Paribas bank ning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

shakllanmagan. Masalan O'zbekistonda yuridik shaxslarning depozitlarini sug'urtalash tizimi umuman mavjud emas. Faqat jismoniy shaxslarning tijorat bankidagi ikki yuz million so'mgacha bo'lgan omonatlari davlat tomonidan to'liq kafolatlangan. Rossiyada jismoniy shaxslarning tijorat banklaridagi 400 ming rublgacha bo'lgan omonatlari davlat tomonidan to'liq kafolatlangan.

Germaniya va Fransiya bank amaliyotida tijorat banklarining depozit bazasini boshqarishda operatsion riskni baholash va boshqarish tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa so'ngi yillarda bank xodimlarining noqonuniy hatti xarakatlari tufayli tijorat banklari ko'rayotgan zararlarning miqdorini oshayotganligi bilan izohlanadi.

### 2.2-§. Tijorat banklarining ssuda operatsiyalarini rivojlantirish bo'yicha xorij tajribasi

Taraqqiy etgan mamlakatlarda tijorat banklarining ssuda operatsiyalari va qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan fond operatsiyalari ular aktiv operatsiyalarining asosiy qismini tashkil qiladi. Shu sababli, tijorat banklarining likvidiligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashda asosiy e'tibor ssuda va fond operatsiyalarining sifatini ta'minlashga qaratiladi.

2.5-jadval.

### Deutsche bank aktivlari, kreditlarining miqdori va darajasi<sup>61</sup>

Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Aktivlar (mlrd yevro)	1348,1	1297,7	1325,3	1324,0	1336,8	1312,3	1387,2
Brutto kreditlar (mlrd yevro)	400,3	429,8	427,0	471,3	483,7	473,7	478,9
Kreditlarning bruto aktivlarga nisbatan darajasi, %	29,7	33,1	32,2	35,6	36,2	36,1	34,5

2.5-jadval ma'lumotlari ko'rsatdiki, Deutsche Bank aktivlarining miqdori 2024 yilda 2018 yilga nisbatan yuqori sur'atda o'sgan. Bu esa, mazkur davrda bruto kreditlar miqdorining yuqori sur'atda o'sganligi bilan izohlanadi va bankning kredit operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

2.5-jadval ma'lumotlari ko'rsatdiki, Deutsche Bank aktivlarining umumiy hajmida kreditlarning salmog'i 2018-2022 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, mazkur ko'rsatkichning darajasi 2024 yilda 2018 yilga

<sup>61</sup> Jadval muallif tomonidan Deutsche Bankning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan

nisbatan yuqori sur'atda oshgan. Ushbu holatlar Deutsche Bankning kredit operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

2.6-jadval.

### BNP Paribas bank aktivlari, kreditlarining miqdori va darajasi<sup>62</sup>


Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Aktivlar (mlrd yevro)	2040,8	2164,7	2488,5	2634,4	2666,4	2591,5	2704,9
Brutto kreditlar (mlrd yevro)	785,4	827,5	828,5	835,8	889,7	883,6	1047,1
Kreditlarning bruto aktivlarga nisbatan darajasi	38,5	38,2	33,3	31,7	33,4	34,1	38,7

2.6-jadval ma'lumotlari ko'rsatdiki BNP Paribas banki aktivlarining miqdori 2018-2022 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, aktivlarning miqdori 2024 yilda 2018 yilga nisbatan yuqori sur'atda o'sgan. Bu esa, BNP Paribas bank kreditlarining mazkur davrda o'sish tendensiyasiga ega bo'lganligi bilan izohlanadi.

2.6-jadval ma'lumotlari ko'rsatdiki BNP Paribas banki aktivlarining umumiy hajmida kreditlarning salmog'i 2019-2021 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa mazkur davrda qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning bruto aktivlar hajmidagi salmog'ini oshish tendensiyasiga ega bo'lganligi bilan izohlanadi.

2.6-jadval ma'lumotlari ko'rsatdiki BNP Paribas banki aktivlarining umumiy hajmida kreditlarning salmog'i 2021-2024 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda kreditlarning aktivlar hajmidagi salmog'ining pasayganligi bilan izohlanadi va BNP Paribas bankining kredit operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

<sup>62</sup> Jadval muallif tomonidan BNP Paribas bankning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.



**2.2-rasm. Deutsche bank, BNP Paribas bank qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarni brutto aktivlarga nisbatan darajasi, %<sup>63</sup>**

2.2-rasm ma'lumotlaridan yaqqol ko'rinadiki, Deutsche bank da qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2018-2021 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda kreditlarning va kassali aktivlarning brutto aktivlarga nisbatan darajasini oshganligi bilan izohlanadi.

2.2-rasm ma'lumotlaridan yaqqol ko'rinadiki, Deutsche bank da qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2022-2024 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda kreditlarning va kassali aktivlarning brutto aktivlarga nisbatan darajasini pasayganligi bilan izohlanadi va bankning kredit operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

Tijorat banklarida kreditlar va fondli aktivlar asosiy aktivlar bo'lganligi sababli ularning brutto aktivlar hajmidagi salmog'ini barqaror bo'lishi banklarning likvidligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

2.2-rasm ma'lumotlaridan yaqqol ko'rinadiki, BNP Paribas bankida qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2021-2024 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda kreditlarning va kassali aktivlarning brutto aktivlarga nisbatan darajasini pasayganligi bilan izohlanadi va bankning fond operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

<sup>63</sup> Rasm muallif tomonidan Deutsche Bank va BNP Paribas bank ning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

**2.7-jadval.**

**Deutsche bank da kreditlardan olingan foizli daromadlar miqdori va darajasi<sup>64</sup>**

Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Kreditlardan olingan foizli daromadlar miqdori (mln yevro)	12 992	13 760	11 439	10 477	14 088	22 559	23 692
Kreditlardan olingan foizli daromadlarni jami foizli daromadlardagi ulushi, %	52,4	54,7	64,2	63,1	58,0	51,2	48,0

2.7-jadval ma'lumotlari yaqqol ko'rsatadiki, Deutsche bankda kreditlardan olingan foizli daromadlar miqdori 2019-2021 yillarda kamayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Biroq ushu ko'rsatkich 2021-2024 yillarda ko'payish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, kredit operatsiyalarining samaradorligini ta'minlash nuqta nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

2.7-jadval ma'lumotlari yaqqol ko'rsatadiki, Deutsche bankda kreditlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlardagi ulushi 2018-2020 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Biroq mazkur ko'rsatkich 2021-2024 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa mazkur davrda fond operatsiyalaridan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlardagi ulushini oshganligi bilan izohlanadi.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlarining tavsiyasiga ko'ra, tijorat banki jami daromadlarining asosiy qismi, ya'ni kamida 70 foizi asosiy faoliyat turlaridan olinishi kerak. Tijorat banklarda esa ikkita asosiy faoliyat turi bor-kreditlar berish va qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish.

<sup>64</sup> Jadval muallif tomonidan Deutsche Bankning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2.8-jadval.

BNP Paribas bank da kreditlardan olingan foizli daromadlar miqdori va darajasi<sup>65</sup>


Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Kreditlardan olingan foizli daromadlar miqdori (mln yevro)	26 957	27 790	22 268	21 423	30 749	59 019	59 598
Kreditlardan olingan foizli daromatlarni jami foizli daromadlardagi ulushi, %	75,5	74,5	66,3	72,6	74,8	74,2	71,8

2.8-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, BNP Paribas bankda kreditlardan olingan foizli daromadlarning miqdori 2019-2021 yillarda kamayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olingan foizli daromadlarning miqdorini oshganligi bilan izohlanadi.

2.8-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, BNP Paribas bankda kreditlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlardagi ulushi 2018-2021 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda kreditlardan va banklararo depozitlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlardagi ulushini oshganligi bilan izohlanadi.

2.8-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, BNP Paribas bankda kreditlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlardagi ulushi 2024 yilda 2018 yilga nisbatan pasaygan. Bu esa, mazkur davrda kreditlardan va banklararo depozitlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlardagi ulushini oshganligi bilan izohlanadi.

<sup>65</sup> Jadval muallif tomonidan BNP Paribas bankning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.



2.3-rasm. Deutsche bank va BNP Paribas bank da kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi yaratilgan zaxiralarni brutto aktivlarga nisbatan darajasi, %<sup>66</sup>

2.3-rasm ma'lumotlari aniq ko'rsatadiki, Deutsche bank da kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi yaratilgan zaxiralarni brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2018-2020 yillarda, 2021-2024 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Biroq tahlil davrida kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi yaratilgan zaxiralarni brutto aktivlarga nisbatan darajasi ushbu ko'rsatkichning me'yoriy darajasidan oshib ketmagan. Bu esa, bankning kredit operatsiyalari samaradorligini ta'minlash nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

2.3-rasm ma'lumotlari aniq ko'rsatadiki, BNP Paribas bankda kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi yaratilgan zaxiralarni brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2018-2024 yillarda barqaror bo'lgan. Buning ustiga. Ushbu ko'rsatkichning haqiqatdagi darajasi uning me'yoriy darajasidan oshib ketmagan. Bu esa, bankning kredit operatsiyalari samaradorligini ta'minlash nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

Germaniya va Fransiya banklarida kreditlar bo'yicha zaxiralar tashkil qilish Bazel qo'mitasining talablari asosida amalga oshiriladi. Ushbu talablarga ko'ra, kreditlar bo'yicha zaxira tasniflangan kreditlarning quyidagi 5 toifasi bo'yicha amalga oshiriladi:

- standart kreditlar;
- substandart kreditlar;
- qoniqarsiz kreditlar;
- shubhali kreditlar;
- umidsiz kreditlar.

<sup>66</sup> Rasm muallif tomonidan Deutsche Bank va BNP Paribas bank ning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Bazel qo'mitasining talabiga ko'ra tasniflangan kreditlar bo'yicha yaratilgan majburiy zaxira ajratmalari so'mmasi to'liq tijorat bankining xarajatiga olib boriladi va bankning soliqqa tortiladigan bazasi kredit bo'yicha zaxira summasiga kamayadi.

Shunisi ahamiyatliki Bazel qo'mitasi kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari so'mmasining bir qismini regulyativ kapitalning yetariligidini hisoblab inobatga olishni tavsiya qiladi. Uning tavsiyasiga ko'ra, kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari so'mmasining regulyativ kapitalning yetarligini baholashda hisobga olinadigan qismi tijorat banki aktivlarining riskka tortilgan so'mmasining 1.25 foizidan oshib ketmasligi kerak.

Bazel qo'mitasining talabi bo'yicha tijorat banklarining aktivlari 5 ta risk tarajasi bo'yicha riskka tortiladi: 0%; 20%; 50%; 100%; 150%.

Germaniya va Fransiya banklarida muddati o'tgan kreditlarning yo'l qo'yish mumkin chegarasi ko'rsatkichiga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu chegara tijorat bankining jami kreditlariga nisbatan 5 foizni tashkil qiladi. Muddati o'tgan kredit so'mmasi brutto kreditlar so'mmasiga nisbatan 5 foizga yetishi bilan Germaniya va Fransiya banklari uning 2-2.5 foizini balansdan chiqaradi.

Germaniya va Fransiya banklari Bazel qo'mitasining kredit riskini baholash bo'yicha tavsiyalarini qabul qilgan.

Bazel-II kredit riskini o'Ichash bo'yicha uch yondashuvni taklif etadi:

-standartlashgan yondashuv;

-ichki reytinglarga asoslangan bazaviy yondashuv (IRB-Internal rating-based approach);

- ichki reytinglarga asoslangan takomillashgan yondashuv.

Tijorat banklarida IRB yondashuvi asosida defolt bo'lish ehtimolini baholash uchun quyidagi modeldan foydalaniladi:

$$PD_i = \frac{\Delta ICR_{Ti}}{ICR_{Def} - ICR_{Ti}} \times 100\%,$$

Bu yerda:

$PD_i$  - i - mijozning defolt bo'lish ehtimoli;

$\Delta ICR_{Ti}$  - i - mijozning kredit shartnomasi davrida kredit reytingining o'zgarishi;

$ICR_{Def}$  - maksimal defolt reytingi.

Ushbu modelni tuzish uchun ikki bosqichdan o'tish talab etiladi. Birinchi bosqich - mijozning kredit reytingini o'zgarish tezligini hisoblash.

$$V_{\Delta CR_{Ti}} = \frac{ICR_{t_2} - ICR_{t_1}}{(t_2 - t_1)},$$

Bu yerda:

$ICR_{t_2}$  - i-mijozning  $t_2$  vaqtdagi kredit reytingi;

$ICR_{t_1}$  - i-mijozning  $t_1$  vaqtdagi kredit reytingi;

$t_1$  - i-mijozning hisobot sanalari ( $t_2 > t_1$ ).

Ko'rsatilgan hisobot sanalari sifatida quyidagilarni ishlatish mumkin:

$t_1$  - hisobot yilining boshi yoki kreditni berish sanasi (kreditlanayotgan mijozlar uchun), agar kredit joriy yilda berilgan bo'lsa;

$t_2$  - defolt ehtimolini baholashdan oldingi so'nggi hisobot sanasi.

Ikkinchi bosqich -  $\Delta ICR_{Ti}$  - izmenenie kreditnogo reytinga i-mijozning kredit shartnomasi davrida kredit reytingini o'zgarishi.

Ichki reytinglar asosidagi yondashuvda kredit riski darajasi bankning ichki reytinglariga asoslangan ballarga bog'liq ravishda belgilanadi. Banklarning ichki reytingi esa, mijozlarning kredit tarixiga asosan belgilanadi. Mazkur yondashuvda uch muhim jihat mavjud:

- bank o'zining va o'z kontragentlarining krizis yoki bankrot imkoniyatlariga mustaqil baho berishni amalga oshirishga qodir bo'lishi lozim;

- bank risklarga integral baho bera olishi zarur;

- ichki baholash bank qanday ma'lumotlardan foydalanishiga bog'liq bo'ladi, ya'ni bank o'z risklarini ishonchli ma'lumotlarga muvofiq o'Ichashga qodir bo'lishi shart.

Bazel-II ning muhim talablaridan biri yetarli darajada zaxira ajratmalari bilan ta'minlanmagan bank kreditlarining risk darajasini oshirish talabidir. Ushbu talabning mohiyati shundaki, kreditning qaytarish muddati tugaganiga 90 kun va undan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa, yaratilgan zaxira ajratmasi miqdori kredit bo'yicha umumiy qarzdorlikning 20 foizidan kam bo'lsa, u holda, mazkur kreditlarning risk darajasi 150 foizni tashkil qiladi. Bu esa, muddati o'tgan kreditlarning brutto kreditlar hajmidagi salmog'i nisbatan yuqori bo'lgan tijorat banklarining kreditlikligiga va kapital bazasining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, respublikamizda kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari to'liq tijorat banklarining xarajatiga olib boriladi. Bu esa, o'z navbatida, banklarning sof foydasini kapitallashtirish darajasining pasayishiga xizmat qiladi. Ikkinchidan, muddati o'tgan kreditlarning 150% darajasida riskka tortilishi tijorat banklarining riskka tortilgan aktivlari

summasining oshishiga olib keladi. Buning natijasida tijorat banklari kapitalining yetarlilik koeffitsienti pasayadi. Uchinchidan, kreditlarning asosiy qismi tijorat bankining "Nostro" vakillik hisobraqamlarini kreditlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Shu sababli, kreditlarning muddatida qaytmasligi bankning likvidli aktivlari miqdorining kamayishiga va shuning asosida uning joriy likvidlilik darajasining pasayishiga olib keladi.

Muddati o'tgan kreditlarning risk darajasini oshishi natijasida tijorat banklarining kapital bazasi va ularning likvidligiga nisbatan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirga barham berish uchun Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining muddati o'tgan kreditlariga nisbatan qo'yiladigan talablarni aniqlashtirilishi va kuchaytirilishi lozim.

### **2.3-§. Tijorat banklarining depozit va ssuda operatsiyalarini rivojlantirish borasidagi xorij tajribasidan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari**

Dissertatsion tadqiqotimizning ob'ekti bo'lgan traensmilliy banklar - Deutsche bank va BNP Paribas bankning depozit-ssuda operatsiyalarini rivojlantirish sohasidagi tajribasini quyidagi jihatlarni O'zbekiston banklari amaliy ahamiyatga ega deb hisoblaymiz:

1. Depozitlar miqdorining barqaror o'sishini ta'minlash.

Amalga oshirilgan tahlillar ko'rsatdiki, BNP Paribas banki depozitlarining miqdori 2018-2020 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgani holda, bank depozitlarining miqdori 2024 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada ko'paygan.

Deutsche Bank depozitlarining miqdori 2020-2024 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgani holda, bank depozitlarining miqdori 2024 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada ko'paygan.

2. Tijorat banklari depozitlarining yetarliligini ta'minlash.

Amalga oshirilgan tahlillar ko'rsatdiki:

\* BNP Paribas banki depozitlarining hajmida talab qilib olinguncha depozitlarning salmog'i 2019-2021 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgani holda, mazkur ko'rsatkich 2021-2024 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan;

\* BNP Paribas banki depozitlarining hajmida muddatli depozitlarning salmog'ini 2021-2024 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lganligi depozitlarning hajmida talab qilib olinguncha depozitlarning salmog'ini pasayish tendensiyasiga ega bo'lganligi bilan izohlanadi;

\*Deutsche Bank depozitlarining hajmida talab qilib olinguncha depozitlarning salmog'i 2020-2024 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan;

\*Deutsche Bank depozitlarining hajmida muddatli depozitlarning salmog'ini 2020-2024 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lganligi mazkur davrda depozitlarning hajmida talab qilib olinguncha depozitlarning salmog'ini pasayish tendensiyasiga ega bo'lganligi bilan izohlanadi.

3. Depozitlarning tijorat banklari majburiyatlarining hajmidagi salmog'ining barqarorligini ta'minlash.

Amalga oshirilgan tahlillar ko'rsatdiki:

\* Deutsche Bank majburiyatlarining umumiy hajmida depozitlarining salmog'i 2021-2024 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgani holda, ushbu ko'rsatkichning darajasi 2024 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan;

\*BNP Paribas banki majburiyatlarining umumiy hajmida depozitlarning salmog'i 2018-2020 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgani holda, mazkur ko'rsatkichning darajasi 2024 yilda 2018 yilga nisbatan yuqori sur'atda oshgan.

4. Innovatsion depozit turlarini joriy qilish hisobiga depozit xizmatlarining samaradorligini ta'minlash.

BNP Paribas Bankda hozirgi davrda quyidagi depozitlar mavjud:

\*valyutali depozitlar (EUR, USD, CHF va boshqalar);

\*muddatli depozitlar (fiksirovan foiz bilan);

\*joriy depozitlar (iste'molchilar va korxonalar uchun);

\*omonat xisoblar (tejamkorlik xisoblari);

\*inovatsion depozitlar (indekslangan, investitsiya bilan bog'liq).

Depozitlarning asosiy shartlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

\*muddat: 1 oydan 5 yilgacha (turli variantlar mavjud);

\*foiz stavkasi: Valyutaga va muddatga qarab (0.5% dan 5% gacha);

\*minimal summa: 100-1000 EUR/USD (turli filiallarda farq qilishi mumkin);

\*kapitalizatsiya: qo'shimcha foizni oylik/yillik kapitalizatsiya bilan olish imkoniyati;

\*erkin to'lov: Ayrim depozitlarda muddatdan oldin bo'lib to'lash imkoniyati (lekin foizlar kamaytirilishi mumkin).

Shunisi ahamiyatliki, BNP Paribas Bank depozitlar sohasida quyidagi innovatsion yondashuvlarni qo'llagan:

1. Raqamli depozit xizmatlari:

\*Smart Deposit – mobil ilova orqali depozit ochish va boshqarish;

\*Avtomatlashtirilgan hisoblar – foydani algoritmik hisoblash;

\*Inovatsion depozit mahsulotlari:

\*indekslangan depozitlar – fond birjasi indeksiga bog'liq foizlar;

\*ekologik depozitlar – yashil energetika loyihalariga investitsiya.

2. Ishonchli bonus tizimi:

\*referral bonuslar – do'stlarni taklif qilish orqasida qo'shimcha foiz olish;

\*loyallik dasturi – uzoq muddatli depozitlar uchun maxsus bonuslar;  
 \*shaxsiy depozit takliflari – mijozlarning sarf-harajatlari qarab optimal depozitlarni takdim etish.

2.9-jadval

**BNP Paribas Bankda depozitlarning Foiz stavkalari (2024 yil 31 dekabr holatiga)**

Valyuta	3 oylik	6 oylik	1 yillik	3 yillik
EUR	0.75%	1.25%	2.0%	2.5%
USD	1.5%	2.0%	3.0%	3.5%
PLN	4.0%	5.0%	5.5%	6.0%

2.9-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2024 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, BNP Paribas Bankda PLN valyutasidagi depozitlarning foiz stavkalari nisbatan yuqori bo'lgan.

Shunisi ahamiyatliki, BNP Paribas Bank depozit xizmatlari sohasida quyidagi qo'shimcha imkoniyatlarni taqdim etadi:

\*loyallik bonuslari – 3 yilga depozit ochilsa, +0.25% qo'shimcha;

\*referral programmasi – do'stingiz depozit ochsa, ikkovingizga 50 EUR bonus.

\*agar mijoz konkret bir filial (masalan, BNP Paribas Poland yoki BNP Paribas UAE) uchun ma'lumotlarni olmoqchi bo'lsa, qaysi mamlakatda depozit ochishni niyat qilganini yozib qoldiradi, bank uni to'g'ri ma'lumot bilan ta'minlaydi.

5. Tijorat banklari aktivlarining umumiy hajmida kreditlarning barqaror salmog'ini ta'minlash.

Amalga oshirilgan tahlillar ko'rsatdiki:

\*Deutsche Bank aktivlarining umumiy hajmida kreditlarning salmog'i 2018-2022 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgani holda, mazkur ko'rsatkichning darajasi 2024 yilda 2018 yilga nisbatan yuqori sur'atda oshgan;

\*BNP Paribas banki aktivlarining umumiy hajmida kreditlarning salmog'ini 2021-2024 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lganligi mazkur davrda kreditlarning aktivlar hajmidagi salmog'ining pasayganligi bilan izohlanadi va BNP Paribas bankining kredit operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

6. Kreditlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlardagi ulushining barqarorligini ta'minlash.

Amalga oshirilgan tahlillar ko'rsatdiki:

\*Deutsche bankda kreditlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlardagi ulushini 2021-2024 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lganligi mazkur davrda fond operatsiyalaridan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlardagi ulushini oshganligi bilan izohlanadi;

\*BNP Paribas bankda kreditlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlardagi ulushini 2024 yilda 2018 yilga nisbatan pasayganligi mazkur davrda kreditlardan va banklararo depozitlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlardagi ulushini oshganligi bilan izohlanadi.

7. Kreditlardan bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi yaratilgan zaxiralarni brutto aktivlarga nisbatan darajasining me'yoriy darajasini ta'minlash.

\*Deutsche bank da kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi yaratilgan zaxiralarni brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2018-2024 yillarda ushbu ko'rsatkichning me'yoriy darajasidan oshib ketmagan;

\*BNP Paribas bankda kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi yaratilgan zaxiralarni brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2018-2024 yillarda barqaror bo'lgan va ushbu ko'rsatkichning haqiqatdagi darajasi uning me'yoriy darajasidan oshib ketmagan.

Germaniya va Fransiya banklarida kreditlar bo'yicha zaxiralar tashkil qilish Bazel qo'mitasining talablari asosida amalga oshiriladi va ushbu talablarga ko'ra, kreditlar bo'yicha zaxira tasniflangan kreditlarning quyidagi 5 toifasi bo'yicha amalga oshiriladi:

- standart kreditlar;
- substandart kreditlar;
- qoniqarsiz kreditlar;
- shubhali kreditlar;
- umidsiz kreditlar.

Innovatsion kredit mahsulotlarini (forfeiting, kontokorrent, overdraft, revolverli kredit) kreditlash amaliyotiga joriy etish yo'li bilan kredit mexanizmining samaradorligini oshirish yurasidagi ilg'or xorij tajribasi ko'rsatdiki:

\*banklar amaliyotiga joriy qilinadigan innovatsion kredit mahsulotlarining samaradorligini baholash imkonini beradigan ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish lozim;

\*innovatsion kreditlarning samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillarning ta'sir darajalarini miqdoriy baholash tizimini shakllantirish kerak (resurslarning bahosi, makroiqtisodiy monetar indikatorlarning o'zgarishi, ssuda kapitallari bozorining stavkalarini o'zgarishi va boshq.);

\* forfeyting kreditlash shaklini amaliyotga joriy qilish uchun iqtisodiyotning real sektori korxonalariga tijorat veksellari chiqarishga ruxsat berish zarur;

\* overdraft kreditlari berishda kredit shartnomasiga overdraft krediti bo'yicha qarzdorlikni keyingi oyga o'tmasligini ta'minlaydigan band kiritish kerak;

\* faktoringda tovar hujjatlarini sotib olish sharti (regress huquqi bilan yoki regress huquqsiz) aniq ko'rsatilishi lozim;

\* yuqori riskli innovatsion kreditlarni faqat to'lovga qobillik darajasi yuqori bo'lgan va davlat budjeti oldida muddati o'tgan qarzdorligi bo'lmagan mijozlarga berish zarur;

\* revolverli kreditlarni qayta tiklanish muddati kredit shartnomasida aniq ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

#### **Ikkinchi bob bo'yicha xulosa**

Tijorat banklarining depozit operatsiyalarini rivojlantirish bo'yicha xorij tajribasining tahlili ko'rsatdiki:

- BNP Paribas banki depozitlarining miqdori 2018-2020 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, bank depozitlarining miqdori 2024 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada ko'paygan;

- BNP Paribas banki depozitlarining hajmida talab qilib olinguncha depozitlarning salmog'i 2019-2021 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Lekin depozitlarning hajmida talab qilib olinguncha depozitlarning salmog'i 2021-2024 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan;

- BNP Paribas banki depozitlarining hajmida muddatli depozitlarning salmog'i 2018-2021 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Biroq, depozitlarning umumiy hajmida muddatli depozitlarning salmog'i 2021-2024 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan;

- Deutsche Bank depozitlarining miqdori 2020-2024 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, bank depozitlarining miqdori 2024 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada ko'paygan;

- Deutsche Bank depozitlarining hajmida talab qilib olinguncha depozitlarning salmog'i 2019-2021 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Lekin depozitlarning hajmida talab qilib olinguncha depozitlarning salmog'i 2020-2024 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan;

- Deutsche Bankda muddatli depozitlarga to'langan foizlarning jami foizli xarajatlardagi salmog'i 2018-2020 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda muddatli depozitlarga to'langan foizlar summasining o'sish sur'atini foizli xarajatlarning o'sish sur'atidan yuqori bo'lganligi bilan izohlanadi;

- Deutsche Bankda muddatli depozitlarga to'langan foizlarning jami foizli harajatlardagi salmog'i 2021-2024 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan;

- BNP Paribas bank ida muddatli depozitlarga to'langan foizlarning jami foizli xarajatlardagi salmog'i 2020-2024 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan;

Tijorat banklarining ssuda operatsiyalarini rivojlantirish bo'yicha xorij tajribasi

- Deutsche Bank aktivlarining miqdori 2024 yilda 2018 yilga nisbatan yuqori sur'atda o'sgan. Bu esa, mazkur davrda brutto kreditlar miqdorining yuqori sur'atda o'sganligi bilan izohlanadi;

- Deutsche Bank aktivlarining umumiy hajmida kreditlarning salmog'i 2018-2022 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, mazkur ko'rsatkichning darajasi 2024 yilda 2018 yilga nisbatan yuqori sur'atda oshgan;

- BNP Paribas banki aktivlarining miqdori 2018-2022 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, aktivlarning miqdori 2024 yilda 2018 yilga nisbatan yuqori sur'atda o'sgan;

- BNP Paribas banki aktivlarining umumiy hajmida kreditlarning salmog'i 2019-2021 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa mazkur davrda qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'ini oshish tendensiyasiga ega bo'lganligi bilan izohlanadi;

- BNP Paribas banki aktivlarining umumiy hajmida kreditlarning salmog'i 2021-2024 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda kreditlarning aktivlar hajmidagi salmog'ining pasayganligi bilan izohlanadi;

- Deutsche bank da qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2018-2021 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda kreditlarning va kassali aktivlarning brutto aktivlarga nisbatan darajasini oshganligi bilan izohlanadi;

- Deutsche bank da qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2022-2024 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan;

- BNP Paribas bankida qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2021-2024 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan;

- Deutsche bankda kreditlardan olingan foizli daromadlar miqdori 2019-2021 yillarda kamayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Biroq ushbu ko'rsatkich 2021-2024 yillarda ko'payish tendensiyasiga ega bo'lgan;

- Deutsche bankda kreditlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlardagi ulushi 2018-2020 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Biroq mazkur ko'rsatkich 2021-2024 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan;

- BNP Paribas bankda kreditlardan olingan foizli daromadlarning miqdori 2019-2021 yillarda kamayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olingan foizli daromadlarning miqdorini oshganligi bilan izohlanadi;

- BNP Paribas bankda kreditlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlardagi ulushi 2018-2021 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda kreditlardan va banklararo depozitlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlardagi ulushini oshganligi bilan izohlanadi.

- BNP Paribas bankda kreditlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlardagi ulushi 2024 yilda 2018 yilga nisbatan pasaygan. Bu esa, mazkur davrda kreditlardan va banklararo depozitlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlardagi ulushini oshganligi bilan izohlanadi.

### 3-BOB. O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT VA SSUDA OPERATSIYALARINING METODOLOGIK VA AMALIY ASOSLARI

#### 3.1-§. Tijorat banklarining depozit va ssuda operatsiyalarining metodologik asoslari

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, banklar tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- pul mablag'larini omonatlarga (depozitlarga) jalb etish;
- to'lovlarni amalga oshirish, shu jumladan bank hisobvaraqlarini ochmasdan amalga oshirish;
- jismoniy va yuridik shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan banklarning vakillik hisobvaraqlarini ochish hamda yuritish;
- kreditlarni ularning qaytarilishi, foizlilik va muddatlilik sharti bilan o'z nomidan o'zining mablag'lari hamda jalb etilgan mablag'lar hisobidan berish;
- chet el valyutasi bilan naqd va naqdsiz shakllardagi operatsiyalar;
- jismoniy yoki yuridik shaxs bilan tuzilgan shartnoma bo'yicha pul mablag'larini va boshqa mol-mulkni ishonchli boshqarish;
- inkassatsiya va kassa xizmatlarini ko'rsatish;
- uchinchi shaxslar nomidan ularning majburiyatlari bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish va boshqa majburiyatlarni qabul qilish<sup>67</sup>.

O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risidagi qonunga ko'ra, Markaziy bank:

- pul bozorida likvidlilikni taqdim etish va uni olib qo'yish bo'yicha operatsiyalarni o'tkazadi;
- likvidlilikning vaqtinchalik taqchilligi yuzaga kelganda to'lovlarning uzluksizligini ta'minlash maqsadida Markaziy bank likvidlilikni saqlab turish uchun to'lovga qobiliyatli va barqaror tijorat banklariga olti oygacha bo'lgan muddatga qisqa muddatli kreditlar tarzida tezkor yordam berishga haqli. Mazkur kreditlar bo'yicha foiz stavkasi Markaziy bankning boshqa kreditlariga doir amaldagi stavkalardan kam bo'lmasligi va u bankning aktivlari bilan ta'minlangan bo'lishi kerak;

- tijorat banklari bilan depozit operatsiyalarini amalga oshiradi;

<sup>67</sup> O'zbekiston Respublikasining qonuni. Banklar va bank faoliyati to'g'risida//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.11.2019 y., 03/19/580/3994-son; 07.01.2020 y., 03/20/600/0023-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son; 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son; 20.04.2023 y., 03/23/831/0219-son; 29.11.2023 y., 03/23/880/0905-son; 07.02.2024 y., 03/24/905/0106-son; 22.02.2024 y., 03/24/911/0142-son.

– kredit tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar to'g'risidagi axborotni oshkor etish tartibini belgilaydi;

– kredit tashkilotlari faoliyatidagi ularning xizmatlari iste'molchilarining huquqlari buzilishiga olib keluvchi tizimli kamchiliklarni aniqlaydi, shuningdek ularni bartaraf etish choralari ko'radi;

– o'z xizmatlari iste'molchilarining huquqlari buzilishiga yo'l qo'ygan kredit tashkilotlariga nisbatan choralar va sanksiyalar qo'llaydi<sup>68</sup>.

2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida tijorat banklarining depozit va ssuda operatsiyalarini rivojlantirish bo'yicha quyidagi dolzarb vazifalar belgilangan:

– banklarning davlat resurslariga qaramligini pasaytirish;

– banklarning samarali infratuzilmasini yaratish va faoliyatini avtomatlashtirish;

– kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash;

– kreditlash hajmlarining mo'tadil o'sishiga amal qilish;

– muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish;

– banklarda korporativ boshqaruvni takomillashirish va xalqaro amaliy tajribaga ega bo'lgan menejrlarni jalb qilish<sup>69</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2018 yil 22 sentabrda 30/13-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari bilan depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi nizomga (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018 yil 25 oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3079) muvofiq:

– Markaziy bank tomonidan quyidagi turdagi depozit operatsiyalari amalga oshiriladi:

\* depozit auksioni (foizli va miqdoriy);

\* o'zgarmas foiz stavkasi bo'yicha depozit operatsiyalari.

– depozit auksioni quyidagi standart shartlar asosida o'tkaziladi:

\* «1 hafta» - muddati yetti kalendar kunidan iborat bo'lgan depozit operatsiyasi;

\* «2 hafta» - muddati o'n to'rt kalendar kunidan iborat depozit operatsiyasi;

\* «1 oy» - muddati bir oydan iborat depozit operatsiyasi;

\* «3 oy» - muddati uch oydan iborat depozit operatsiyasi.

– foizli depozit auksionlari Markaziy bank tomonidan depozit auksionida jalb qilinadigan pul mablag'larining maksimal miqdori o'rnatilgan holda amalga

<sup>68</sup> O'zbekiston Respublikasining qonuni. O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.11.2019 y., 03/19/582/4014-son.

<sup>69</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-sonli "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni//QHMMB.06/205992/0581-son. 13.05.2020 y.

oshiriladi. Bunda, depozitlar bo'yicha maksimal foiz stavkasi ham o'rnatilishi mumkin;

– Markaziy bank tomonidan foizli depozit auksioni natijalari bo'yicha avval tijorat banklarining raqobatsiz arizalari to'liq, shuningdek taklif etilgan foiz stavkasi chegirish stavkasidan yuqori bo'lmagan raqobatli arizalari qondiriladi. Raqobatli arizalar taklif qilingan minimal foiz stavkalaridan chegirish foiz stavkasigacha bo'lgan tartibda qondiriladi;

– foizli depozit auksionlari ikki xil usulda o'tkazilishi mumkin:

\* «amerikacha» usul - tijorat banklarining raqobatli arizalari ularda taklif etilgan foiz stavkalari bo'yicha;

\* «gollandcha» usul - tijorat banklarining raqobatli arizalari chegirish stavkasi bo'yicha qondiriladi<sup>70</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2023 yil 23 avgustdagi 27/4-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Tijorat banklarida foizlarni hisoblash tartibi to'g'risida"gi nizomga (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023 yil 29 sentabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3460) ko'ra:

– banklar o'z moliyaviy hisobotlarini buxgalteriya hisobining hisoblab yozish usuli asosida tuzishlari kerak, bundan pul oqimlari to'g'risidagi hisobot mustasno;

– foizlar buxgalteriya hisobining hisoblab yozish usuli bo'yicha tan olinadi;

– haftaning juma kuni hisoblab yoziladigan foizni hisoblashda odatda uch kun

- juma, shanba va yakshanba kunlari uchun foizlar hisobga olinishi lozim;

– bank omonati (depozit) summasiga foizlar hisobga olinishi lozim;

– bank omonati (depozit) summasiga foizlar hisobga olinishi lozim;

– bank omonati (depozit) summasiga foizlar hisobga olinishi lozim;

– banklar mukofot yoki diskont bilan sotilayotgan moliyaviy vositalar bo'yicha foizlarni hisoblab yozishda yoki shartnoma bo'yicha har oyda foizli

to'lovlarni to'lash grafigi ko'rsatilmaganda effektiv foiz stavkasi usulini qo'llashlari lozim;

<sup>70</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2018 yil 22 sentabrda 30/13-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari bilan depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.10.2018 y., 10/18/3079/2122-son; 31.12.2020 y., 10/20/3079-1/1701-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021 y., 10/21/3313/0724-son; 13.03.2025 y., 10/25/3079-2/0237-son.

– effektiv foiz stavkasi usulini qo'llashda mijozlar tomonidan yoki mijozlarga to'lanadigan foizli to'lovlar muddatlari va summalari hisoblab yozilgan foizlardan farq qilishi mumkin<sup>71</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2021 yil 18 noyabrdagi 20/4-sonli Qarori bilan tasdiqlangan Tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasiga (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021 yil 26 noyabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3336) muvofiq, tijorat banklarining depozitlari ularning buxgalteriya balansining majburiyatlar qismida, quyidagi turlarga ajratilgan holda, aks ettiriladi:

- talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar;
- jamg'arma depozitlar;
- muddatli depozitlar<sup>72</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2021 yil 18 noyabrdagi 20/3-sonli Qarori (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021 yil 27 noyabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3337) bilan tasdiqlangan "Tijorat banklarining hisob siyosati va moliyaviy hisobotlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizomga ko'ra, banklarning moliyaviy hisobotlari quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

- moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot;
- foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot;
- xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot;
- pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot;
- moliyaviy hisobotlarni tushuntiruvchi izohlar<sup>73</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentabrdagi PQ-3270-sonli "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra:

– tijorat banklarining raqobatdoshligi darajasini oshirish hamda banklarni ilg'or bank amaliyoti asosida faoliyat yuritadigan tizimga aylantirish, bank-moliya xizmat ko'rsatish sohasida aholining moliyaviy savodxonligi hamda huquqlarini himoya qilish darajasini oshirish, aholining mamlakatimiz bank tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, mijozlarning bank tizimiga bo'lgan talablarini doimiy monitoring qilib borish, bank xizmatlari ko'rsatish madaniyatini oshirish,

<sup>71</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2023 yil 23 avgustdagi 27/4-sonli Qarori Tijorat banklarida foizlarni hisoblash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.10.2023 y., 10/23/3460/0742-son.

<sup>72</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2021 yil 18 noyabrdagi 20/4-sonli Qarori Tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasini tasdiqlash haqida//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.11.2021 y., 10/21/3336/1101-son; 01.08.2022 y., 10/22/3377/0696-son; 25.04.2023 y., 10/23/3336-1/0225-son; 12.06.2023 y., 10/23/3442/0359-son; 12.06.2023 y., 10/23/3442/0359-son; 06.02.2024 y., 10/24/3336-2/0100-son.

<sup>73</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2021 yil 18 noyabrdagi 20/3-sonli Qarori Tijorat banklarining hisob siyosati va moliyaviy hisobotlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.11.2021 y., 10/21/3337/1103-son.

mijozlarning ehtiyojlarini qanoatlantiradigan ilg'or bank xizmatlari ko'rsatish chora-tadbirlari belgilandi;

– vazirliklar va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlarining tijorat banklari va ularning filiallari faoliyatiga aralashishi, shu jumladan, kredit portfeli va bank aktivlarini shakllantirish bilan bog'liq tadbirkorlik tavakkalchiligini boshqarish, shuningdek, tasdiqlangan biznes-rejalarda nazarda tutilmagan xayriya va badal xarajatlarini amalga oshirish ta'qiqlandi;

– tijorat banklarining ijobi xulosasisiz ularni davlat dasturlarini moliyalashtirishga jalb etish ta'qiqlandi;

– O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziriga har yilgi O'zbekiston Respublikasining Davlat budgetini shakllantirishda xorijiy moliya institutlariga, chet el va mahalliy tijorat banklariga berilgan kreditlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi davlat kafolatlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha xarajatlar qismida tegishli mablag'lar nazarda tutish majburiyati yuklandi<sup>74</sup>.

O'zbekiston Respublikasining "Garov reestri to'g'risida"gi qonuniga ko'ra:

– garov reestri – bu qarzdorlarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash vositasi sifatida berib qo'ygan mol-mulkiga qonunda va ijara shartnomasida nazarda tutilgan hollarda yer uchastkasini ijaraga olish huquqiga nisbatan kreditorlarning huquqlari to'g'risidagi, shuningdek qarzdorning mol-mulkni tasarruf etish va undan foydalanishga doir huquqlariga qonunga muvofiq qo'yilgan cheklov hamda qarzdor o'z majburiyatlari lozim darajada bajarilishini ta'minlashi bilan bog'liq boshqa talablar haqidagi yozuvlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlarning yagona axborot bazasidir;

– garov reestriga kiritilayotgan yozuv quyidagilarni o'z ichiga olgan bo'lishi kerak:

\* qarzdor yoki pul talabnomasidan voz kechuvchi shaxs va kreditor to'g'risidagi axborot (jismaniy shaxslar uchun - familiyasi, ismi, otasining ismi va jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami yoki yuridik shaxslar uchun - nomi, tashkiliy-huquqiy shakli va soliq to'lovchining identifikatsiya raqami);

\* qarzdorning mol-mulki, yer uchastkasini ijaraga olish huquqi va kreditorning bu mol-mulkka yoki yer uchastkasini ijaraga olish huquqiga bo'lgan huquqlari tavsifi, pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash shartnomasi uchun esa — voz kechilgan pul talabnomasining tavsifi;

<sup>74</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentabrdagi PQ-3270-sonli "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.09.2017 y., 07/17/3270/0004; 06.03.2018 y., 06/20/5370/0975-son; 23.07.2019 y., 07/19/4400/3468-son; 27.02.2021 y., 06/21/6179/0165-son.

– qarzdorning yoki pul talabnomasidan voz kechuvchi shaxsning yozma roziligi garov reestridan yozuv chiqarib tashlanguniga qadar kreditorda saqlanishi kerak;

– sudning undiruvni qarzdorning mol-mulkiga yer uchastkasini ijaraga olish huquqiga qaratish to'g'risidagi qonuniy kuchga kirgan qarori to'g'risida yozuv kiritish yoxud kiritilgan yozuvdan mol-mulkning bir qismini chiqarib tashlash yoki undagi axborotni o'zgartirish kreditor tomonidan qarzdorning rozilgisiz amalga oshiriladi<sup>75</sup>.

*O'zbekiston Respublikasining "Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida"gi qonuniga muvofiq:*

– kredit axboroti - kredit bitimining holati, berilgan ta'minot bo'yicha (garov, kafolat, kafillik, kreditni to'lamaslik xavfini sug'urtalash va ta'minotning boshqa turlari bo'yicha) majburiyatlarning bajarilishi haqidagi ma'lumotlar, shuningdek kredit axboroti sub'ektining kredit qobiliyatini, moliyaviy holatini, to'lov qobiliyatini, to'lov intizomini va o'zga sifatlarini aniqlashga ko'maklashuvchi boshqa axborolardir;

– kredit byurosi – bu qonunchilikda belgilangan tartibda tashkil etilgan va kredit axboroti almashinuvi amalga oshirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxsdir;

– O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki:

\*kredit axboroti almashinuvi sohasida o'z vakolatlari doirasida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi;

\*qonunchilikda belgilangan tartibda kredit byurosini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiradi va litsenziya beradi, litsenziatlar tomonidan litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini nazorat qiladi, litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turadi yoki tugatadi, shuningdek litsenziyani bekor qiladi yoki qayta rasmiylashtiradi;

\*kredit byurolarining davlat reestrini va Kredit axborotining davlat reestrini yuritadi;

\*kredit byurolari uchun ichki audit o'tkazishga, yillik hisobotlar tuzishga, shuningdek kredit axboroti himoya qilinishini ta'minlovchi dasturiy-texnikaviy kompleksning parametrlari va joylashuviga doir majburiy talablarni belgilaydi;

\*kredit byurolarining faoliyatiga taalluqli hisobotlarni va boshqa ma'lumotlarni oladi;

\*kredit byurolarining faoliyatini belgilangan tartibda tekshiradi;

\*kredit byurosining rahbariga nisbatan malaka talablarini belgilaydi;

<sup>75</sup> O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Garov reestri to'g'risida// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 43-son, 570-modda; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son; 25.10.2023 y., 03/23/871/0797-son; 18.04.2025 y., 03/25/1058/0355-son.

\*kredit byurolariga ularning faoliyatida aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish haqida ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar beradi, ko'rsatmalar ijro etilmagan taqdirda javobgarlik choralari ko'radi<sup>76</sup>.

"O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining likvidligini favqulodda qo'llab-quvvatlash uchun kreditlar ajratish tartibi to'g'risida"gi yo'riqnomaga muvofiq, tijorat banklari likvidlikning vaqtinchalik taqchilligi yuzaga kelgan hollarda to'lovlarning uzluksizligini ta'minlash maqsadida so'nggi chora sifatida Markaziy bankka kredit olish uchun murojaat qilishi mumkin va bunda so'rovnoma quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

– kredit olish va aktivlarni garovga qo'yish to'g'risidagi bankning vakolatli boshqaruv organining qarori;

– likvidlikni tiklash rejas;

– so'rovnoma yuborilgan sanadan keyingi ikki haftalik davr uchun pul oqimlari prognozi;

– kreditga garov predmeti sifatida taqdim etiladigan aktivlar ro'yxati;

– chet el banki tomonidan tashkil etilgan bank uchun chet el banking ushbu bankka likvidlik taqdim eta olmasligi to'g'risidagi ma'lumot<sup>77</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015 yil 13 iyundagi 14/5-sonli Qarori bilan tasdiqlangan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 14 iyulda 2696-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi nizomga ko'ra:

– tijorat banklarining kreditlari sifatiga ko'ra «standart», «substandart», «qoniqarsiz», «shubhali» va «umidsiz» toifalarga tasniflanadi;

– tijorat banking kreditlari «standart» deb tasniflanganda bir foiz; «substandart» deb tasniflanganda o'n foiz; «qoniqarsiz» deb tasniflanganda yigirma besh foiz; «shubhali» deb tasniflanganda ellik foiz; «umidsiz» deb tasniflanganda yuz foiz miqdorda bank xarajati hisobidan xazira shakllantiriladi;

<sup>76</sup> O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011 y., 40-son, 412-modda; 2013 y., 18-son, 233-modda; 2015 y., 33-son, 439-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.03.2019 y., 03/19/531/2799-son; 07.01.2020 y., 03/20/600/0023-son; 15.01.2020 y., 03/20/602/0052-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son; 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son, 14.03.2022 y., 03/22/759/0213-son, 21.04.2022 y., 03/22/765/0332-son; 07.02.2024 y., 03/24/905/0106-son; 05.03.2025 y., 03/25/1043/0217-son.

<sup>77</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2024 yil 9 noyabrda 34/5-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining likvidligini favqulodda qo'llab-quvvatlash uchun kreditlar ajratish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024 yil 10 dekabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3581)//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.12.2024 y., 10/24/3581/1020-son.

– standart kreditlarga yaratiladigan zaxiralar sifati standart deb tasniflangan jami aktivlar qoldig'iga nisbatan har oyning yakuniga qadar milliy valyutada shakllantiriladi;

– belgilangan me'yorlarga muvofiq yaratilgan zaxiraga nisbatan kredit bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar miqdorining oshib ketishi mumkinligidan dalolat beruvchi omillar va sharoitlar aniqlanganda, zaxiraga ehtimoliy yo'qotishlarga nisbatan yirik ajratmalar amalga oshirilishi kerak;

– kreditning hisobdan chiqarilishi uning qisman yoki to'liq qaytarilishi mumkinligini inkor etmaydi.

– agar kredit sifati «standart» deb tasniflanmagan bo'lsa, tijorat banki qarzdorga ehtimoliy yo'qotishlari bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilikning batafsil tahlilisi qo'shimcha kredit mablag'lari, joriy kredit bo'yicha qo'shimcha resurslar yoki yangi kreditlar shaklida mablag'lar berishi mumkin emas;

– tijorat bankida kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining yetarli darajada bo'lishini ta'minlash uchun to'liq javobgarlik tijorat banki Kengashi va Boshqaruviga yuklatiladi;

– Ichki audit xizmati va tijorat banki Boshqaruvi har chorakda balansdan tashqari moddalariga o'tkazilgan «umidsiz» aktivlarni undirish bo'yicha qo'llanayotgan chora-tadbirlar haqida tijorat banki Kengashiga yozma ravishda ma'lumot berishlari shart.

– tijorat banki Kengashi moliyaviy yil yakuni bo'yicha bank aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga bankning «umidsiz» aktivlarini undirish bo'yicha qo'llangan chora-tadbirlar haqidagi masalani kiritadi.

– Hukumatning qaroriga ko'ra markazlashtirilgan resurslar yoxud boshqa mablag'lar hisobidan berilgan kreditlar hisobidan shakllangan «umidsiz» aktivni balans hisobvaraqlaridan balansdan tashqari moddalarga o'tkazilishi Hukumat yoxud Markaziy bank oldidagi qarzlarning bekor qilinishiga olib kelmaydi va tijorat banki tomonidan Hukumat yoxud Markaziy bank oldidagi qarzlarni qaytarilishi shart;

– agar qarzdor tomonidan balansdan tashqari moddalarda hisobga olinadigan aktiv bo'yicha qarz tijorat banki tomonidan ushbu qarzni undirish bo'yicha ko'rilgan barcha chora-tadbirlarga qaramasdan, u bu hisobvaraqlarga o'tkazilgandan keyin besh yil davomida to'lanmasa yoki bank ushbu aktivdan voz kechsa, u holda ushbu aktiv (asosiy qarzlarni ham, foizlarni ham) tijorat banki Kengashining tavsiyasi asosida aksiyadorlar umumiy yig'ilishida tasdiqlangan qaroriga ko'ra hisobdan chiqarilishi mumkin<sup>78</sup>.

<sup>78</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvinin 2015 yil 13 iyundagi 14/5-sonli (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 14 iyulda 2696-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) «Tijorat banklarida aktivlar sifati tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi» qarori/O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2015. – №28. – 22-33-b.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvinin 2023 yil 7 martdagi 4/11-sonli qarori (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023 yil 18 aprelda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3427) bilan tasdiqlangan «Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risida»gi yo'riqnomaga ko'ra, tijorat bankida kredit tavakkalchiligini boshqarish tizimi quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

- kredit tavakkalchiligi bo'yicha o'rnatilgan risk-appetitni;
- kredit siyosati hamda kredit tavakkalchiligini boshqarish jarayonlarini;
- kredit ajratishga doir qarorlar qabul qilish jarayonini;
- aktivlar sifati tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish jarayonini;
- muammoli aktivlarni aniqlash va ular bilan ishlash tartibini;
- kredit tavakkalchiligini stress-testdan o'tkazish tartibini;
- kapital monandligini baholash bo'yicha ichki jarayonlarni (ICAAP) (joriy qilingan bo'lsa);
- kredit tavakkalchiligi bo'yicha hisobot berish jarayonini<sup>79</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvinin 2020 yil 21 sentabrda 21/12-sonli Qarori (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020 yil 29 oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3283) bilan tasdiqlangan «Bir qarz oluvchi, o'zaro aloqador qarz oluvchilar guruhi, shu jumladan bankka aloqador shaxslar uchun tavakkalchilikning eng ko'p miqdori to'g'risida»gi nizomga ko'ra:

– bankning bir qarz oluvchi yoki o'zaro aloqador qarz oluvchilar guruhi uchun tavakkalchilikning eng ko'p miqdori bank birinchi darajali kapitalining 25 foizidan oshmasligi kerak;

– bankning bir qarzdor yoki o'zaro aloqador qarzdorlar guruhiga to'g'ri keluvchi ta'minotsiz (ishonchga asoslangan) kredit uchun tavakkalchilikning eng ko'p miqdori bank birinchi darajali kapitalining 5 foizidan oshmasligi zarur;

– bankning barcha yirik tavakkalchiliklarining umumiy miqdori bank birinchi darajali kapitalining 5 barobaridan oshmasligi lozim;

– bankka aloqador shaxslarga quyidagilar kiradi:

\*bankning kuzatuv kengashi va boshqaruvinin a'zolari hamda bosh bankda tashkil etilgan qo'mitalarning (bank tavakkalchiliklarini boshqarishga mas'ul bo'lmagan qo'mitalar bundan mustasno) bankning boshqaruv organlari a'zolari bo'lmagan a'zolari, shuningdek bankning muhim ahamiyatga ega xodimlari;

<sup>79</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvinin 2023 yil 7 martdagi 4/11-sonli Qarori (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023 yil 18 aprelda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3427). Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risida//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2023 y., 10/23/3427/0218-son; 24.01.2025 y., 10/25/3427-1/0066-son.

\*bevosita yoki bilvosita, yakka tartibda yoki shaxslar guruhi tarkibida birgalikda faoliyat ko'rsatuvchi, bankda hal qiluvchi egalikka ega bo'lgan jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar, shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdorlar. Agar mazkur jismoniy shaxslarning yaqin qarindoshlari bankning ustav kapitalidagi ulushlarga egalik qilsa yoki egalikni nazorat qilsa, uning miqdoridan qat'i nazar, ushbu ulush mazkur shaxsning egaligida va nazorati ostida deb hisoblanadi;

\*bank ustav kapitalida hal qiluvchi egalikka ega bo'lgan yuridik shaxsga nisbatan rahbarlik yoki nazorat qilish vakolatiga ega bo'lgan jismoniy shaxslar;

\*banklar guruhiga kiruvchi moliyaviy institutlar;

\*banklar guruhiga kiruvchi moliya institutining kapitalida hal qiluvchi egalikka ega bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar;

\*banklar guruhiga kiruvchi moliya institutining kuzatuv kengashi, boshqaruvi a'zolari va muhim ahamiyatga ega xodimlari;

\*ustav fondida (ustav kapitalida) banklar guruhining asosiy banki kamida 20 foizga bevosita yoki bilvosita egalik qiluvchi yuridik shaxs. shuningdek ushbu yuridik shaxsning mansabdor shaxslari;

\*yuridik shaxs va uning mansabdor shaxslari, basharti ushbu yuridik shaxsning ustav kapitalida (ustav fondida) bank kamida 20 foizga bevosita yoki bilvosita egalik qilsa;

\*bank ustidan nazoratni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar ustav kapitalida (ustav fondida) kamida 20 foizga bevosita yoki bilvosita egalik qiluvchi yuridik shaxs;

\*bank ustav kapitalida hal qiluvchi egalikka ega bo'lgan yuridik shaxs ustidan nazoratni amalga oshirayotgan shaxslar;

\*jismoniy shaxsning yaqin qarindoshlari, shuningdek jismoniy shaxslar va (yoki) ularning yaqin qarindoshlari o'zida nazoratni amalga oshirayotgan yoki ustav fondlariga (ustav kapitalariga) egalik qilayotgan yoki boshqaruv organining a'zolari bo'lgan yuridik shaxslar;

\*manfaatlarini ko'zlab bank bilan qaysi shaxslar orqali bitim amalga oshiriladigan bo'lsa, o'sha shaxslar va mazkur shaxslar o'rtasida qonunchilik hujjatlarida belgilangan mehnatga oid, fuqarolik yoki boshqa munosabatlar mavjudligi tufayli mazkur shaxslarning ta'siri ostida deb hisoblanadigan shaxslar<sup>80</sup>.

<sup>80</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2020 yil 21 sentabrda 21/12-sonli Qarori (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020 yil 29 oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3283) "Bir qarz oluvchi, o'zaro aloqador qarz oluvchilar guruhi, shu jumladan bankka aloqador shaxslar uchun tavakkalchilikning eng ko'p miqdori to'g'risida"gi nizomni tasdiqlash haqida//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.10.2020 y., 10/20/3283/1470-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021 y., 10/21/3313/0724-son; 17.07.2023 y., 10/23/1737-3/0487-son; 14.11.2024 y., 10/24/3283-1/0920-son.

E'tirof etish joizki, bankka daxldor shaxslar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarga nisbatan cheklovlar o'rnatish Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan samarali bank nazorati prinsiplaridan biridir.

### 3.2-§. Banklarning depozit operatsiyalari

Depozitlar tijorat banklari resurslarining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Xalqaro bank amaliyotida transaksion depozitlar tijorat banklari uchun resurs manbai hisoblanmaydi. Shuning uchun, banklarga transaksion depozitlarning faqat barqaror qoldig'idan resurs sifatida foydalanishga ruxsat etiladi.

Biz quyida dissertatsion tadqiqotning ob'ekti bo'lgan tijorat banklari misolida depozit operatsiyalarining amaldagi holatiga baho beramiz.

3.1-jadval

AT "Asakabank" depozitlarining miqdori va tarkibi<sup>81</sup>

Ko'rsatkichlar	Yillar						
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Jami depozitlar miqdori (mlrd so'm)	6769,5	9004,0	9704,8	10729,3	14431,1	15485,3	15851,7
Talab qilib olinguncha depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'i, %	50,5	40,0	37,2	32,7	23,0	18,8	17,7
Muddatli depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'i, %	49,5	49,9	62,8	67,3	77,0	81,2	82,3

3.1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan aniq ko'rish mumkinki:

\*Asakabankda 2018-2024 yillarda depozitlarning miqdori o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan;

\*tahlil davrida talab qilib olinguncha depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'i pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan va 2022 yildan boshlab depozit bazaning yetarliligi ta'minlangan. Bu esa, Asakabankning depozit operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

<sup>81</sup> Jadval muallif tomonidan AT "Asakabank"ning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

3.2-jadval

"O'zmilliybank" AJning depozitlarining miqdori va tarkibi<sup>82</sup>

Ko'rsatkichlar	Yillar						
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Jami depozitlar miqdori (mlrd so'm)	11741,2	15283,8	17194,4	22082,8	38156,7	32920,1	36839,2
Talab qilib olinguncha depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'i, %	72,0	57,4	60,5	53,7	69,3	44,4	39,4
Muddatli depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'i, %	28,0	42,6	39,5	46,3	30,7	55,6	60,6

3.2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki:

\*O'zmilliybankda 2018-2024 yillarda depozitlarning miqdori o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan;

\* 2018-2021 yillarda O'zmilliybank depozitlarining umumiy hajmida talab qilib olinadigan depozitlarning salmog'i pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Biroq, ushbu ko'rsatkichning darajasi 2022 yilda 2021 yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. 2022-2024 yillarda esa, O'zmilliybank depozitlarining umumiy hajmida talab qilib olinadigan depozitlarning salmog'i pasayish tendensiyasi kuzatilgan;

\* 2018-2021 yillarda O'zmilliybank depozitlarining umumiy hajmida muddatli depozitlarning salmog'i oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Biroq, ushbu ko'rsatkichning darajasi 2022-2024 yillarda mazkur ko'rsatkichning darajasi pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan.

<sup>82</sup>Jadval muallif tomonidan "O'zmilliybank" AJning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan

3.3-jadval

## AT Agrobankning depozitlarining miqdori va tarkibi

Ko'rsatkichlar	Yillar						
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Jami depozitlar miqdori (mlrd so'm)	2650,7	5454,3	9037,5	11838,9	12549,7	15389,0	19468,9
Talab qilib olinguncha depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'i, %	31,9	21,3	16,2	19,7	20,0	12,8	12,7
Muddatli depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'i, %	68,1	78,7	83,8	80,3	80,0	87,2	87,3

3.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki:

\* Agrobankda brutto depozitlarning miqdori 2018-2024 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan;

\* Agrobankda talab qilib olinguncha depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'i 2018-2020 yillarda va 2022-2024 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, bankning depozit operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi;

\* Agrobankda muddatli depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'i 2018-2020 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, bankning depozit operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Shuningdek, ushbu ko'rsatkichning darajasi 2024 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan.

E'tirof etish joizki, tahlil qilingan davr mobaynida Agrobankda depozit bazaning yetariligi 2019-2024 yillarda ta'minlangan, ya'ni ushbu davrda talab qilib olinguncha depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'i 30 foizdan past bo'lgan.

3.4-jadval  
AT Asaka bank depozitlarining majburiyatlarga nisbatan darajasi<sup>83</sup>

Ko'rsatkichlar	Yillar						
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Jami majburiyatlar miqdori (mlrd so'm)	28187,1	28645,0	39092,8	44299,6	44661,5	51346,3	50077,2
Depozitlarning majburiyatlarga nisbatan darajasi, %	24,1	31,4	24,8	24,2	32,3	30,2	31,7

3.4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki:

\*Asakabankda majburiyatlarning jami miqdori 2018-2023 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan, lekin 2024 yilda 2023 yilga nisbatan sezilarli darajada kamaygan. Bu esa, mazkur davrda xorijiy banklardan jalb qilingan kreditlar miqdorining oshganligi bilan izohlanadi.

\*Asakabankda depozitlarning majburiyatlarga nisbatan darajasi 2019-2021 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda xorijiy banklardan jalb qilingan kreditlarning majburiyatlar hajmidagi salmog'ini oshganligi bilan izohlanadi.

\*Asakabankda depozitlarning majburiyatlarga nisbatan darajasi 2024 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, respublikamizning yirik tijorat banklari Hukumatning o'ziga xos iqtisodiy agenti rolini bajaradi, ya'ni iqtisodiyotning real sektorida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda faol ishtirok etishadi. O'z navbatida, investitsiya loyihalarining eng katta qismi xalqaro kreditlar va xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtiriladi. Shu sababli, davlat banklarining majburiyatlari tarkibida xorijiy banklardan jalb qilingan xalqaro kreditlar nisbatan yuqori salmoqni egallaydi.

Biz quyida O'zmilliy bank depozitlarining majburiyatlarga nisbatan darajasiga baho beramiz.

<sup>83</sup> Jadval muallif tomonidan AT "Asakabank"ning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

3.5-jadval  
"O'zmilliybank" AJ depozitlarining majburiyatlarga nisbatan darajasi<sup>84</sup>

Ko'rsatkichlar	Yillar						
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Jami majburiyatlar (mlrd so'm)	50802,6	53463,9	65988,0	75150,7	103540,6	109654,2	116229,7
Depozitlarning majburiyatlarga nisbatan darajasi, %	23,1	28,6	26,1	29,4	36,9	30,0	31,7

3.5-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar yaqqol ko'rsatadiki:

\* O'zmilliy bank majburiyatlarining miqdori 2018-2024 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan:

\* O'zmilliy bank majburiyatlariga nisbatan depozitlarning darajasi 2020-2022 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, ushbu ko'rsatkichning darajasi 2024 yilda 2018 yilga nisbatan yuqori sur'atda oshgan.

3.6-jadval  
AT "Agrobank" depozitlarining majburiyatlarga nisbatan darajasi

Ko'rsatkichlar	Yillar						
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Jami majburiyatlar miqdori (mlrd so'm)	8148,8	13860,8	25839,9	30625,0	43562,9	54402,8	66977,0
Depozitlarning majburiyatlarga nisbatan darajasi, %	32,5	39,4	35,0	38,7	28,8	28,3	29,1

3.6-jadval ma'lumotlaridan aniq ko'ringayki:

\* Agrobank majburiyatlarining miqdori 2018-2024 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan:

\* Agrobank majburiyatlariga nisbatan depozitlarning darajasi 2019 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan, biroq, 2022 yilda 2021 yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan. Buning ustiga, ushbu ko'rsatkichning darajasi 2024 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan. Bu esa, mazkur davrda xorijiy

<sup>84</sup> Jadval muallif tomonidan "O'zmilliybank" AJning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

banklardan jalb qilingan kreditlarning majburiyatlar hajmidagi salmog'ini oshganligi bilan izohlanadi.



3.1-rasm. AT "Asaka bank", "O'zmilliybank" AJ va AT "Agrobank"da muddatli depozitlarga to'langan foizlarning jami foizli xarajatlardagi salmog'i, %<sup>85</sup>.

3.1-rasm ma'lumotlaridan aniq ko'rinadiki:

\*Asakabankda muddatli depozitlarga to'langan foizlarning jami foizli xarajatlardagi salmog'i 2018 – 2020 yillarda pasayish tendensiyasiga, 2020-2022 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan;

\*O'zmilliybankda muddatli depozitlarga to'langan foizlarning jami foizli xarajatlardagi salmog'i 2020-2022 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan, biroq, 2024 yilda 2023 yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan;

\*Agrobankda muddatli depozitlarga to'langan foizlarning jami foizli xarajatlardagi salmog'i 2019 yilda 2018 yilga nisbatan yuqori sur'atda oshgani holda, 2024 yilda 2023 yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan.

Depozit bazaning yetarliligi tijorat banklarining raqobatbardoshligini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari depozit bazasining yetarliligi baholashda Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan metodikadan keng foydalaniladi. Mazkur metodikaga ko'ra, tijorat bankining depozit bazasining yetarliligi aniqlash uchun transaksion depozitlar summasi jami depozitlar summasiga bo'linadi va olingan natija 100 foizga ko'paytiriladi<sup>86</sup>.

<sup>85</sup> Rasm muallif tomonidan Asakabank, O'zmilliy bank va Agrobankning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan

<sup>86</sup> Ruzmetov Sh B. O'zbekiston tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlash yo'llari. I f n. ilm dar ol uch taqd et. d.iss avtoref. – Toshkent, 2009. – 18 b.

Dunyo bank amaliyotida tijorat banklari depozit bazasining yetarliligini baholashda keng qo'llanilayotgan yana bir metodika mavjud bo'lib, u AQSh bank nazorati organlari tomonidan ishlab chiqilgan<sup>87</sup>. Ushbu metodika bo'yicha tijorat bankining depozit bazasining yetarliligini aniqlash uchun barqaror depozitlar summasi jami depozitlar summasiga bo'linadi va olingan natija 100 foizga ko'paytiriladi. Ushbu ko'rsatkichning eng past me'yoriy darajasi 75 foizni tashkil etidi. Bunda, barqaror depozitlar - bu muddatli depozitlar, jamg'arma depozitlar va transaksion depozitlarning kamaymaydigan qoldig'ini yig'indisidir.

Tijorat banki depozit bazasining yetarli bo'lishi uning ssuda kapitallari bozoridagi mavqeini ko'rsatuvchi o'ziga xos indikator hisoblanadi.

Respublikamiz tijorat banklarining 1 yilgacha muddatdagi milliy valyutadagi depozitlarining o'rtacha yillik foiz stavkasi 2017-2019 yillarda hamda 2021-2023 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda milliy valyutadagi qisqa muddatli kreditlarning foiz stavkalarini yuqori bo'lganligi bilan izohlanadi va banklarning depozit operatsiyalarini rivojlantirish ta'minlash nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

Respublikamiz tijorat banklarining 1 yildan ortiq muddatdagi milliy valyutadagi depozitlarining o'rtacha yillik foiz stavkasi 2020-2023 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda milliy valyutadagi uzoq muddatli kreditlarning foiz stavkalarini yuqori bo'lganligi bilan izohlanadi va banklarning depozit operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

Respublikamiz tijorat banklarining 1 yilgacha muddatdagi xorijiy valyutadagi depozitlarining o'rtacha yillik foiz stavkasi 2017-2021 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda xorijiy valyutalardagi depozitlarning taklifini ko'payganligi bilan izohlanadi.

Respublikamiz tijorat banklarining 1 yildan ortiq muddatdagi xorijiy valyutadagi depozitlarining o'rtacha yillik foiz stavkasi 2021-2023 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan.

### 3.3-§. Tijorat banklarining ssuda operatsiyalari

Tijorat banklarining kredit operatsiyalarini rivojlantirish bevosita mijozlarning kreditlardan foydalanish darajasini oshirishga bog'liq. O'z navbatida, mijozlarning tijorat banklarining kreditlaridan foydalanish darajasini oshirish kreditlarning bahosiga, ya'ni foiz stavkalarining darajasiga bog'liq. Tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarining darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, mijozlarning

<sup>87</sup> Supervision and Regulation. CAMELS rating system. <https://www.federalreserve.gov>.

tijorat banklarining kreditlaridan foydalanish darajasi shunchalik past bo'ladi. Aksincha, kreditlarning foiz stavkalarining darajasini past va barqaror bo'lishi mijozlarning tijorat banklarining kreditlaridan foydalanish darajasini oshirish imkonini beradi.

Quyidagi jadval ma'lumotlari orqali respublikamiz tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarining darajasiga baho beramiz.

**3.7-jadval**  
**O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlarining o'rtacha yillik foiz stavkalari<sup>88</sup>, foizda**

Ko'rsatkichlar	Yillar						
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Milliy valyutadagi qisqa muddatli (1 yilgacha) kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi	15,5	21,1	23,6	22,1	21,3	22,2	23,1
Milliy valyutadagi uzoq muddatli (1 yildan ortiq) kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi	13,8	20,9	23,8	22,5	20,6	21,7	22,4
Xorijiy valyutadagi qisqa muddatli kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi	8,7	6,8	8,1	6,7	7,0	6,7	8,8
Xorijiy valyutadagi uzoq muddatli kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi	5,6	5,6	6,9	7,0	6,5	6,6	8,4

3.7-jadval ma'lumotlaridan ko'ringayki, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan milliy valyutada berilgan qisqa muddatli kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi 2018-2020 yillarda hamda 2022-2024 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda tijorat banklarining 1 yilgacha muddatdagi milliy valyutadagi depozitlarining o'rtacha yillik foiz stavkasini oshish tendensiyasiga ega bo'lganligi bilan izohlanadi.

3.7-jadvaldan aniq ko'rinadurki, respublikamiz tijorat banklari tomonidan milliy valyutada berilgan uzoq muddatli kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi 2022-2024 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda 1 yildan ortiq muddatdagi milliy valyutadagi depozitlarining o'rtacha yillik foiz stavkasini oshish tendensiyasiga ega bo'lganligi va inflyatsiya darajasini nisbatan yuqori bo'lganligi bilan izohlanadi.

<sup>88</sup> Jadval muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan.

3.7-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, mamlakat tijorat banklari tomonidan xorijiy valyutada berilgan qisqa muddatli kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi 2024 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada (0,1 f.p.) oshgan.

3.7-jadvaldan aniq ko'rinadiki, respublikamiz tijorat banklari tomonidan xorijiy valyutada berilgan uzoq muddatli kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi 2024 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Bu esa, mazkur davrda xorijiy valyutadagi uzoq muddatli depozitlarning o'rtacha yillik foiz stavkasini sezilarli darajada oshganligi bilan izohlanadi.

Qayd etish joizki, respublikamiz tijorat banklari tomonidan milliy valyutada berilgan kreditlarning foiz stavkalarini yuqori ekanligi milliy valyutadagi depozitlarning foiz stavkalarini yuqori ekanligi, inflyatsiya darajasi va Markaziy bankning asosiy stavkasini yuqori ekanligi kabi omillarning mavjudligi bilan izohlanadi.

**3.8-jadval**  
**AT Asakabank aktivlari, kreditlarining miqdori va darajasi<sup>89</sup>**

Ko'rsatkichlar	Yillar						
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Brutto aktivlar, mlrd. so'm	30355,1	34892,0	45518,5	50804,4	51180,4	58014,4	58092,9
Brutto kreditlar, mlrd. so'm	24750,4	29442,0	34122,3	37685,4	36741,7	39213,3	38717,3
Kreditlarning brutto aktivlarga nisbatan darajasi, %	81,5	84,4	75,0	74,2	71,8	67,6	66,6

3.8-jadval ma'lumotlaridan aniq ko'rinadiki:

\*Asakabankning brutto aktivlari va brutto kreditlarining miqdori 2018-2024 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan;

\*Asakabankning kreditlarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2018-2024 yillarda juda yuqori bo'lgan.

<sup>89</sup> Jadval muallif tomonidan AT "Asakabank"ning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

3.9-jadval  
O'zmilliybank AJ aktivlari, kreditlarining miqdori va darajasi<sup>90</sup>

Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Aktivlar	56524,6	66605,0	79861,1	89919,4	119918,1	127502,9	135090,8
Brutto kreditlar	46573,6	54988,6	65597,9	74033,5	89410,1	99423,3	108014,2
Kreditlarning brutto aktivlarga nisbatan darajasi	82,4	82,6	82,1	82,3	74,6	78,0	80,0

3.9-jadval ma'lumotlaridan aniq ko'rinadiki:

\*O'zmilliybankning brutto aktivlari va brutto kreditlarining miqdori 2018-2024 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan;

\*O'zmilliybank kreditlarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2018-2024 yillarda juda yuqori bo'lgan. Bu esa, uning qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning brutto aktivlarga nisbatan darajasining past ekanligi bilan izohlanadi.

3.10-jadval  
AT Agrobank aktivlari, kreditlarining miqdori va darajasi<sup>91</sup>

Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Aktivlar	10 363,0	18 487,9	31 211,6	39 971,2	53 068,2	66 699,7	79 403,8
Brutto kreditlar	8 624,8	15 864,6	24 996,6	32 258,2	43 846,1	54 483,0	59 436,1
Kreditlarning brutto aktivlarga nisbatan darajasi	83,2	85,8	80,1	80,7	82,6	81,7	74,9

3.10-jadval ma'lumotlaridan aniq ko'rinadiki:


\*Agrobankning brutto aktivlari va brutto kreditlarining miqdori 2018-2024 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan;

\*Agrobank kreditlarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2018-2024 yillarda juda yuqori bo'lgan. Bu esa, uning qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning brutto aktivlarga nisbatan darajasining past ekanligi bilan izohlanadi.

<sup>90</sup> Jadval muallif tomonidan O'zmilliybankning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

<sup>91</sup> Jadval muallif tomonidan Agrobankning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Respublikamizning tijorat banklarida kreditlarning brutto aktivlarga nisbatan darajasini tahlil davrida yuqori bo'lganligi qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning brutto aktivlarga nisbatan darajasining 2018-2024 yillarda past bo'lganligi bilan izohlanadi (3.2-rasm).



3.2-rasm. AT asaka bank, O'zmilliybank AJ va AT Agrobanklarda qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarni brutto aktivlarga nisbatan darajasi, %<sup>92</sup>

3.2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Asakabank, O'zmilliybank va Agrobank aktivlarining umumiy hajmida qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning salmog'i 2018-2024 yillarda juda kichik bo'lgan. Bu esa, mazkur banklarning qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan investitsion operatsiyalarini rivojlanmaganligi bilan izohlanadi.

3.10-jadval

AT Asakabankda kreditlardan olingan foizli daromadlar miqdori va darajasi<sup>93</sup>

Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Kreditlardan olingan foizli daromadlar miqdori (mlrd so'm)	1031,6	1723,8	2136,8	2398,8	2824,2	3728,1	4324,0
Kreditlardan olingan foizli daromadlarni jami foizli daromadlardagi ulushi, %	64,1	67,0	62,7	61,1	87,1	63,6	61,0

3.10-jadval ma'lumotlaridan aniq ko'rinadiki:

\*Asakabankning kreditlardan olingan foizli daromadlarining miqdori 2018-2024 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan;

<sup>92</sup> Rasm muallif tomonidan Asakabank, O'zmilliy bank va Agrobankning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

<sup>93</sup> Jadval muallif tomonidan AT "Asakabank"ning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

\*Asakabankda kreditlardan olingan foizli daromadlarni jami foizli daromadlardagi ulushi 2019-2021 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, mazkur ko'rsatkich 2024 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan. Bu esa, bankning kredit operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

**3.11-jadval**  
**“O‘zmilliybank”da kreditlardan olingan foizli daromadlar miqdori va darajasi<sup>94</sup>**

Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Kreditlardan olingan foizli daromadlar miqdori (mlrd so'm)	2110,6	3311,0	4477,6	4742,8	7140,7	8657,2	10248,4
Kreditlardan olingan foizli daromadlarni jami foizli daromadlardagi ulushi, %	78,8	75,7	75,6	75,0	67,3	67,6	67,5

3.11-jadval ma'lumotlaridan aniq ko'rinadiki:

\*O'zmilliybankning kreditlardan olingan foizli daromadlarining miqdori 2018-2024 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan;

\*O'zmilliybankda kreditlardan olingan foizli daromadlarni jami foizli daromadlardagi ulushi 2018-2022 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, mazkur ko'rsatkich 2024 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan. Bu esa, bankning kredit operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

**3.12-jadval**  
**AT Agrobankda kreditlardan olingan foizli daromadlar miqdori va darajasi<sup>95</sup>**

Ko'rsatkichlar	Yillar						
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Kreditlardan olingan foizli daromadlar miqdori (mlrd so'm)	774,4	1547,9	2692,4	3706,3	4403,2	6702,6	10248,4
Kreditlardan olingan foizli daromadlarni jami foizli daromadlardagi ulushi, %	75,6	68,3	62,8	59,2	56,1	59,3	67,5

<sup>94</sup> Jadval muallif tomonidan O'zmilliybankning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.


<sup>95</sup> Jadval muallif tomonidan Agrobankning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

3.12-jadval ma'lumotlaridan aniq ko'rinadiki:

\*Agrobankning kreditlardan olingan foizli daromadlarining miqdori 2018-2024 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan;

\*Agrobankda kreditlardan olingan foizli daromadlarni jami foizli daromadlardagi ulushi 2018-2022 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, mazkur ko'rsatkich 2024 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan. Bu esa, bankning kredit operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

Tijorat banklarining kredit operatsiyalarining rivojlanish darajasini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri – bu kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi yaratilgan zaxiralarning brutto aktivlarga nisbatan darajasi ko'rsatkichidir.



**3.3-rasm. AT Asaka bank, O'zmilliybank AJ va AT Agrobankda kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi yaratilgan zaxiralarning brutto aktivlarga nisbatan darajasi, %<sup>96</sup>**

3.3-rasmda keltirilgan ma'lumotlardan yaqqol ko'rinadiki:

\*Asakabankda kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi yaratilgan zaxiralarning brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2018-2020 yillarda o'sish tendensiyasiga, 2022-2024 yillarda esa, pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan;

\*O'zmilliybankda kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi yaratilgan zaxiralarning brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2018-2021 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, ushbu ko'rsatkichning darajasi 2024

<sup>96</sup> Rasm muallif tomonidan Asakabank, O'zmilliy bank va Agrobankning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

yilda 2018 yilga nisbatan yuqori sur'atda oshgan. Bu esa, bankning kredit operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi;

\*Agrobankda kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi yaratilgan xaziralarning brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2018-2020 yillarda o'sish tendensiyasiga, 2020-2022 yillarda esa, oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, ushbu ko'rsatkichning darajasi 2024 yilda 2018 yilga nisbatan yuqori sur'atda oshgan. Bu esa, bankning kredit operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

O'z navbatida, kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan xazira ajratmalari darajasining yuqori bo'lishi tasniflangan kreditlar tarkibining yomonlashganligini, ya'ni, tasniflangan kreditlar hajmida shubhali va umidsiz kreditlarning salmog'ini oshishi hisobiga standart kreditlarning salmog'ini pasayganligini ko'rsatadi. Bu esa, kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan xazira ajratmalari miqdorining ko'payishiga olib keladi va shuning asosida, sof foydaning miqdorini kamayishiga sabab bo'ladi. Chunki, kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan xazira ajratmalari summasi to'liq tijorat bankining xarajatiga olib boriladi (xarajatlar tijorat banklarining balansida o'sib boruvchi yakun tarzida hisobga olinadi).

#### Uchinchi bob bo'yicha

Mamlakat tijorat banklarining depozit operatsiyalarining tahlili ko'rsatdiki:

-Asakabankda 2018-2024 yillarda depozitlarning miqdori o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan; tahlil davrida talab qilib olinguncha depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'i pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan va 2022 yildan boshlab depozit bazaning yetariligi ta'minlangan;

-O'zmilliybankda 2018-2024 yillarda depozitlarning miqdori o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan; 2018-2021 yillarda O'zmilliybank depozitlarining umumiy hajmida talab qilib olinadigan depozitlarning salmog'i pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Biroq, ushbu ko'rsatkichning darajasi 2022 yilda 2021 yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. 2022-2024 yillarda esa, O'zmilliybank depozitlarining umumiy hajmida talab qilib olinadigan depozitlarning salmog'i pasayish tendensiyasi kuzatilgan; 2018-2021 yillarda O'zmilliybank depozitlarining umumiy hajmida muddatli depozitlarning salmog'i oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Biroq, ushbu ko'rsatkichning darajasi 2022-2024 yillarda mazkur ko'rsatkichning darajasi pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan;

- Agrobankda brutto depozitlarning miqdori 2018-2024 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan; Agrobankda talab qilib olinguncha depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'i 2018-2020 yillarda va 2022-2024 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan; Agrobankda muddatli depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'i 2018-2020 yillarda oshish tendensiyasiga ega

bo'lgan. Bu esa, bankning depozit operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Shuningdek, ushbu ko'rsatkichning darajasi 2024 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan;

-Asakabankda majburiyatlarning jami miqdori 2018-2023 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan, lekin 2024 yilda 2023 yilga nisbatan sezilarli darajada kamaygan; Asakabankda depozitlarning majburiyatlarga nisbatan darajasi 2019-2021 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda xorijiy banklardan jalb qilingan kreditlarning majburiyatlar hajmidagi salmog'ini oshganligi bilan izohlanadi;

- Asakabankda muddatli depozitlarga to'langan foizlarning jami foizli xarajatlardagi salmog'i 2018 - 2020 yillarda pasayish tendensiyasiga, 2020-2022 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan; O'zmilliybankda muddatli depozitlarga to'langan foizlarning jami foizli xarajatlardagi salmog'i 2020-2022 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan, biroq, 2024 yilda 2023 yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan; Agrobankda muddatli depozitlarga to'langan foizlarning jami foizli xarajatlardagi salmog'i 2019 yilda 2018 yilga nisbatan yuqori sur'atda oshgani holda, 2024 yilda 2023 yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan.

Mamlakat tijorat banklarining ssuda operatsiyalarining tahlili ko'rsatdiki:

- O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan milliy valyutada berilgan qisqa muddatli kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi 2018-2020 yillarda hamda 2022-2024 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda tijorat banklarining 1 yilgacha muddatdagi milliy valyutadagi depozitlarining o'rtacha yillik foiz stavkasini oshish tendensiyasiga ega bo'lganligi bilan izohlanadi;

- respublikamiz tijorat banklari tomonidan milliy valyutada berilgan uzoq muddatli kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi 2022-2024 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda 1 yildan ortiq muddatdagi milliy valyutadagi depozitlarining o'rtacha yillik foiz stavkasini oshish tendensiyasiga ega bo'lganligi va inflyatsiya darajasini nisbatan yuqori bo'lganligi bilan izohlanadi;

- mamlakat tijorat banklari tomonidan xorijiy valyutada berilgan qisqa muddatli kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi 2024 yilda 2018 yilga nisbatan sezilsiz darajada (0,1 f.p.) oshgan;

- respublikamiz tijorat banklari tomonidan xorijiy valyutada berilgan uzoq muddatli kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi 2024 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Bu esa, mazkur davrda xorijiy valyutadagi uzoq muddatli depozitlarning o'rtacha yillik foiz stavkasini sezilarli darajada oshganligi bilan izohlanadi;

-Asakabankning kreditlardan olingan foizli daromadlarining miqdori 2018-2024 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan; Asakabankda kreditlardan olingan foizli daromatlarni jami foizli daromatlardagi ulushi 2019-2021 yillarda pasayish

tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, mazkur ko'rsatkich 2024 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan;

-O'zmilliybankning kreditlardan olingan foizli daromadlarining miqdori 2018-2024 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan; O'zmilliybankda kreditlardan olingan foizli daromadlarni jami foizli daromadlardagi ulushi 2018-2022 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, mazkur ko'rsatkich 2024 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan;

-Agrobankning kreditlardan olingan foizli daromadlarining miqdori 2018-2024 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan; Agrobankda kreditlardan olingan foizli daromadlarni jami foizli daromadlardagi ulushi 2018-2022 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, mazkur ko'rsatkich 2024 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan.

#### IV-BOB. O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT VA SSUDA OPERATSIYALARINING METODOLOGIK VA AMALIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

##### 4.1. Banklarning depozit operatsiyalarining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar

Dissertatsion tadqiqotning uchinchi bobida amalga oshirilgan tahlillar respublikamiz tijorat banklarining depozit va ssuda operatsiyalarining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan bir qator dolzarb muammolarning mavjudligini ko'rsatdi. Ulardan asosiylari sifatida, fikrimizcha, quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Tijorat banklari depozit bazasining yetarililigi ta'minlanmaganligi.

Tadqiqot jarayonida amalga oshirilgan tahlillar ko'rsatdiki, respublikamizning tadqiqot ob'ekti bo'lgan tijorat banklarida 2020-2024 yillarda depozit bazaning yetarililigi ta'minlanmagan, ya'ni talab qilib olinadigan depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'i 30 foizdan yuqoridir.

Dissertatsiyaning birinchi bobida e'tirof utilganidek, xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarining depozit bazasini yetarililigi baholash uchun Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan metodikadan keng foydalaniladi. Ushbu metodikaga ko'ra, tijorat bankining depozit bazasi yetarli bo'lishi uchun talab qilib olinadigan depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'i 30 foizdan oshmasligi kerak.

Fikrimizcha respublikamizning tijorat banklarida depozit bazaning yetarli emasligi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

a) amaldagi bank qonunchiligiga ko'ra, tijorat banklariga mijozlarning talab qilib olinguncha depozit hisob raqamidagi pul ma'lag'laridan to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni ularni muddatli depozit hisobraqamiga olmasdan turib resurs sifatida foydalanishga ruxsat berilgan;

b) jismoniy va yuridik shaxslarning joriy xarajatlarini joriy daromadlarga nisbatan darajasining yuqori ekanligi;

v) inflyatsiya darajasini va milliy valyutaning qadrsizlanish sur'atini nisbatan yuqori ekanligi;

g) tijorat banklarining sof foizli spread ko'rsatkichi darajasining past ekanligi. Tijorat banklariga talab qilib olinadigan depozitlardan to'g'ridan-to'g'ri resurs sifatida foydalanishga ruxsat berilganligi ularni muddatli depozitlar jalb qilishdan manfaatdorligini susaytiradi. Chunki, talab qilib olinadigan depozitlar arzon resurs hisoblanadi. Biroq, talab qilib olinadigan depozitlardan to'g'ridan-to'g'ri resurs sifatida foydalanish tijorat banklarining likvidliliga nisbatan salbiy

ta'sirini yuzaga keltiradi. Buning sababi shundaki, talab qilib olinadigan depozitlar beqaror passiv hisoblanadi.

Inflyatsiya darajasini nisbatan yuqori ekanligi yuridik va jismoniy shaxslarning joriy xarajatlarni joriy daromadlariga nisbatan darajasini yuqori bo'lishiga xizmat qiladi. Bu esa, ularning muddatli depozit hisobraqamlariga mablag'lar joylashtirish imkoniyatini pasaytiradi.

Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida 2023 yildan boshlab inflyatsiyaning yillik darajasini 5 foizdan oshmasligini ta'minlash vazifasi qo'yilgan edi. Biroq, bu vazifani bajarishning imkoni bo'lmadi. 2023 yilda inflyatsiyaning yillik darajasi 8.8 foizni, 2024 yilda esa, 9.8 foizni tashkil qildi.

Milliy valyutaning qadrsizlanish sur'atining yuqori ekanligi milliy valyutadagi depozitlar va ularga to'langan foizlarning real qiymatini pasayishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, tijorat banklarining milliy valyutada depozitlar jalb qilish imkoniyatini pasaytiradi.

Tijoratbanklarida sof foizli spread ko'rsatkichi darajasi past ekanligi talab qilib olinadigan depozitlardan kredit resursi sifatida foydalanilayotganligi bilan izohlanadi. Buning sababi shundaki, respublikamizning tijorat banklari talab qilib olinadigan depozitlardan arzon resurs sifatida foydalanib, ular hisobidan berilgan kreditlardan yuqori foizli daromad oladi. Xolbuki, sof foizli spread ko'rsatkichini hisoblashda talab qilib olinadi.

2. Depozitlarning majburiyatlar tarkibidagi salmog'ini xorijiy banklardan olingan kreditlar hisobiga pasayayotganligi.


Tadqiqotning uchinchi bobida amalga oshirilgan tahlillar ko'rsatdiki, xorijiy banklardan olingan kreditlarning tijorat banklari majburiyatlari tarkibidagi salmog'ini oshishi depozitlarning majburiyatlar tarkibidagi salmog'ini pasayishiga olib kelmoqda. Bu esa, tijorat banklarining depozit operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai nazaridan salbiy holat hisoblanadi. Buning sababi shundaki, birinchidan banklar aro kreditlar nisbatan qimmat resurs hisoblanadi; ikkinchidan, xalqaro kreditlarning katta qismi suzuvchi stavkada olinganligi uchun ular bilan bog'liq bo'lgan foiz riskining darajasi yuqoridir.

3. Depozitlarning kreditli transformatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan muammo.

Ushbu muammoning mohiyati shundaki, birinchidan respublikamizning tijorat banklarida muammoli kreditlarning brutta kreditlarga nisbatan darajasi yuqoridir; ikkinchidan, depozitlarni riskli aktivlarga joylashtirish bo'yicha limitlar o'rnatilmagan. Tadqiqotning birinchi bobida amalga oshirilgan tahlillar ko'rsatdiki, taraqqiy etgan mamlakatlarda depozitlarni riskli aktivlarga joylashtirish bo'yicha limitlar mavjud.

Muammoli kreditlar darajasining yuqori ekanligi resurslarni, shu jumladan depozitlarni qayta tiklanish jarayonini sekinlashtiradi.

Quyidagi rasm ma'lumotlari orqali respublikamiz tijorat banklarining muammoli kreditlari darajasiga baho beramiz.



4.1-rasm. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlarining umumiy hajmida mummoli kreditlarning salmog'i, foizda<sup>97</sup>.

4.1-rasmida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, tahlil qilingan davr mobaynida respublikamiz tijorat banklari kreditlarining umumiy hajmida mummoli kreditlarning salmog'i sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Ayniqsa 2021 yilda ushbu ko'rsatkich o'zining eng yuqori darajasiga yetgan. 2024 yilda mummoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 4 foizni tashkil etgan. Bu esa, xalqaro bank amaliyotida umum e'tirof etilgan me'yoriy talabdan (3%) sezilarli darajada yuqoridir.


4.1-rasmida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, respublikamiz tijorat banklari kreditlarining umumiy hajmida mummoli kreditlarning ulushi 2024 yilda 2020 yilga nisbatan sezilarli darajada (1.9 f.p) oshgan. Bu esa, tijorat banklarining kredit operatsiyalarini rivojlantirish va depozitlarning kreditli transformatsiyasini takomillashtirish nuqtai nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

4. Kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari darajasining yuqori ekanligi.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining ekspertlari tomonidan tavsiya etilgan va xalqaro bank amaliyotida umum qabul qilingan mezonga ko'ra, kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi 1,0 foizdan oshmasligi kerak. Respublikamizning

<sup>97</sup> Rasm muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan.

yirik tijorat banklarida esa, ushbu ko'rsatkichning haqiqatdagi darajasi uning umum e'tirof etilgan me'yoriy darajasidan ancha yuqoridir.



4.2-rasm. Milliy bank va Asakabankda kreditlardan ko'riladigan zararlarini qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi, foizda<sup>98</sup>

4.2-rasm m'lumotlaridan ko'rinadiki, 2020-2024 yillarda Milliy bankda kreditlardan ko'riladigan zararlarini qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi ushbu ko'rsatkichning umume'tirof etilgan me'yoriy darajasidan ancha yuqori bo'lgan. Buning ustiga, mazkur ko'rsatkichning darajasi 2024 yilda 2020 yilga nisbatan yuqori sur'atda oshgan. Ushbu holatlar Milliy bankning kredit operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

4.2-rasm m'lumotlaridan ko'rinadiki, 2020-2024 yillarda Asakabankda kreditlardan ko'riladigan zararlarini qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi ushbu ko'rsatkichning umume'tirof etilgan me'yoriy darajasidan ancha yuqori bo'lgan. Bu esa, Asaka bankning kredit operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

Kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar zaxirasining brutto aktivlarga nisbatan darajasining yuqori bo'lishi tijorat bankining moliyaviy barqarorligiga nisbatan salbiy ta'sirini yuzaga keltiradi. Chunki, ushbu zaxiralar summasi to'liq tijorat bankining xarajatiga olib boriladi.

5. Kreditlash shakllaridan to'laqonli foydalanishning yo'lga qo'yilmaganligi.

<sup>98</sup> Rasm muallif tomonidan milliy bank va Asakabankning moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan

Hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasining bank amaliyotida kreditlashning kontokorrent va forfeyting shakllari umuman mavjud emas, overdraft shakli rivojlanmagan.

Kreditlashning kontokorrent shakli bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, mijozlarning ma'lum toifasi uchun kreditlashning jozibador shakli hisoblanadi.

Kontokorrent kreditlash shaklining o'ziga xos xususiyatlari, fikrimizcha, quyidagilardan iborat:

- kreditlashning ushbu shaklida kredit oluvchining talab qilib olingan depozit hisob raqami vaqtinchalik yopiladi, uning o'rniga kontokorrent hisob raqami ochiladi;

- kredit oluvchining barcha faoliyat turlaridan olinadigan pul mablag'lari kontokorrent hisob raqamining kreditida aks etadi, uning barcha majburiyatlari bo'yicha to'lovlar kontokorrent hisobraqamining debitida aks etadi;

- kontokorrent hisob raqamining kreditli qoldig'i uchun tijorat banki mijozga foiz to'laydi, kontokorrent hisob raqamining debitli qoldig'i uchun mijoz tijorat bankiga foiz to'laydi;

- tijorat banki kredit riskini kamaytirish uchun kredit oluvchidan har oyning so'ngi ish kunida kontokorrent hisobraqamining debitli qoldig'ini ta'minlash talabini qo'yishga haqli.

Kreditlashning forfeyting shakli innovatsion kreditlash shakli hisoblanadi va taraqqiy etgan mamlakatlarning bank amaliyotida keng qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasida tijorat veksellari muomalasi mavjud bo'lmaganligi sababli, hozircha kreditlashning forfeyting shaklini bank amaliyotiga joriy qilishning iloji yo'q. Chunki, kreditlashning forfeyting shakli mol yetkazib beruvchining banki tomonidan uzatma tijorat veksellari regress huquqisiz sotib olishga asoslanadi.

Kreditlashning forfeyting shakliga xos bo'lgan afzalliklar, fikrimizcha, quyidagilardan iborat:

- mol yetkazib beruvchilarning debitor qarzdorligini aylanishini tezlashtiradi;
- uzatma tijorat veksellarini indossament orqali boshqa shaxslarga uzatishning mumkinligi korxonalar o'rtasidagi debitor qarzdorlikni kamaytirish imkonini beradi;

- forfeyting tijorat banklariga qo'shimcha foizli daromad olish imkoniyatini yaratadi;

- kreditlashning forfeyting shakli tijorat banklariga Markaziy bankdan diskont kreditlari olish imkonini beradi.

E'tirof etish joizki, respublikamizda to'lovlarning maqsadli ketma ketligini qo'llanilayotganligi kredit riskini oshishiga sabab bo'lmoqda. Chunki, to'lovlarning

maqsadli ketma ketligida korxonalarining davlat budjeti oldidagi qarzdoligini to'lash birlamchi ahamiyat kasb etadi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda to'lovlarning kalendar ketma ketligi qo'llaniladi. Ushbu ketma ketlikda kredit oluvchining pul oqimini aniq va to'g'ri baholash imkoni mavjud. Chunki, ushbu ketma ketlikda korxonaning qarzdorligi paydo bo'lgan vaqtiga qarab to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotining zamonaviy bosqichida mijozlarni alohida ssuda hisobraqamidan bir marotabalik kreditlash shaklidan keng foydalanilmoqda. Biroq, ushbu shakl jiddiy kamchiliklarga ega. Jumladan, u kreditdan foydalanish samaradorligini oshirishga to'sqinlik qiladi.

6. Kredit riskini baholash va boshqarishni takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar.

Ushbu muammolar majmuiga quyidagilar kiradi:

- yuqori likvidli garov ob'ektlarining yetishmasligi (xalqaro amaliyotda yer maydonlari, hukumatning qimmatli qog'ozlari, to'lovi hukumat tomonidan kafolatlangan korporativ qimmatli qog'ozlar va nodir metallar yuqori likvidli garov ob'ektlari hisoblanadi);

- Bazel qo'mitasi tomonidan taklif etilgan standartlashgan yondashuv mamlakat banklarining kredit riskini baholash amaliyotiga joriy qilinmagan;
- mijozlarning kredit to'loviga layoqatligini baholash tizimida kamchiliklar mavjud.

7. Tijorat banklarida kreditlarning o'sish sur'ati bilan kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning o'sish sur'ati o'rtasida mutanosiblikning mavjud emasligi.

Jahon banki ekspertlarining tavsiyasiga ko'ra, kreditlarning o'sish sur'ati bilan kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash uchun kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'ati kreditlarning o'sish sur'atidan past bo'lmasligi kerak.

Respublikamizning bir qator tijorat banklarida, 2020-2024- yillarda kreditlarning o'sish sur'ati bilan kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlanmaganligi kuzatildi. Ya'ni, tahlil qilingan davr mobaynida kreditlarning o'sish sur'atini kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'atidan yuqori bo'lganligi kuzatildi. Buning asosiy sabablaridan biri-bu davlat banklarining kredit qo'yilmalari hajmida imtiyozli kreditlarning ulushini nisbatan yuqori ekanligidir. Imtiyozli kreditlar davlat resurslari hisobidan past foiz stavkalarida beriladi.

AT "Turon" bankida kreditlar va ulardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'atlari, foizda<sup>99</sup>

Ko'rsatkichlar	2020y.	2021y.	2022y.	2023y.	2024y.
Kreditlarning o'sish sur'ati	156,4	121,9	116,0	126,1	105,6
Kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'ati	153,0	149,3	130,3	116,6	125,9

4.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Turonbankda tahlil qilingan davr mobaynida kreditlarning o'sish sur'ati bilan kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlanmagan. Masalan, 2023 yilda kreditlarning o'sish sur'ati 126.1 foizni tashkil qilgan holda, kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'ati 116.6 foizni tashkil etgan.

8. Tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarini yuqori va beqarorligi.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkalari, foizda<sup>100</sup>

Ko'rsatkichlar	2020y.	2021y.	2022y.	2023y.	2024y.
Milliy valyutadagi kreditlar	22,3	20,8	21,9	23,1	23,8
Xorijiy valyutadagi kreditlar	6,9	6,7	6,7	8,8	9,7

4.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, respublikamiz tijorat banklari tomonidan milliy valyutada berilgan kreditlar o'rtacha yillik foiz stavkasi 2020-2024 yillarda sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Bu esa, tijorat banklarining kredit operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

4.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, mamlakat tijorat banklari tomonidan xorijiy valyutada berilgan kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi 2022-2024 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, xorijiy valyutadagi kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi 2024 yilda 2020 yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Bu esa, tijorat banklarining kredit operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

4.2-§. Tijorat banklarining depozit va ssuda operatsiyalarining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish yo'llari

Fikrimizcha, tijorat banklari ssuda operatsiyalarining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolarni hal qilish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

<sup>99</sup> Jadval muallif tomonidan Turon bankning moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.  
<sup>100</sup> Jadval muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi markaziy bankining statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan.

1. Tijorat banklari depozit bazasining diversifikatsiya darajasini oshirish, depozitlar va riskli aktivlar o'rtasidagi miqdoriy mutanosiblikni ta'minlash va sof foizli spred ko'rsatkichining me'yoriy darajasiga erishish yo'li bilan depozit siyosatini takomillashtirish uchun, birinchidan, jismoniy shaxslardan jalb qilinadigan muddatli depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'ini oshirish hisobidan banklarning depozit bazasining diversifikatsiya darajasini oshirish kerak; ikkinchidan, transaksion depozitlar bilan muddatsiz kassali aktivlar o'rtasidagi muddatli depozitlar bilan yuqori riskli aktivlar o'rtasidagi miqdoriy mutanosiblikni ta'minlash yo'li bilan depozitlarning riskli aktivlarga transformatsiyasini takomillashtirish zarur; uchinchidan, sof foizli spred ko'rsatkichining me'yoriy darajasiga erishish uchun, depozitlarning yetariligidini ta'minlagan holda, kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'ati bilan muddatli depozitlar va banklararo kreditlar bo'yicha foizli xarajatlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash lozim.

O'z navbatida, jismoniy shaxslarning ixtiyoridagi vaqtinchalik bo'sh turgan pul mablag'larini tijorat banklarining muddatli depozit hisobraqamlariga jalb etish hajmini oshirish uchun, birinchidan, jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari va ularga to'langan foizlarning inflyatsiya va devalvatsiya ta'sirida real qiymatining pasayishiga yo'l qo'ymaslik lozim; ikkinchidan, jismoniy shaxslarga muddatli depozitlarga hisoblangan foizlarni kapitallashtirish imkonini berishi kerak; uchinchidan, innovatsion depozit mahsulotlarini jismoniy shaxslarga taklif qilish zarur.


Ta'kidlash joizki, respublikamizda inflyatsiya darajasi va devalvatsiya sur'atining nisbatan yuqori ekanligi muddatli depozitlar va ularga to'langan foizlarning real qiymatini pasayishiga olib kelmoqda. Bu esa, banklarning muddatli depozitlarining investitsion jozibadorligini pasaytiradi.

Shuningdek, mamlakat aholisining real daromad darajasining past ekanligi aholining pul mablag'larini tijorat banklarining muddatli depozit hisobraqamlariga jalb etish ko'lamini kengaytirishga to'sqinlik qilmoqda.

Respublikamizda inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish 2020 yilda boshlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 noyabrdagi PF-5877 – sonli "Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish boshlandi va unga ko'ra inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichi yillar kesimida quyidagicha belgilandi:

\*2021 yilda - 10 foizga;

\*2023 yilda - 5 foizga tushirish<sup>101</sup>.  
Biroq, inflyatsiyaning belgilangan maqsadi ko'rsatkichiga erishishning iloji bo'lmadi (4.3-rasm).



4.3-rasm. O'zbekistonda inflyatsiyaning yillik darajasi<sup>102</sup>, foizda

4.3-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, respublikamizda inflyatsiya darajasi 2020-2024 yillarda yuqori bo'lib, belgilangan maqsadli ko'rsatkichiga erishilmagan.

2. Tijorat banklarining emission operatsiyalarini rivojlantirish asosida barqaror depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'ining umumiy tirof etilgan me'yoriy darajasini ta'minlash uchun, birinchidan, depozit va jamg'arma sertifikatlarining investitsion jozibadorligini ta'minlash kerak; ikkinchidan, barqaror depozitlarning o'sish sur'ati bilan brutto depozitlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash lozim.

Depozit va jamg'arma sertifikatlarining investitsion jozibadorligi investorlar uchun bir qator muhim omillar bilan, shu jumladan, tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan depozit va jamg'arma sertifikatlariga fond bozorida talabning barqarorligi, sertifikatlar bo'yicha pul mablag'larini qaytarishning kafolatlanganlik darajasini aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari va obligatsiyalarinikiga qaraganda yuqori ekanligi kabi omillar bilan belgilanadi.

Shu o'rinda e'tirof etish kerakki, inflyatsiya va jamg'arma sertifikatlarining mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda depozit va jamg'arma sertifikatlarining investitsion jozibadorligini ta'minlash murakkab masala hisoblanadi. Chunki, inflyatsiya darajasini yuqori bo'lishi tijorat banklariga depozit va jamg'arma

<sup>101</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 noyabrdagi PF-5877 – sonli "Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.11.2019 y., 06/19/5877/4036-son.

<sup>102</sup> Rasm muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan.

sertifikatlarining foizini to'lashda inflyatsiya darajasini hisobga olish imkonini bermaydi.

Depozit va jamg'arma sertifikatlari muomalasining o'ziga xos jihatlari shundaki, birinchidan, ular muomala davrining istalgan vaqtida sotib olinishi yoki sotilishi mumkin; ikkinchidan, tijorat banklari depozit va jamg'arma sertifikatlaridan likvidligini boshqarishda foydalanishlari mumkin (turli muddatlardagi, turli summalardagi sertifikatlarni sotib olish va sotish yo'li bilan).

Haqiqatdan ham, taraqqiy etgan mamlakatlarda depozit va jamg'ar ma sertifikatlari tijorat banklarining likvidligini boshqarishning muhim instrumentlari hisoblanadi. AQShlik taniqli iqtisodchi olim J. Sinki yozadi: «ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori rivojlangan va kutilayotgan daromad nazariyasi keng qo'llanilayotgan hozirgi sharoitda tijorat banklari likvidligini ta'minlashda ularning federal fondlar, depozit sertifikatlari kabi aktivlarini sotishdan va repo bitimlaridan keng foydalanilmoqda»<sup>103</sup>.

Hozirgi davrda AQSh bank tizimida depozit sertifikatlarining uch turi qo'llanilmoqda: oddiy depozit sertifikatlari, qaytarib sotib olish huquqini beradigan sertifikatlar (Collable CDs) va brokerlik sertifikatlari (Brokered CDs). Bunda banklarning mijozlari davlat qimmatli qog'ozlariga (T-Bills) qilingan investitsiyalarga qaraganda yuqori daromad oladi. Jumbo deb ataluvchi 100 ming AQSh dollaridan ortiq summaga yozilgan depozit sertifikatlari yana yuqoriroq daromad keltiradi<sup>104</sup>.

Shuningdek, tijorat banklari depozit va jamg'arma sertifikatlaridan aksiya va obligatsiyalarga nisbatan arzon resurs sifatida foydalanish imkoniyatiga egadirlar.

3. Tijorat banklari kredit operatsiyalarining samaradorligini oshirish maqsadida kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'ining yuqori va barqaror darajasini ta'minlash, kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning o'sish sur'ati bilan brutto kreditlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash, innovatsion kredit mahsulotlarini banklarning kreditlash amaliyotiga joriy etish yo'li bilan kreditlardan olinadigan foizli daromadlar miqdorini ko'paytirish zarur.

<sup>103</sup> Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Алпина Паблишер, 2017. – С. 648.

<sup>104</sup> Валенцева, Н.И. Банковское дело: Учебник / О.И. Лаврушина, Н.И. Валенцева, Под ред. О.И. Лаврушина. – М.: КноРус, 2013. – 800 с.



4.4-rasm. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlarining hajmida kreditlar va qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning ulushi<sup>105</sup>, foizda

4.4-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, respublikamiz tijorat banklarining aktivlari hajmida kreditlar 2020-2024 yillarda yuqori salmoqni egallagan. Biroq, kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi ulushi 2024 yilda 2020 yilga nisbatan yuqori sur'atda (6,9 f.p.) pasaygan. Ushbu pasayish mazkur davrda qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning tijorat banklarining brutto aktivlari hajmidagi salmog'ini yuqori sur'atda (5,1 f.p.) oshganligi bilan izohlanadi.

4.4-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, respublikamiz tijorat banklarining aktivlari hajmida qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning ulushi 2020-2022 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgani holda, 2024 yilda 2020 yilga nisbatan yuqori sur'atda oshgan.

Tadqiqotning oldingi paragrafida amalga oshirilgan tahlillar ko'rsatdiki, tadqiqot ob'ekti bo'lgan tijorat banklarida kreditlarning o'sish sur'ati bilan kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlanmagan.

Fikrimizcha, tijorat banklarida kreditlarning o'sish sur'ati bilan kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash uchun, birinchidan, kredit portfelining diversifikatsiya darajasini oshirish kerak; ikkinchidan, kredit riskini boshqarish amaliyotini takomillashtirish yo'li bilan tasniflangan kreditlar tarkibining yomonlashishiga yo'l qo'ymaslik lozim; uchinchidan, kreditlarning baholarini barqarorligiga erishish zarur.

Innovatsion kredit mahsulotlarini banklarning kreditlash amaliyotiga joriy qilish uchun, fikrimizcha, quyidagi tadbirlarni amalga oshirishga e'tiborni kuchaytirish kerak:

<sup>105</sup> Rasm muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan.

\*to'lovlarning maqsadli ketma-ketligining o'miga kalendar ketma-ketligini joriy qilish zarur;

\*innovatsion kredit mahsulotlarining iqtisodiy samaradorligini baholash aniqligini moliyaviy tahlilning operatsion-qiyamat usulidan foydalangan holda oshirish lozim;

\*banklarning kreditlash amaliyotiga zamonaviy portfel nazariyasining talablarini joriy etish zarur;

\*innovatsion kredit mahsulotlarining tannarxini pasaytirish imkoniyatlarini baholash;

\*overdraft va kontokorrent kreditlarini berishda har oyning so'nggi ish kunining oxirida joriy hisobraqamni va kontokorrent hisobraqamining kreditli qoldig'ini ta'minlash talabini qo'yish kerak.

4. Kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari darajasini xalqaro bank amaliyotida umume'tirof etilgan me'yor darajasida bo'lishini ta'minlash maqsadida muammoli kreditlarning brutto kreditlarga nisbatan chegaraviy darajasiga yetishiga yo'l qo'ymaslik, tasniflangan kreditlar tarkibini yaxshilash yo'li bilan substandart va qoniqarsiz kreditlarning tasniflangan kreditlar hajmidagi salmog'ini oshishiga yo'l qo'ymaslik, kreditlar bo'yicha zaxira ajratmalari summasining o'sish sur'atini riskka tortilgan aktivlarning o'sish sur'atidan yuqori bo'lishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

Xalqaro bank amaliyotida muammoli kreditlarning brutto kreditlar hajmidagi salmog'ining chegaraviy darajasini aniqlashda xalqaro tiklanish va taraqqiyot bank ekspertlarining metodikasidan keng foydalaniladi. Ushbu metodikaga ko'ra, muammoli kreditlarning brutto kreditlar hajmidagi salmog'ining chegaraviy darajasi sifatida 5% olingan. O'z navbatida, muammoli kreditlarning brutto kreditlar hajmidagi salmog'ining chegaraviy darajaga yetishining oldini olish maqsadida, birinchidan, muammoli kreditlarni o'z vaqtida qayta tarkiblashni amalga oshirish lozim; ikkinchidan, umumiy pul oqimini baholash asosida kredit to'lovga layoqatligi aniqlanadigan mijozlar guruhini shakllantirish kerak; uchinchidan, muammoli kreditlarning o'sish sur'ati bilan brutto kreditlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash zarur.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarining tasniflangan kreditlari tarkibini yaxshilashda quyidagi usullardan foydalaniladi:

- kredit riskini xedjirlash usuli (kreditli defoltni svop, kreditli opsion, kreditli forvard);

- pul oqimi bo'yicha to'lovga qobilligi yuqori bo'lgan mijozlarga beriladigan kreditlar hajmini oshirish;

- suveren kredit reytingi yuqori bo'lgan mijozlar guruhiga beriladigan xalqaro kreditlarning kredit portfeldagi ulushini oshirish;

- kredit portfelini diversifikatsiya darajasini oshirish (portfelni mijozlarning tarmoq hususiyatiga ko'ra diversifikatsiya qilish; mijozlarning maqomiga ko'ra diversifikatsiya qilish; geografik diversifikatsiya).

5. Banklar faoliyatidagi kredit riskini boshqarish amaliyotini takomillashtirish yo'li bilan muammoli kreditlarning brutto kreditlarga nisbatan umume'tirof etilgan me'yor darajasini (NPLmax = 3,0 %) ta'minlash uchun, birinchidan, investitsion kreditlarning risk darajasini baholashda bazel qo'mitasi tomonidan tavsiya etilgan standartlashgan yondashuvdan foydalanish kerak; ikkinchidan, kredit riskini darajasini oshirishga xizmat qiluvchi risklarning (valyuta riski va likvidlilik riski) risklarning kredit riskiga ta'siri darajasini baholash aniqligini oshirish lozim; uchinchidan, muammoli kreditlar va brutto kreditlar o'rtasidagi miqdoriy mutanosiblikni ta'minlash zarur.

Bazel qo'mitasi kredit riskini baholayotganda muammoli kreditlarni asos sifatida qabul qiladi. Qo'mitaning talablarida muddati o'tganiga 90 kun va undan ortiq bo'lgan kreditlar muammoli kreditlar hisoblanadi.

Muammoli kreditlarni yuzaga kelish sabablarini aniqlash va darajasiga baho berish muammoli kreditlarni boshqarish samaradorligini ta'minlashning muhim jihatlari hisoblanadi. O'z navbatida, muammoli kreditlarning darajasiga baho berishda aniq miqdoriy o'lchamlarga ega bo'lgan ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Jumladan:

- muammoli kreditlarning mo'tadil darajasi (muammoli kreditlarning brutto kreditlarning 3% dan oshmaydigan darajasi);

- muammoli kreditlarning yo'l qo'yish mumkin bo'lgan chegaraviy darajasi (muammoli kreditlarning brutto kreditlarning 5% dan oshmaydigan darajasi);

- kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi.

Kredit riskiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi va uning darajasini oshishiga olib keluvchi asosiy risklar bo'lib, valyuta riski va likvidlilik riski hisoblanadi.

Milliy valyutasining nominal almashuv kursi barqaror bo'lmagan davlatlarda, shu jumladan O'zbekiston Respublikasida valyuta riski tijorat banklarining faoliyatidagi asosiy va dolzarb risklardan biri hisoblanadi. Valyuta riskining chuqurlashishi xorijiy valyutalarda berilgan kreditlarning qaytarilishi qiyinlashtiradi va buning natijasida kredit riskining darajasi oshadi. Shu sababli, valyuta riskining kredit riskiga ta'sirini baholash banklarning kreditlash amaliyotini takomillashtirish nuqtai nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro amaliyotda valyuta riskining kredit riskiga ta'sirini pasaytirish maqsadida forvard valyuta bitimlaridan keng foydalaniladi. Bunda, kredit bergan bank qaytarish grafigi bo'yicha qaytariladigan kreditning asosiy qarz summasi va

foiziga boshqa bank bilan forvard shartnomasi tuzadi. Xorijiy valyutada qaytarilgan summa forvard kursi bo'yicha shartnoma tuzilgan bankka sotiladi.

Likvidlilik riski kredit riskiga bevosita va kuchli ta'sir ko'rsatadi. Tijorat banklarida balanslashmagan likvidlilik riskining chuqurlashishi kreditlarni berilmasligiga olib keladi. Xalqaro bank amaliyotida likvidlilik riskining kredit riskiga ta'sirini pasaytirish uchun quyidagi usullardan foydalaniladi:

- resurslar bilan kreditlar o'rtasidagi miqdoriy mutanosiblikni ta'minlash;
- jalb qilingan resurslar va regulyativ kapitalning bir qismini muddatsi kassali aktivlar shaklida saqlab turish;
- Markaziy bankdan qisqa muddatli kreditlar olish;
- qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish yo'li bilan bankning joriy likvidlilikini boshqarish.

6. Tijorat banklarida kredit riskini boshqarishni takomillashtirish maqsadida kreditli notalardan va kreditli defoltli svoplardan foydalanishni yo'lga qo'yish lozim.

Kreditli notalar xalqaro bank amaliyotida banklar faoliyatidagi kredit riskini boshqarishda keng qo'llaniladi. Kreditli notalar, oddiy kreditlardan farqli ravishda, kichik qismlarga bo'linadi va investorlar o'rtasidagi savdoning ob'ekti hisoblanadi.

Kreditli notalar obligatsiyalardan farqli ravishda emissiya chiqimi kam bo'lgan qimmatli qog'oz hisoblanadi. Ularni birjalarda ruyxatga olish shart emas.

Kreditlar likvidlilik darajasi past bo'lgan aktiv hisoblanadi. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga ko'ra, kreditlar likvidlilik darajasiga ko'ra, tijorat banklarining uchinchi turdagi aktivi hisoblanadi:

- kassali aktivlar (kassadagi naqd pullar, bankning "Nostro" vakillik hisobraqamlaridagi pullar, inkasatsiya jarayonidagi pul mablag'lari);
- qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar;
- berilgan kreditlar;
- asosiy vositalar.

Kredit notalari ana shu likvidlilik darajasi past bo'lgan kreditlarni yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga aylantiradi.

Kreditli svoplar kredit riskini boshqarishning ishonchli vositasi bo'lib, bank kafolatiga juda o'xshab ketadi. Kreditli svoplar bankni kredit riskidan ishonchli himoya qiladi va ularning bahosi kredit oluvchining to'lovga qobilligini o'zgarishiga qarab o'zgarib turadi: agar kredit oluvchining to'lovga qobilligi yuqori bo'lsa, u holda, kreditli svopning bahosi past bo'ladi.

Kredit to'loviga layoqatliligi yuqori bo'lgan mijozlarga berilgan kreditlar bo'yicha kreditli svopning foiz stavkasi bilan kredit to'loviga layoqatliligi past bo'lgan mijozlarga berilgan kreditlar bo'yicha kreditli svopning foiz stavkasi o'rtasidagi farq kreditli spred deyiladi.

Kreditli spred tijorat banklari uchun daromad shakli hisoblanadi. Mijozlarning kredit to'loviga layoqatliligining o'zgarishi kreditli spred shaklidagi daromadning darajasini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

Kreditli defoltli svoplarda kredit hodisasi deganda kredit oluvchining bankrot bo'lishi tushuniladi. Bunda defoltga olib keluvchi sabablar bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

- \*bankrotlik;
- \*muddati o'tgan to'lovlar yoki to'lay olmaslik;
- \*majburiyatlarni bajarilishini jadallashtirish;
- \*majburiyatlarni bajarishdan bosh tortish;
- \*moratoriy.

V. Shavrukning xulosasiga ko'ra, kreditli defoltli svoplar bozorining shiddatli rivojlanishi quyidagi omillar ta'sirida bo'ldi:

\*tarkibiy kreditlashni rivojlanishi – ipoteka kreditlari asosidagi sintetik obligatsiyalarni muomalaga chiqarilishi (kreditli defoltli svoplar yuqori riskli mijozlarning ipotekali kreditlash sxemasida qo'llanilgan);

\*Xalqaro derivativlar va svoplar assotsiatsiyasi tomonidan hujjatlarni standartlashtirilishi bozorining amal qilishi uchun qulay sharoit yaratdi (kreditli defoltli svopning shartlari standartlashtirildi);

\*moliya institutlariga nisbatan regulyator tomonidan risklarni boshqarish bo'yicha talablarning kuchaytirilishi<sup>106</sup>.

### To'rtinchi bob bo'yicha xulosa

Respublikamiz tijorat banklarining depozit va ssuda operatsiyalarining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan quyidagi dolzarb muammolar aniqlandi:

- \*tijorat banklari depozit bazasining yetarliligini ta'minlanmaganligi;
- \*depozitlarning majburiyatlar tarkidagi salmog'ini xorijiy banklardan olingan kreditlar hisobiga pasayayotganligi;
- \*depozitlarning kreditli transformatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan muammo;
- \*kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari darajasining yuqori ekanligi;
- \*kreditlash shakllaridan to'laonli foydalanishning yo'lga qo'yilmaganligi;
- \*kredit riskini baholash va boshqarishni takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar.

<sup>106</sup> Шапрук В. Рынок кредитных дефолтных свопов: возникновение и тенденции развития // Банковский вестник – Минск, 2012. - № 4. – С. 43-51.

\*tijorat banklarida kreditlarning o'sish sur'ati bilan kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning o'sish sur'ati o'rtasida mutanosiblikning mavjud emasligi;

\*tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarini yuqori va beqarorligi.

Tijorat banklarining depozit va ssuda operatsiyalarining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan quyidagi ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Tijorat banklari depozit bazasining diversifikatsiya darajasini oshirish, depozitlar va riskli aktivlar o'rtasidagi miqdoriy mutanosiblikni ta'minlash va sof foizli spred ko'rsatkichining me'yoriy darajasiga erishish yo'li bilan depozit siyosatini takomillashtirish uchun, birinchidan, jismoniy shaxslardan jalb qilinadigan muddatli depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'ini oshirish hisobidan banklarning depozit bazasining diversifikatsiya darajasini oshirish kerak; ikkinchidan, transaksion depozitlar bilan muddatsiz kassali aktivlar o'rtasidagi, muddatli depozitlar bilan yuqori riskli aktivlar o'rtasidagi miqdoriy mutanosiblikni ta'minlash yo'li bilan depozitlarning riskli aktivlarga transformatsiyasini takomillashtirish zarur; uchinchidan, sof foizli spred ko'rsatkichining me'yoriy darajasiga erishish uchun, depozitlarning yetariligidini ta'minlagan holda, kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'ati bilan muddatli depozitlar va banklararo kreditlar bo'yicha foizli xarajatlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash lozim.

2. Tijorat banklarining emission operatsiyalarini rivojlantirish asosida barqaror depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'ining umume'tirof etilgan me'yoriy darajasini ta'minlash uchun, birinchidan, depozit va jamg'arma sertifikatlarining investitsion jozibadorligini ta'minlash kerak; ikkinchidan, barqaror depozitlarning o'sish sur'ati bilan brutto depozitlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash lozim.

3. Tijorat banklari kredit operatsiyalarining samaradorligini oshirish maqsadida kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'ining yuqori va barqaror darajasini ta'minlash, kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning o'sish sur'ati bilan brutto kreditlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash, innovatsion kredit mahsulotlarini banklarning kreditlash amaliyotiga joriy etish yo'li bilan kreditlardan olinadigan foizli daromadlar miqdorini ko'paytirish zarur.

4. Kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari darajasini xalqaro bank amaliyotida umume'tirof etilgan me'yoriy darajasida bo'lishini ta'minlash maqsadida muammoli kreditlarning brutto kreditlarga nisbatan chegaraviy darajasiga yetishiga yo'l qo'ymaslik, tasniflangan kreditlar tarkibini yaxshilash yo'li bilan standart va qoniqarsiz kreditlarning tasniflangan kreditlar hajmidagi salmog'ini oshirishiga yo'l qo'ymaslik, kreditlar

bo'yicha zaxira ajratmalari summasining o'sish sur'atini riskka tortilgan aktivlarning o'sish sur'atidan yuqori bo'lishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

5. Banklar faoliyatidagi kredit riskini boshqarish amaliyotini takomillashtirish yo'li bilan muammoli kreditlarning brutto kreditlarga nisbatan umume'tirof etilgan me'yoriy darajasini (NPLmax = 3,0 %) ta'minlash uchun, birinchidan, investitsion kreditlarning risk darajasini baholashda bazel qo'mitasi tomonidan tavsiya etilgan standartlashgan yondashuvdan foydalanish kerak; ikkinchidan, kredit riskini darajasini oshirishga xizmat qiluvchi risklarning (valyuta riski va likvidlik riski) risklarning kredit riskiga ta'siri darajasini baholash aniqligini oshirish lozim; uchinchidan, muammoli kreditlar va brutto kreditlar o'rtasidagi miqdoriy mutanosiblikni ta'minlash zarur.

6. Tijorat banklarida kredit riskini boshqarishni takomillashtirish maqsadida kreditli notalardan va kreditli defoltli svoplardan foydalanishni yo'lga qo'yish lozim.

## XULOSA

Dissertatsion tadqiqot jarayonida tijorat banklarining depozit-ssuda operatsiyalarini rivojlantirish bo'yicha quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

1. Tijorat banklarining depozit operatsiyalari xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarni qiyosiy va tanqidiy tadqiq qilish ko'rsatdiki:

\* tijorat banklarining depozit operatsiyalarini rivojlantirish bevosita fond indekslarining holatiga va milliy valyutaning nominal almashuv kursining barqarorligiga bog'liq bo'lib, fond indekslarining keskin tushib ketishiga va milliy valyuta kursini pasayib ketishiga olib kelishi obligatsiyalar, depozitlar va xorijiy banklarning kreditlari ko'rinishidagi xorijiy kapitalni mamlakatdan ommaviy qochib chiqib ketishiga olib keladi;

\* tijorat banklari depozitlarini sug'urta qilishning passiv modeli mijozlarga nisbatan tashqi omillarga asoslangan andarraying talablarini hisobga olgan holda, katta sonlar qonuni bazasida aktur tahlilni amalga oshirishning imkonini beradi va mijozlarning kutilayotgan zararlarini qoplash imkonini beradigan mukofot summasini shakllantirish imkonini beradi;

\* talab qilib olinadigan depozitlar barqaror bo'lmaganligi sababi tijorat banklarini ulardan foydalanish sohasi cheklangan, shu sababli, banklar tomonidan talab qilib olinadigan depozitlarga past stavkada foiz to'lanadi. Biroq, talab qilib olinadigan depozitlar arzon resurs bo'lganligi sababli ular yordamida banklar oladigan foydani ko'paytirish imkoniyati yuzaga keladi.

2. Tijorat banklarining ssuda operatsiyalari xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarni tadqiq qilish ko'rsatdiki:

\* tijorat banklarining asosiy faoliyati kreditlarni depozitlar orqali moliyalashtirishdan iborat bo'lgani holda, ilgari banklar faqat moliyaviy resurslarni taqsimlash jarayonida vositachilar sifatida qaralgan bo'lsa, iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida ularni axborot ishlab chiqarish va operatsiyalarni ta'minlash bilan shug'ullanadigan korxonalar, deb hisoblash mumkin;

\* kreditning chegaralarini belgilovchi asosiy omillar bo'lib, quyidagilar hisoblanadi: tovar aylanmasining o'sish sur'ati bilan kreditlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi muvofiqlik; kreditlash turlarining rivojlanganlik darajasi; mablag'larni qaytarish qonunining talablariga rioya qilinishi;

\* tijorat banki faoliyatining moliyaviy natijasi foiz marjasining miqdori bilan belgilangani holda, foiz marjasining miqdori bankning kredit-depozit operatsiyalarining natijasida shakllanadi;

\* depozitlar tijorat banklari uchun muhim resurs manbai bo'lgani holda, depozitlarning kreditli transformatsiyasini takomillashtirishda tijorat banklari tomonidan jalb qilinadigan depozitlarning yetarililigini ta'minlash va ularning risk

darajasi yuqori bo'lgan kredit operatsiyalariga yo'naltiriladigan qismiga nisbatan limitlar belgilash muhim;

\* xalqaro bank amaliyotida, tijorat banklari depozitlarining yetarililigini baholashda ikki metodikadan keng foydalaniladi. Birinchi metodika Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra, tijorat bankining depozit bazasi yetarli bo'lishi uchun transaktsion depozitlarning brutto depozitlardagi ulushi 30 foizdan oshmasligi kerak. Tijorat banklari depozitlarining yetarililigini baholash bo'yicha ikkinchi metodika AQSh banknazorati organlari tomonidan ishlab chiqilgan CAMELS reyting tizimida o'z aksini topgan bo'lib, unga ko'ra, tijorat bankining depozit bazasi yetarli bo'lishi uchun depozitlarning barqaror qoldig'i jami depozitlarning 75 foizidan kam bo'lmashligi kerak;

Bazel-II standartida tavsiya qilingan kredit riskini baholash bo'yicha standartlashgan yondashuvga ko'ra, kredit riskining darajasi kredit oluvchining suveren kredit reytingiga bog'liq ravishda o'rnatiladi. Mijozning suveren kredit reytingi qanchalik yuqori bo'lsa, unga berilgan kreditning risk darajasi shunchalik past bo'ladi.

3. Tijorat banklarining depozit va ssuda operatsiyalarining metodologik asoslarining tahlili ko'rsatdiki:

\* 2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida tijorat banklarining depozit va ssuda operatsiyalarini rivojlantirish bo'yicha quyidagi dolzarb vazifalar belgilangan: banklarning davlat resurslariga qaramligini pasaytirish; banklarning samarali infratuzilmasini yaratish va faoliyatini avtomatlashtirish; kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash; kreditlash hajmlarining mo'tadil o'sishiga amal qilish; muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish; banklarda korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro amaliy tajribaga ega bo'lgan menejerlarni jalb qilish;

\* Markaziy bank tomonidan quyidagi turdagi depozit operatsiyalari amalga oshiriladi: depozit auksioni (foizli va miqdoriy); o'zgarmas foiz stavkasi bo'yicha depozit operatsiyalari;

\* depozit auksioni quyidagi standart shartlar asosida o'tkaziladi: «1 hafta» - muddati yetti kalendar kunidan iborat bo'lgan depozit operatsiyasi; «2 hafta» - muddati o'n to'rt kalendar kunidan iborat depozit operatsiyasi; «1 oy» - muddati bir oydan iborat depozit operatsiyasi; «3 oy» - muddati uch oydan iborat depozit operatsiyasi;

\* banklar o'z moliyaviy hisobotlarini buxgalteriya hisobining hisoblab yozish usuli asosida tuzishlari kerak, bundan pul oqimlari to'g'risidagi hisobot mustasno; foizlar buxgalteriya hisobining hisoblab yozish usuli bo'yicha tan olinadi; haftaning

juma kuni hisoblab yoziladigan foizni hisoblashda odatda uch kun - juma, shanba va yakshanba kunlari uchun foizlar hisobga olinishi lozim; bank omonati (depozit) summasiga foizlar omonat (depozit) bankka tushgan kunning ertasidan boshlab, to u omonatchiga qaytarilgan yoki boshqa asoslarga ko'ra omonatchining hisobvarag'idan o'chirilgan kundan oldingi kungacha yoziladi; omonatlar (depozitlar) bo'yicha foizlar har kuni hisoblab yoziladi; banklar mukofot yoki diskont bilan sotilayotgan moliyaviy vositalar bo'yicha foizlarni hisoblab yozishda yoki shartnoma bo'yicha har oyda foizli to'lovlarni to'lash grafigi ko'rsatilmaganda effektiv foiz stavkasi usulini qo'llashlari lozim; effektiv foiz stavkasi usulini qo'llashda mijozlar tomonidan yoki mijozlarga to'lanadigan foizli to'lovlar muddatlari va summalari hisoblab yozilgan foizlardan farq qilishi mumkin;

"Tijorat banklarining hisob siyosati va moliyaviy hisobotlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizomga ko'ra, banklarning moliyaviy hisobotlari quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

- moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot;
- foydalar va zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot;
- xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot;
- pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot;
- moliyaviy hisobotlarni tushuntiruvchi izohlar.

4. Tijorat banklarining depozit operatsiyalarini rivojlantirish bo'yicha xorij tajribasining tahlili ko'rsatkichi:

- BNP Paribas banki depozitlarining miqdori 2018-2020 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, bank depozitlarining miqdori 2024 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada ko'paygan;

- BNP Paribas banki depozitlarining hajmida talab qilib olinguncha depozitlarning salmog'i 2019-2021 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Lekin depozitlarning hajmida talab qilib olinguncha depozitlarning salmog'i 2021-2024 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan;

- BNP Paribas banki depozitlarining hajmida muddatli depozitlarning salmog'i 2018-2021 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Biroq, depozitlarning umumiy hajmida muddatli depozitlarning salmog'i 2021-2024 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan;

- Deutsche Bank depozitlarining miqdori 2020-2024 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, bank depozitlarining miqdori 2024 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada ko'paygan;

- Deutsche Bank depozitlarining hajmida talab qilib olinguncha depozitlarning salmog'i 2019-2021 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Lekin depozitlarning hajmida talab qilib olinguncha depozitlarning salmog'i 2020-2024 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan;

- Deutsche Bankda muddatli depozitlarga to'langan foizlarning jami foizli xarajatlardagi salmog'i 2018-2020 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda muddatli depozitlarga to'langan foizlar summasining o'sish sur'atini foizli xarajatlarning o'sish sur'atidan yuqori bo'lganligi bilan izohlanadi;

-Deutsche Bankda muddatli depozitlarga to'langan foizlarning jami foizli harajatlardagi salmog'i 2021-2024 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan;

- BNP Paribas bankida muddatli depozitlarga to'langan foizlarning jami foizli xarajatlardagi salmog'i 2020-2024 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan.

5. Tijorat banklarining ssuda operatsiyalarini rivojlantirish bo'yicha xorij tajribasi

- Deutsche Bank aktivlarining miqdori 2024 yilda 2018 yilga nisbatan yuqori sur'atda o'sgan. Bu esa, mazkur davrda brutto kreditlar miqdorining yuqori sur'atda o'sganligi bilan izohlanadi;

- Deutsche Bank aktivlarining umumiy hajmida kreditlarning salmog'i 2018-2022 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, mazkur ko'rsatkichning darajasi 2024 yilda 2018 yilga nisbatan yuqori sur'atda oshgan;

- BNP Paribas banki aktivlarining miqdori 2018-2022 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, aktivlarning miqdori 2024 yilda 2018 yilga nisbatan yuqori sur'atda o'sgan;

- BNP Paribas banki aktivlarining umumiy hajmida kreditlarning salmog'i 2019-2021 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa mazkur davrda qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'ini oshish tendensiyasiga ega bo'lganligi bilan izohlanadi;

- BNP Paribas banki aktivlarining umumiy hajmida kreditlarning salmog'i 2021-2024 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda kreditlarning aktivlar hajmidagi salmog'ining pasayganligi bilan izohlanadi;

- Deutsche bankda qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2018-2021 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda kreditlarning va kassali aktivlarning brutto aktivlarga nisbatan darajasini oshganligi bilan izohlanadi;

- Deutsche bankda qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2022-2024 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan;

- BNP Paribas bankida qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2021-2024 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan;

- Deutsche bankda kreditlardan olingan foizli daromadlar miqdori 2019-2021 yillarda kamayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Biroq ushbu ko'rsatkich 2021-2024 yillarda ko'payish tendensiyasiga ega bo'lgan;

- Deutsche bankda kreditlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlardagi ulushi 2018-2020 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Biroq mazkur ko'rsatkich 2021-2024 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan;

- BNP Paribas bankda kreditlardan olingan foizli daromadlarning miqdori 2019-2021 yillarda kamayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olingan foizli daromadlarning miqdorini oshganligi bilan izohlanadi;

- BNP Paribas bankda kreditlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlardagi ulushi 2018-2021 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda kreditlardan va banklararo depozitlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlardagi ulushini oshganligi bilan izohlanadi.

- BNP Paribas bankda kreditlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlardagi ulushi 2024 yilda 2018 yilga nisbatan pasaygan. Bu esa, mazkur davrda kreditlardan va banklararo depozitlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlardagi ulushini oshganligi bilan izohlanadi.

6. Mamlakat tijorat banklarining depozit operatsiyalarining tahlili ko'rsatkichi:

-Asakabankda 2018-2024 yillarda depozitlarning miqdori o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan; tahlil davrida talab qilib olinguncha depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'i pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan va 2022 yildan boshlab depozit bazaning yetariligi ta'minlangan;

-O'zmilliybankda 2018-2024 yillarda depozitlarning miqdori o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan; 2018-2021 yillarda O'zmilliybank depozitlarining umumiy hajmida talab qilib olinadigan depozitlarning salmog'i pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Biroq, ushbu ko'rsatkichning darajasi 2022 yilda 2021 yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. 2022-2024 yillarda esa, O'zmilliybank depozitlarining umumiy hajmida talab qilib olinadigan depozitlarning salmog'i pasayish tendensiyasi kuzatilgan; 2018-2021 yillarda O'zmilliybank depozitlarining umumiy hajmida muddatli depozitlarning salmog'i oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Biroq, ushbu ko'rsatkichning darajasi 2022-2024 yillarda mazkur ko'rsatkichning darajasi pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan;

- Agrobankda brutto depozitlarning miqdori 2018-2024 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan; Agrobankda talab qilib olinguncha depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'i 2018-2020 yillarda va 2022-2024 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan; Agrobankda muddatli depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'i 2018-2020 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, bankning depozit operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Shuningdek, ushbu ko'rsatkichning darajasi 2024 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan;

-Asakabankda majburiyatlarning jami miqdori 2018-2023 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan, lekin 2024 yilda 2023 yilga nisbatan sezilarli darajada kamaygan; Asakabankda depozitlarning majburiyatlarga nisbatan darajasi 2019-2021 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda xorijiy banklardan jalb qilingan kreditlarning majburiyatlar hajmidagi salmog'ini oshganligi bilan izohlanadi;

- Asakabankda muddatli depozitlarga to'langan foizlarning jami foizli xarajatlardagi salmog'i 2018 - 2020 yillarda pasayish tendensiyasiga, 2020-2022 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan; O'zmilliybankda muddatli depozitlarga to'langan foizlarning jami foizli xarajatlardagi salmog'i 2020-2022 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan, biroq, 2024 yilda 2023 yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan; Agrobankda muddatli depozitlarga to'langan foizlarning jami foizli xarajatlardagi salmog'i 2019 yilda 2018 yilga nisbatan yuqori sur'atda oshgani holda, 2024 yilda 2023 yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan.

7. Mamlakat tijorat banklarining ssuda operatsiyalarining tahlili ko'rsatkichi:

- O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan milliy valyutada berilgan qisqa muddatli kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi 2018-2020 yillarda hamda 2022-2024 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda tijorat banklarining 1 yilgacha muddatdagi milliy valyutada depozitlarining o'rtacha yillik foiz stavkasini oshish tendensiyasiga ega bo'lganligi bilan izohlanadi;

- respublikamiz tijorat banklari tomonidan milliy valyutada berilgan uzoq muddatli kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi 2022-2024 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda 1 yildan ortiq muddatdagi milliy valyutada depozitlarining o'rtacha yillik foiz stavkasini oshish tendensiyasiga ega bo'lganligi va inflyatsiya darajasini nisbatan yuqori bo'lganligi bilan izohlanadi;

- mamlakat tijorat banklari tomonidan xorijiy valyutada berilgan qisqa muddatli kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi 2024 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarsiz darajada (0,1 f.p.) oshgan;

- respublikamiz tijorat banklari tomonidan xorijiy valyutada berilgan uzoq muddatli kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi 2024 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Bu esa, mazkur davrda xorijiy valyutada uzoq muddatli depozitlarning o'rtacha yillik foiz stavkasini sezilarli darajada oshganligi bilan izohlanadi;

-Asakabankning kreditlardan olingan foizli daromadlarning miqdori 2018-2024 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan; Asakabankda kreditlardan olingan foizli daromadlarni jami foizli daromadlardagi ulushi 2019-2021 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, mazkur ko'rsatkich 2024 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan;

-O'zmilliybankning kreditlardan olingan foizli daromadlarining miqdori 2018-2024 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan: O'zmilliybankda kreditlardan olingan foizli daromadlarni jami foizli daromadlardagi ulushi 2018-2022 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, mazkur ko'rsatkich 2024 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan;

-Agrobankning kreditlardan olingan foizli daromadlarining miqdori 2018-2024 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan: Agrobankda kreditlardan olingan foizli daromadlarni jami foizli daromadlardagi ulushi 2018-2022 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, mazkur ko'rsatkich 2024 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan.

8. Respublikamiz tijorat banklarining depozit va ssuda operatsiyalarining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan quyidagi dolzarb muammolar aniqlandi:

\*tijorat banklari depozit bazasining yetarililigini ta'minlanmaganligi;

\*depozitlarning majburiyatlar tarkidagi salmog'ini xorijiy banklardan olingan kreditlar hisobiga pasayayotganligi;

\*depozitlarning kreditli transformatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan muammo;

\*kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari darajasining yuqori ekanligi;

\*kreditlash shakllaridan to'laonli foydalanishning yo'lga qo'yilmaganligi;

\*kredit riskini baholash va boshqarishni takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar;

\*tijorat banklarida kreditlarning o'sish sur'ati bilan kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning o'sish sur'ati o'rtasida mutanosiblikning mavjud emasligi;

\*tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarini yuqori va beqarorligi.

Tijorat banklarining depozit va ssuda operatsiyalarining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish bo'yicha quyidagi natijalarga erishildi:

- tijorat banklari depozit bazasining diversifikatsiya darajasini oshirish, depozitlar va riskli aktivlar o'rtasidagi miqdoriy mutanosiblikni ta'minlash va sof foizli spread ko'rsatkichining me'yoriy darajasiga erishish yo'li bilan depozit siyosatini takomillashtirish uchun jismoniy shaxslardan jalb qilinadigan muddatli depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'ini oshirish hisobidan banklarning depozit bazasining diversifikatsiya darajasini oshirish, transaktsion depozitlar bilan muddatsiz kassali aktivlar o'rtasidagi, muddatli depozitlar bilan yuqori riskli aktivlar o'rtasidagi miqdoriy mutanosiblikni ta'minlash yo'li bilan depozitlarning riskli aktivlarga transformatsiyasini takomillashtirish, sof foizli spread ko'rsatkichining me'yoriy darajasiga erishish uchun, depozitlarning yetarililigini ta'minlagan holda, kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'ati bilan

muddatli depozitlar va banklararo kreditlar bo'yicha foizli xarajatlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash taklif qilindi

- bankklarining emission operatsiyalarini rivojlantirish asosida barqaror depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'ining umume'tirof etilgan me'yoriy darajasini ta'minlash yo'llari (depozit va jamg'arma sertifikatlarining investitsion jozibadorligini ta'minlash barqaror depozitlarning o'sish sur'ati bilan brutto depozitlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash) tavsiya qilindi;

-tijorat banklari kredit operatsiyalarining samaradorligini oshirish maqsadida kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'ining yuqori va barqaror darajasini ta'minlash, kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning o'sish sur'ati bilan brutto kreditlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash, innovatsion kredit mahsulotlarini banklarning kreditlash amaliyotiga joriy etish yo'li bilan kreditlardan olinadigan foizli daromadlar miqdorini ko'paytirish taklifi asoslandi;

- kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari darajasini xalqaro bank amaliyotida umume'tirof etilgan me'yor darajasida bo'lishini ta'minlash yo'llari (muammoli kreditlarning brutto kreditlarga nisbatan chegaraviy darajasiga yetishiga yo'l qo'ymaslik, tasniflangan kreditlar tarkibini yaxshilash yo'li bilan standart va qoniqsiz kreditlarning tasniflangan kreditlar hajmidagi salmog'ini oshishiga yo'l qo'ymaslik, kreditlar bo'yicha zaxira ajratmalari summasing o'sish sur'atini riskka tortilgan aktivlarning o'sish sur'atidan yuqori bo'lishiga yo'l qo'ymaslik) taklifi ishlab chiqildi;

- banklar faoliyatidagi kredit riskini boshqarish amaliyotini takomillashtirish yo'li bilan muammoli kreditlarning brutto kreditlarga nisbatan umume'tirof etilgan me'yoriy darajasini ta'minlash imkoniyatlari (investitsion kreditlarning risk darajasini baholashda bazel qo'mitasi tomonidan tavsiya etilgan standartlashgan yondashuvdan foydalanish, kredit riskini darajasini oshirishga xizmat qiluvchi risklarning (valyuta riski va likvidlilik riski) risklarning kredit riskiga ta'siri darajasini baholash aniqligini oshirish, muammoli kreditlar va brutto kreditlar o'rtasidagi miqdoriy mutanosiblikni ta'minlash) asoslab berildi;

- tijorat banklarida kredit riskini boshqarishni takomillashtirish maqsadida kreditli notalardan va kreditli defoltli svoplardan foydalanishni yo'lga qo'yishning maqsadga muvofiqligi asoslab berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Усокин В.М. Современный коммерческий банк: управление и операции. – М.: Ленанд, 2019. – С.104.
2. Юдина И.В. Банковская система в развивающихся экономиках: опыт становления, развития и кризисов. Монография. – М.: ИНФРА-М, 2013. – С. 122.
3. Синки. Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишер 2017г. – С.880-881.
4. Ильина С.И. Оптимизация и управление бизнес-процессами, влияющими на повышение эффективности деятельности коммерческого банка//Материалы докладов в сборнике научных трудов по материалам конференции (форума) с международным участием International Conference on research Trends in Social Sciences, Education, Humanities, Business and Management Studies - San Francisco, USA - 30.03.2020. - pp.72-75.
5. Кожель Н. О. Оценка факторов влияния на процесс формирования и реализации депозитной политики банка//Проблемы и перспективы развития банковской системы Украины. Сборник научных трудов. 2015. - № 12. - С. 233-234.
6. Горбунова О. А., Кравченко О. В. Обзор стратегии развития рынка ипотечного кредитования с целью увеличения финансовых ресурсов коммерческих банков//Современная парадигма и механизмы экономического роста российской экономики и ее регионов: сборник материалов Всероссийской научно-практической конференции. - Самара, 2019. - С. 71-79.
7. Обьедков А. С., Кравченко О. В. Сберегательная активность населения в современных условиях и ее роль в формировании ресурсной базы коммерческого банка (на примере деятельности ПАО Сбербанк)// Актуальные научные исследования в современном мире. – Москва, 2020. - № 6-3 (62). - С. 217-224.
8. Ткач Н.Д. Депозитные операции коммерческого банка//Вестник Национального института бизнеса. – Москва, 2016. – №4. – С. 180-189.
9. Зиновьева Н. М. Виды банковских депозитов и их особенности//Территория науки. – Ярославль, 2016. – №5. – С. 133-137.
10. Ташкинова А.П. Методы расчета стоимости кредитно-депозитных услуг банка//Экономика и управление в современных условиях: материалы международной научно-практической конференции. Материалы Международной научно-практической конференции Сибирского института бизнеса, управления и психологии. – Красноярск, 2010. – С. 191–195.
11. O'zbekiston Respublikasining 2025 yil 18 fevraldagi O'RQ № 1031-sonli Qonuni. Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi qonuni//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.02.2025 y., 03/25/1031/0160-son.
12. Ларионова И.В. О приведении банковского регулирования в соответствие со стандартами базельского комитета по банковскому надзору

- (Базел - III) в условиях нестабильной экономической ситуации. Монография. – М.: КНОРУС, 2018. – 190 с.
13. Ruzmetov Sh.B. O'zbekiston tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlash yo'llari. I.f.n. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2009. – 18 b.
  14. Abdullaev Yo., Qoraliev T., Toshmurodov Sh., Abdullaeva S. Bank ishi. O'quv qo'llanma –T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2010-yil, -208 bet.
  15. Absalamov Akram Tolliboevich, Majidov Mirzohid Amriddinovich. Uzbekiston banklarida aktiv-passivlarini boshqarish holati. Moliya va Bank ishi Jurnal I (2022), 123-132
  16. Shermuxammedov B.U. Tijorat banklarining depozit siyosati va uni iqtisodiy ahamiyatini yanada oshirish yo'llari/Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. Toshkent, 2021. - №2.
  17. Bektemirov A., Malikova D.M., Bo'taev J. E. Tijorat banklarining depozit bazasini mustahkamlash yo'llari/JMBM. – Toshkent, 2023. - №2.
  18. Shamsiev N.M. Respublikamizda tijorat banklarini depozit operatsiyalarining samaradorligini oshirish masalalari/Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar:nazariya va amaliyot. Masofaviy, onlayn konferensiya. – B.151.
  19. Toymaxammedov I.R. Bank ishi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. – 144 b.
  20. Omonov A.A. Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari. I.f.d. ilm. dar. ol uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2008. – 35 b.
  21. Alimardonov I.M., Bekchanov X.B. Tijorat banklarining tarif siyosatini takomillashtirish yo'llari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. – Toshkent, 2019 y. - № 6, noyabr-dekabr.
  22. Юдина И.В. Банковская система в развивающихся экономиках: опыт становления, развития и кризисов. Монография. – М.: ИНФРА-М, 2013. – С. 122.
  23. Д.Синки Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2007. – 1018 с
  24. Мишкин.Ф.С. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых рынков, 7-е издание: Пер. с англ. – М.:ООО "И.Д. Вильямс", 2006. С-42
  25. Гришина Е.А. Тенденции развития кредитных услуг, предоставляемых коммерческими банками//Финансы и кредит. – Москва, 2016. – №28. – С. 18-27.
  26. Тагирбекова К.Р. Организация деятельности коммерческого банка. – Москва: Вес Мир, 2004. – 848 с.
  27. Панова Г.С. Кредитная политика коммерческого банка. – М.: ИКЦ «ДИС», 1997. – С. 194.

28. Mian A., Rao K., Sufi A. Household Balance Sheets, Consumption, and the Economic Slump//Quarterly Journal of Economics. – 2013. – 128(4). – pp. 1687-1726.
29. Бурова А., Пеникас Г., Попова С. Применение модели вероятности дефолта для оценки прогнозируемого кредитного риска//Денги и кредит. – Москва, 2021. – № 3. – С. 49-72.
30. Lando D., Skodeberg T. Analyzing Rating Transitions and Rating Drift with Continuous Observations // Journal of Banking and Finance. – 2002. – Vol. 26 (2-3). – pp. 423-444.
31. Wei L., Yuan Z. The Loss Given Default of a Low-Default Portfolio with Weak Contagion//Insurance: Mathematics and Economics. – 2016. – Vol. 66. – pp. 113-123.
32. Tasche D. Bayesian Estimation of Probabilities of Default for Low Default Portfolios//Journal of Risk Management in Financial Institutions. – 2013. – Vol. 6(3). – pp. 302-326.
33. Matovnikov M.Yu. Bankovskaya sistema Rossii i dolgosrochnye resursy//Dengi i kredit. – Moskva, 2013. – №5. – S. 19.
34. Jumaev N.X. O'zbekistonda valyuta munosabatlarini tartibga solish metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – B. 26.
35. Bauetdinov M.J. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning investitsion xarajatlarini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish. I.f.b.f.d. diss. – Toshkent, 2019. – 114 b.
36. Xolmamatov F. K. Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda bank xaziralaridan kompleks foydalanish zarurati va amaliyoti//Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – Toshkent, 2023-yil, avgust. № 8-son.
37. H.Xo'jayorov. Tijorat banklarida kreditlash xizmatlari samaradorligini oshirishning mohiyati va iqtisodiy ahamiyati // Ekonomika i finansi (Uzbekistan). 2022. №5
38. Muradova L.F. O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklari aktivlari daromadligini oshirish yo'llari. I.f.b.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – B. 22.
39. Abdullaeva Sh.Z. Bank risklari sharoitida tijorat banklarning kredit portfelini diversifikatsiyalash. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2000.
40. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024 yildag faoliyati bo'yicha hisobot (B.54)//www.cbu.uz
41. Supervision and Regulation. CAMELS rating system. <https://www.federalreserve.gov>.
42. Панова Г.С. Кредитная политика коммерческого банка. – М.: ИКЦ «ДИС», 1997. – С. 194.
43. Basel Committee on banking supervision. International convergence of capital measurement and capital standards. Basel-II, 2006. <http://www.bis.org.publications>.
44. Basel Committee on banking supervision. International convergence of capital measurement and capital standards. <http://www.bis.org.publications>.
45. Симановский А.Ю. Резервы на возможные потери по ссудам: международный опыт и некоторые вопросы методологии//Денги и кредит. – Москва, 2003. – С. 16-25.
46. Barsky R., Justiniano A. and Melosi, L. The Natural Rate of Interest and Its Usefulness for Monetary Policy. American Economic Review, 2014. – 104(5), – P. 37-43.; Juselius M., Borio C., Disyatat P. and Drehmann M. Monetary Policy, the Financial Cycle, and Ultra-Low Interest Rates. International Journal of Central Banking, 2017. – 13(3). – P. 55-89.
47. Wynne M. A. and Zhang R. Estimating the Natural Rate of Interest in an Open Economy. Empirical Economics, 2018. – 55(3). – P. 1291-1318.; Eggertsson, G. B. and Krugman P. Debt, Deleveraging, and the Liquidity Trap: A Fisher-Minsky-Koo Approach. Quarterly Journal of Economics, 2012. – 127(3). – P. 1469-1513.; Caballero R. J. and Krishnamurthy A. A Dual Liquidity Model for Emerging Markets. American Economic Review, 2002. – 92(2). – P. 33-37.
48. Kaplan R.S. The Neutral Rate of Interest. An Essay, 2018. Available at: <https://www.dallasfed.org/media/Documents/news/speeches/kaplan/2018/rsk181024.pdf> [accessed on 2 September 2019].
49. Rey H. Dilemma not Trilemma: The Global Financial Cycle and Monetary Policy Independence. NBER Working Paper, 2018. – N 21162. – P. 1-42.
50. Mendoza E. Real Business Cycles in a Small Open Economy. American Economic Review, 1991. – 81(4). – P. 797-818.; Guo, J.-T. and Janko, Z. (2009). Reexamination of Real Business Cycles in a Small Open Economy. Southern Economic Journal, 2009. – 76(1). – P. 165-182.
51. Laubach T. and Williams J. (2003). Measuring the Natural Rate of Interest. Review of Economics and Statistics, 2003. – 85(4). – P. 1063-1070.
52. Beyer R. C. M. and Wieland V. (2019). Instability, Imprecision and Inconsistent Use of Equilibrium Real Interest Rate Estimates. Journal of International Money and Finance, 2019. – 94. – P. 1-14.
53. O'zbekiston Respublikasining qonuni. Banklar va bank faoliyati to'g'risida//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.11.2019 y., 03/19/580/3994-son; 07.01.2020 y., 03/20/600/0023-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son; 20.04.2023 y., 03/23/831/0219-son; 29.11.2023 y., 03/23/880/0905-son; 07.02.2024 y., 03/24/905/0106-son; 22.02.2024 y., 03/24/911/0142-son.
54. O'zbekiston Respublikasining qonuni. O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.11.2019 y., 03/19/582/4014-son.
55. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-sonli "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank

tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni//QHMMB:06/205992/0581-son. 13.05.2020 y.

56. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2018 yil 22 sentabrdagi 30/13-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari bilan depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.10.2018 y., 10/18/3079/2122-son; 31.12.2020 y., 10/20/3079-1/1701-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021 y., 10/21/3313/0724-son; 13.03.2025 y., 10/25/3079-2/0237-son.

57. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2023 yil 23 avgustdagi 27/4-sonli Qarori. Tijorat banklarida foizlarni hisoblash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.10.2023 y., 10/23/3460/0742-son.

58. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2021 yil 18 noyabrdagi 20/4-sonli Qarori. Tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasini tasdiqlash haqida// Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.11.2021 y., 10/21/3336/1101-son; 01.08.2022 y., 10/22/3377/0696-son; 25.04.2023 y., 10/23/3336-1/0225-son; 12.06.2023 y., 10/23/3442/0359-son; 12.06.2023 y., 10/23/3442/0359-son; 06.02.2024 y., 10/24/3336-2/0100-son.

59. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2021 yil 18 noyabrdagi 20/3-sonli Qarori. Tijorat banklarining hisob siyosati va moliyaviy hisobotlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.11.2021 y., 10/21/3337/1103-son.

60. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentabrdagi PQ-3270-sonli "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.09.2017 y., 07/17/3270/0004; 06.03.2018 y., 06/20/5370/0975-son; 23.07.2019 y., 07/19/4400/3468-son; 27.02.2021 y., 06/21/6179/0165-son.

61. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Garov reestri to'g'risida// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 43-son, 570-modda; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son; 25.10.2023 y., 03/23/871/0797-son; 18.04.2025 y., 03/25/1058/0355-son.

62. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011 y., 40-son, 412-modda; 2013 y., 18-son, 233-modda; 2015 y., 33-son, 439-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.03.2019 y., 03/19/531/2799-son; 07.01.2020 y., 03/20/600/0023-son; 15.01.2020 y., 03/20/602/0052-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son; 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son, 14.03.2022 y., 03/22/759/0213-son, 21.04.2022 y., 03/22/765/0332-son; 07.02.2024 y., 03/24/905/0106-son; 05.03.2025 y., 03/25/1043/0217-son.

63. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2024 yil 9 noyabrdagi 34/5-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan

tijorat banklarining likvidligini favqulodda qo'llab-quvvatlash uchun kreditlar ajratish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024 yil 10 dekabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3581)/Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.12.2024 y., 10/24/3581/1020-son.

64. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015 yil 13 iyundagi 14/5-sonli (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 14 iyulda 2696-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) «Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2015. - №28. – 22-33-b.

65. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2023 yil 7 martdagi 4/11-sonli Qarori (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023 yil 18 aprelda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3427). Banklar va banklar guruhlarning tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risida//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2023 y., 10/23/3427/0218-son; 24.01.2025 y., 10/25/3427-1/0066-son.

66. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2020 yil 21 sentabrdagi 21/12-sonli Qarori (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020 yil 29 oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3283). "Bir qarz oluvchi, o'zaro aloqador qarz oluvchilar guruhi, shu jumladan bankka aloqador shaxslar uchun tavakkalchilikning eng ko'p miqdori to'g'risida"gi nizomni tasdiqlash haqida//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.10.2020 y., 10/20/3283/1470-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021 y., 10/21/3313/0724-son; 17.07.2023 y., 10/23/1737/3/0487-son; 14.11.2024 y., 10/24/3283-1/0920-son.

67. Ruzmetov Sh.B. O'zbekiston tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlash yo'llari. I.f.n. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2009. – 18 b.

68. Supervision and Regulation. // CAMELS rating system. <https://www.federalreserve.gov>.

69. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 noyabrdagi PF-5877 – sonli "Infiyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.11.2019 y., 06/19/5877/4036-son.

70. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Алпина Паблишер, 2017. – С. 648.

71. Валенцева, Н.И. Банковское дело: Учебник / О.И. Лаврушин, Н.И. Валенцева; Под ред. О.И. Лаврушина. - М.: КноРус, 2013. - 800 с.

72. Шаврук В. Рынок кредитных дефолтных свопов: возникновение и тенденции развития//Банковский вестник. – Минск,

73. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)  
 74. [www.asakabank.uz](http://www.asakabank.uz)  
 75. [www.nbu.uz](http://www.nbu.uz)  
 76. [www.agrobank.uz](http://www.agrobank.uz)  
 77. [www.turonbank.uz](http://www.turonbank.uz)  
 78. [www.group.bnpparibas](http://www.group.bnpparibas)  
 79. [www.db.com](http://www.db.com)  
 80. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)  
 81. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)  
 82. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

MUNDARIJA

KIRISH		3
I BOB.	I-BOB. TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT VA SSUDA OPERATSIYALARINING NAZARIY, HUQUQIY VA METODOLOGIK ASOSLARI	5
§1.1.	Banklarning depozit va ssuda operatsiyalari xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar	5
§1.2.	Tijorat banklari depozit va ssuda operatsiyalarining me'yoriy-huquqiy asoslari	12
§1.3.	Banklarning depozit va ssuda operatsiyalarining metodologik asoslari	17
I-bob bo'yicha xulosa		23
II BOB.	II BOB. TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT VA SSUDA OPERATSIYALARINING METODOLOGIK VA AMALIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI	26
§2.1.	Tijorat banklarining depozit operatsiyalarini rivojlantirish bo'yicha xorij tajribasi	26
§2.2.	Tijorat banklarining ssuda operatsiyalarini rivojlantirish bo'yicha xorij tajribasi	32
§2.3.	Tijorat banklarining depozit va ssuda operatsiyalarini rivojlantirish borasidagi xorij tajribasidan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	40
2-bob bo'yicha xulosa		44
III BOB.	III BOB. O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT VA SSUDA OPERATSIYALARINING METODOLOGIK VA AMALIY ASOSLARI	47
§3.1.	Tijorat banklarining depozit va ssuda operatsiyalarining metodologik asoslari	47
§3.2.	Banklarning depozit operatsiyalari	57
§3.3.	Tijorat banklarining ssuda operatsiyalari	63
3-bob bo'yicha xulosa		70
IV BOB.	IV BOB. O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT VA SSUDA OPERATSIYALARINING METODOLOGIK VA AMALIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	73
§4.1.	Banklarning depozit operatsiyalarining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish yo'llari	73
§4.2.	Tijorat banklarining ssuda operatsiyalarining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish yo'llari	79
4-bob bo'yicha xulosa		87
XULOSA		90
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI		98

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

MELIKOV OTABEK MAXMADAMINOVICH

TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT-SSUDA  
OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH:  
NAZARIYA VA AMALIYOT

## MONOGRAFIYA

“Innovative Publication”  
nashriyoti

Muharrir: I.S.Mamajonov  
Texnik muharrir: J.S.Karimov

Bosishga ruxsat etildi. 18.01.2026 Times garniturası.  
Adadi 20 nusxa. Buyurtma №9. Bahosi shartnoma asosida

Andijon.Samo ko'chasi 32-uy  
[innovativepublication01@gmail.com](mailto:innovativepublication01@gmail.com)

